

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

DILOROM YO'LDOSHEVA

**ONA TILI TA'LIMI MAQSADINING TADRIJYI
TARAQQIYOTI**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
o'quv qo'llanma sifatida tasdiqlagan**

**TOSHKENT
"O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"
Davlat ilmiy nashriyoti
2013**

Yo'ldosheva, Dilorom

Ona tili ta'limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti: O'quv qo'llanma / D. Yo'ldosheva;
Buxoro davlat universiteti.-Toshkent:"O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi", 2013 - 268 b.

KBK 81.2

Ta'lim maqsadi o quv-biluv jarayoni. uning mohiyati. mazmuni, usul va vositalari o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari. shuningdek, mazkur tizimning samaradorligi - qanday shaxs yoki mutaxassisni shakkantirishini ham belgilaydi. Ta'lim maqsadining ijtimoiy buyurtma asosida ifodalanishi shaxs davlat. jamiyat, fan-texnika hamda ishlab chiqarishning umumiy taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Demak, ta'lim maqsadi jamiyat ehtiyojlarini ifodalaydi va uning taraqqiyotini belgilaydi. Butun ta'lim jarayoni - o'quv materialidan boshlab, ta'lim natijasigacha - ta'lim maqsadidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Ta'lim maqsadi oldida turgan asosiya masala bugungi kun va istiqbolda jamiyat-ravnaqi uchun qanday shaxs, mutaxassis tayyorlash kerakligi bilan xarakterlanadi.

Milliy Istiqbolning ta'lim oldiga qo'yadigan vazifalari, jumladan, bugungi kunda maktabda ijodiy tafakkur sohibini, olyigohlarda jahonning ilg or mamlikatlarini mutaxassislari bilan raqobatdoshlikka iqtidorli mutaxassisi tayyorlash uchun ta'lim qanday bo'lishi kerakligini belgilash, maqsadga muvofiq mazmun va usullarni tanlash uchun, biz, eng avvalo, ta'lim maqsadining uning mazmuni hamda usulida in'kosini bevosita o'z tariximiz, an'analarimiz va mezonlarimiz asosida tanqidiy o'r ganishimiz. shuningdek. oldimizda turgan vazifalarni yanada aniqroq belgilashimiz lozim.

Ushbu qo'llanna shu maqsad yo'lidagi bir qadamdir. Ishning amaliy qiymati ham yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqadi va ta'limi ko'zlangan maqsadlarga muvofiqlashtirish uchun nimalar qilishimiz kerakligi haqida ayrim taklif-u mulohazalarni ona tili ta'limi misolida jamoatchilik hukmiga havola etadi.

Mas'ul muharrir

pedagogika fanlari doktori,
professor R.G.Safarova

Taqribchilar

filologiya fanlari doktori,
professor H.G.Ne'matov

pedagogika fanlari nomzodi,
dotsent N.A.Qosimova

Цель образования является тем могущественным фактором, который определяет не только весь процесс образования – его содержание, методы и средства обучения, взаимоотношения ученика и учителя, но и конечный его результат – кто и какой специалист готовится в итоге обучения. Цель образования выступает, с одной стороны, как социальный (государственный) заказ перед образованием, который определяется уровнем развития и нуждами государства, науки, техники, культуры и производства. С другой стороны, цель образования определяет и обуславливает развитие самого общества и производства. Поэтому в системе образования цель его является центральным, ядерным звеном, определяющим его остальные компоненты. Сама же цель образования определяется потребностями общества и производства, их ориентацией на постоянное поступательное развитие или же на застой и топтания на месте, т.к. поступательное развитие общества и производства теснейшим образом связаны с уровнем развития личностей-специалистов, подготавливаемых в результате образования. Поэтому связь цели образования с обществом двойкая – она определяется обществом и, в свою очередь, обуславливает его развитие.

Чтобы научно обоснованно решать и претворять в жизнь задачи, поставленные национальной независимостью перед современным узбекским образованием – в школьной стадии подготавливать личности, способные к поиску и самостоятельному творческому мышлению, а в результате высшего образования – специалистов, способных удовлетворять международным требованиям и конкурировать с выпускниками вузов развитых стран – мы самостоятельно, исходя из своих собственных национальных интересов, должны критически анализировать историю развития цели образования, отражение этой цели в содержании, методах и средствах образования, взаимовлияния общества и образования друг другу. Это будет способствовать разработке и претворению в жизнь наиболее оптимальных путей и методов в решении вышеизложенных задач, стоящих перед независимым Узбекистаном.

Настоящее учебное пособие является лишь небольшим шагом в этом деле. Оно строится на материале анализа развития цели преподавания родного языка в школьной стадии и может способствовать согласованию содержания, методов преподавания родного языка с его целью.

Ответств. редактор

доктор педагогических наук,
профессор Р.Г.Сафарова

Рецензенты

доктор филологический наук,
профессор Х.Г.Нигматов

кандидат педагогических наук,
доцент Н.А.Касымова

© Государственно научно издательство Республика
Узбекистана "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi", 2013 г.

The purpose of education is that powerful factor which defines not only all process of education - his contents, methods and means of training, mutual relation of the pupil and the teacher, but also his final result - who and what expert prepares as a result of training. The purpose of education acts, on the one hand, as the social order before education which is defined by a level of development and needs of the state, a science, techniques, culture and manufacture. On the other hand, the purpose of education defines and causes development of the society and manufacture. Therefore in an education system his purpose is the central, nuclear part defining his other components. The purpose of education is defined by requirements of a society and manufacture, their orientation to constant forward development or to stagnation and marking time. since Forward development of a society and manufacture tesneyshim are connected by image with a level of development of the persons-experts prepared as a result of education. Therefore communication of the purpose of education with a society double - she is defined by a society and, in turn, causes his development.

That scientifically обоснованно to solve and put into practice the problems put by national independence before modern Uzbek education - in a school stage to prepare the persons capable to search and independent creative thinking in summary higher education - the experts, capable will meet the international requirements and to compete to graduates of high schools of the developed countries - we independently, proceeding from own national interests, should analyze critically history of development of the purpose of education, reflection of this purpose in the contents, methods and means of education, interference of a society and education each other. It will promote development and implementation of the optimal ways and methods in the decision of the above-named problems facing independent Uzbekistan

The true manual is only small step in this business. It is under construction on a material of the analysis of development of the purpose of teaching of the native language in a school stage and can promote the coordination of the contents, methods of teaching of the native language with his purpose.

More crucially the editor

The doctor of pedagogical sciences,
Professor R.G.Safarova

Reviewers

the doctor philological a science,
Professor H.G.Nigmatov

The candidate of pedagogical sciences senior
Lecturer N.A.Kasymova

SO'ZBOSHI

Milliy istiqlol, xususan, uning samarasi bo'lmish "Ta'lism to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda "2004-2009-yillarda maktab ta'limi rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi" maktab ta'limi oldiga demokratik jamiyatimizga mos yangi maqsad va vazifalarni qo'ydi. Prezidentimizning: "Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lism past bo'lishi muqarrar", -degan ta'kidlari maktab ta'limi va didaktlar oldiga qo'yan ijtimoiy buyurtma va jamiyat taraqqiyoti uchun zaruriy ehtiyojdir. Bu esa o'z navbatida ta'lism maqsadini to'g'ri belgilash, shu maqsadga muvofiq moddiy zamin, mazmun va vositalar tanlab, ularni o'zarlo muvofiqlashtirish asosida qilingan amalga oshirilishi mumkin. Bunda bosh masala biriinchi navbatda ta'lism-tarbiya qanday shaxsni yetishtirib berishi haqidagi ijtimoiy talabdir. Prezidentimizning yuqorida keltirilgan fikrlaridan anglashilib turibdiki, hozirgi davr kishilari erkin, mustaqil fikrlaydigan bo'lishi lozim. Shuning uchun milliy istiqlolning ilk qadamlaridanoq ta'lism islohotlariga jiddiy kirishildi. Ta'lism maqsadining sovet davrida hukmron bo'lgan bilimdon ijrochi shaxsni tayyorlashdan mustaqil fikrli tadbirkor shaxsni yetishtirish yo'nali shida tubdan yangilanishi umumiy o'rta ta'linda barcha o'quv predmetlari maznuni va ta'lism usullarining yangilanishini talab qildi, zeroki, maqsad hamisha usul va mazmunni belgilab kelgan.

Prezidentimizning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" degan shiorlari mulliy istiqlol sharofati bilan kun tartibiga qo'yiilgan bu maqsadning ildizlarini, asoslarini atroflicha o'tganishni, uni bo'lajak o'qituvchilar, til ta'limi va tadqiqi mutaxassislari orasida keng ommalashtirishni talab qiladi. Mana shuning uchun Dilorom Ne'matovna Yo'Idoshevaning ushbu o'quv qo'llanmasi oliygoҳ talabalari va o'qituvchilar uchun juda foydalidir.

Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, sovet davri didaktikasida ta'lism maqsadining ilmiy muhokamasi rasm emas edi, chunki ta'lism maqsadi davlat buyurtmasi-davlatning ta'lism oldida qo'yan bosh vazifasi sanalib, o'sha davrlarda uni muhokama qilinishi, xususan,

milliy respublikalarda mutlaqo mumkin emas edi. Shuning uchun mustaqillik havosida yayrab nafas olayotgan va dunyo iqtisodiy, ilmiy-madaniy hamjamiyatiga o'zining mustaqil taraqqiyot yo'li asosida shahdam qadamlar bilan kirib borayotgan o'l kamizdagi har bir masala tog'risida, Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarlarida bayon etgan quyidagi fikrlari ta'lim maqsadiga ham to'lato'kis aloqadordir: "Agar biz... bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlanadigan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrılib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumba-shari taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.

El-yurtimiz ko'p asrlik tarixi davomida bunday mash'um xotiralarni necha bor ko'rgan, ularning jabrini tortgan. Shunday asoratlar tufayli tilimiz, dinimiz va ma'naviyatimiz bir paytlar qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz. Ana shu fojeali o'tmish, bosib o'tgan mashaqqatli yo'limiz barchamizga saboq bo'lishi, bugungi vogelikni teran tahlil qilib, mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo'lib yashashga da'vat etishi lozim. O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagu yo'q. Bu haqiqat kishilik tarixida ko'p bora o'z isbotini topgan".¹

Olima D.Yo'ldosheva Prezidentimizning mana shu fikrlarini metodologik asos qilib, "ta'lim maqsadini muhokamasiz, so'zsiz qabul qilish" – sovet an'anasiini buzadi, ta'lim maqsadining tadrijiy taraqqiyot yo'liga nazar soladi, bugun jamiyatimiz oldida ijtimoiy buyurtma-davlat buyurtmasi sifatida qo'yilgan maqsadning:

–o'zbek tilida ta'limning qariyb o'n besh asrlik tarixiy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqligini,

–Prezidentimiz juda to`gri ta'kidlaganlaridek, "fojeali o'tmish, bosib o'tgan mashaqqatli yo'l"ga ega ekanligini,

–bu silsilaning hozirgi kundagi holati uning zamonaviy oliy cho'qqisi bo'lib, oldinda, istiqbolda rivojlanish, davr bilan uyg'unlashishning deyarli cheksiz imkoniyatlariga ega ekanligini,

¹ Каримов И А Юксак маънавият – ингилмас куч Т Маънавият. 2008 й 4-бет

-O'zbekistonimizda turkiy ma'rifatparvarlarning eramizning VII-VIII asrlardayoq o'rta qo'ygan "tukriylarga turkonra ta'lim berish" maqsadi uzoq mashaqqatli yo'lidan keyin faqat milliy istiqlol sharofati bilan amalda vogelanganligini kitobxoniga yetkaza olgan. Shuning uchun bu qo'llanma bo'lg'usi o'qituvchilar va didaktlar uchun foydali manba bo'la oladi deb hisoblayman.

Safarova Rohatoy G`aybullayevna,
*O'zPFITI umumiy o'rta ta'lim mazmuni
pragnostikasi bo'limi mudiri, pedagogika fanlari
doktori, professor.*

*Ushbu kitobni ilmni qadrlagan inson onam-Shamsiya G`ani qizining
yorqin xotirasiga bag`ishlayman.*

KIRISH

...tariximiz haqida gap ketganda, biz hamon rus olimlarining tadqiqotlariga tayanamiz... Lekin qachongacha biz tariximizni birovlarning nuqtayi nazari, qarichi bilan baholaymiz. O`z davlatimiz, xalqimiz, millatimiz tarixini o`zimiz tiklamasak, o`zimiz xolisona yozmasak, uni boshqalar boshqacha qilib yozadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib o`zlikni anglash mumkin emas.¹

I.A.Karimov

Ta'limga ayrim o'quv predmetlari (jumladan, ona tilini o'qitish) maqsadining ta'limga tizimi hamda strukturasida egallagan muhim mavqeyi, ta'limga maqsadining ta'limga mazmuni, usuli, vositalari va pirovard natijasini belgilashda hal qiluvchi omil ekanligiga qaramay, mazkur muammo pedagogika, didaktikaga oid ilmiy adabiyotlarda kam o'r ganilgan. Juda ko'p hollarda (jumladan, rus olimlaridan I.Y.Lerner, M.N.Skatkin, V.V.Kraevskogo, V.S.Lednev, T.A.Ilina, Y.A.Komenskiy, Y.K.Babanskiy, M.A.Danilov, M.M.Potashnik, N.F.Talizina, N.V.Savin, L.M.Fridman, o'zbek olimlaridan O.R.Roziqov, A.Q.G'ulomov, R.G'.Safarova, S.Y.Og'ayev, B.R.Adizov, M.Saidov va boshqalarning ishlarida) bu masalani o'r ganish ta'limga mazmuni va usuli tadqiqiga qo'shib yuborilgan. Pedagogika hamda didaktika bo'yicha darslik va qo'llanmalarda ham ta'limga maqsadi o'z-o'zidan tushunarli hodisa sifatida alohida tahlil etilmaydi. Vaholanki, ta'limga maqsadi ta'limga strukturasida markaziy o'rnlardan birini egallaydi. To'g'ri, didaktika va metodistlarning ta'limga maqsadi tadqiqiga kamroq e'tibor qaratishi ta'limga maqsadining didaktikalar ixtiyoridagi omil emasligi, odatda, u ijtimoiy buyurtma sifatida davlat va jamiyat tomonidan belgilanishi, tadqiqotchi va amaliyotchilarga go'yoki tashqaridan yuklatilishi bilan oqlanishi mumkindek ko'rindi. Biroq mazkur masalani alohida olingen muayyan o'quv predmeti misolida tarixiy nuqtayi nazardan, shuningdek, ta'limga

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ – Т : Шарқ, 1998. – 32 б.

maqsadidagi tadrijiylik hamda inkishof jihatlardan o'rganish davlat va jamiyat taraqqiyoti ahamiyatidagi zarur masalalardandir. To'g'ri, davlat va jamiyat ta'lif maqsadini o'z taraqqiyoti davomida tug'ilgan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun rasmiy ravishda belgilaydi. Biroq davlat va jamiyat ta'lif maqsadini ijtimoiy buyurtma sifatida belgilashda, albatta, ta'lif peshvolari qanday chora-tadbirlarni ilgari surishlariga tayanadi. Shuning uchun ta'lif maqsadi muammosini har tomonlama o'rganish barcha davrlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lif maqsadi silsilasida ona tili ta'limi maqsadi alohida o'rinda turadi. Chunki maktab ta'limi ona tilini ta'lim oluvchiga *o'rgatmaydi* – ta'lim oluvchi ona tilini ta'lim dargohiga kelgunga qadar biladi va undan o'z kundalik amaliy ehtiyojlarini qondirish uchun bemalol foydalana oladi. Ana shu o'rindasi bir necha haqli savollar tug'iladi: Nega zamonaviy ta'limning barcha tur, bo'g'in va bos'ichlari uchun ona tili ta'limi umumiy va zaruriy o'quv predmeti sifatida majburiy kiritilgan? Ona tili ta'limi nimaga xizmat qilishi kerak? Ilmiy grammatica tilshunoslik ilmi asoslarini o'rganish uchunmi? Jamiyat a'zolarining barchasi tilshunos bo'lishi shartmi?!

Tilshunoslik fani va tilshunos tilga mutlaqo ta'sir o'tkaza olmaydi – tilshunos va grammaticklar amriga buysunmaydi. Bu azaldan ma'lum oddiy haqiqat. Jamiyatda hamma madaniyatli kishilarning tilshunos bo'lishi shart ham emas. Demak, ta'limning barcha tur, bo'g'in, bosqich va ko'rinishlarida ona tili ta'limining o'ziga xos maqsadi va zarurati mavjud, zarurat esa o'rganilishi lozim.

Bundan tashqari o'zbek sovet pedagogikasida uzoq muddat davomida "O'zbekistonda ona tili ta'limi faqat Oktabr revolyutsiyasidan keyin amalga oshirildi" degan g'ayriilmiy o'ydirma, o'zbek xalqi, uning uzoq tarixi va qadriyatlariga nisbatan noto'g'ri fikr hukmron edi. Buning sabablarini Prezidentimiz "bizning tariximizni boshqalar yozsa, boshqacha yozadi" degan xulosalarida va bu bo'llimga peshlavha sifatida keltirilgan iqtibosda ochib bergen edilar. Zero, O'zbekiston Prezidenti ta'kidlaganidek, "qachongacha biz tariximizni birovlarning nuqayı nazari, qarichi bilan baholaymiz".¹ Bu so'zlar yog'dusida ona

¹ Каримов И А. Гарихий хотирасин келажак йўқ. Т. Шарқ, 1998. 11-6.

tilimiz – milliy o'zbek tilini o'qitish tarixiga nazar tashlash, bu til ta'limalda o'qitish maqsadining tadrijiy taraqqiyotini o'rganish muhim ilmiy-ma'naviy ahamiyat kasb etishi tabiiy, albatta. Mana shuning uchun ushbu o'quv qo'llanma ona tili va adabiyot o'quv predmetining bo'lajak o'qituvchilarini ona (o'zbek) tilini o'qitishning turli davrlarda maqsadi, bugungi ta'lim maqsadining uzoq ildizlari bilan tanishtirishni ko`zlab tuzildi. Unda ta'lim tili sifatida ona (o'zbek) tilida ta'lim tarixi, ta'lim maqsadining tarixiy rivoji, milliy istiqlol sharofati bilan ta'lim maqsadining tubdan yangilanishi, by maqsadni to`la voqelantirish uchun ona tili ta'limi nazariyasi va usuliyoti oidida turgan ayrim zarur vazifalar xususidagi mulohazalar ifodalangan. Shuningdek, unda:

– "O'zbekistonda ona tili ta'limi faqat Oktabr revolyutsiyasidan keyingina yo'Iga qo'yildi", degan fikrning noto'g'riliği;

– "ona tilida ta'lim" va "ona tilini maxsus o'quv predmeti sifatida o'qitish" tushunchalari bir narsa emasligi;

– ona tilida ta'lim jarayonida ona tili ham o'qitilishi, bunday holatda ona tili va ta'lim tili tushunchalari bir-biriga mos kelishi;

– ona tili ta'limining xat-savod o'rgatish, fikmi uqish va bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirish kabi umumiy va uni maxsus-alohida o'quv predmeti sifatida ta'limini talab etuvchi xussusiy maqsadlari farqlanishi;

– ona tilida ta'lim maqsadining tubdan o'zgarishi mazkur o'quv predmeti ta'limi mazmuni, usuli, vositalarining ham tubdan yangilanishini talab etishi kabi masalalar batafsil bayon etiladi.

Qo'llanma ikki bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'limi ta'lim maqsadi tushunchasi, uning ta'lim mazmuni va usullari bilan aloqadorligini sharhlashga, ikkinchi bo'limi esa ona tilida ta'lim va ona tili ta'limi tushunchalarini farqlash, ona (o'zbek) tilida ta'lim tarixi silsilasida ona tilini o'qitish maqsadidagi tadrijiy taraqqiyot masalalarini yoritishga bag'ishlanadi.

1- BO'LIM

TA'LIM MAQSADI, UNING TA'LIM MAZMUNI, USULI VA VOSITALARI BILAN ALOQADORLIGI

TA'LIM MAQSADI HAQIDA

Reja:

1. Maqsad – muayyan natijaga érishish yo'l va usullarni belgilovchi omil.
2. Ta'lim maqsadi-jamiyatning ma'lum taraqqiyot bosqichida o'z a'zolariga qo'yadigan talablarining avvaldan fikran loyihalashtirilgan modeli.
3. Ta'lim maqsadi-ijtimoiy zarurat, ijtimoiy talab, ijtimoiy buyurtma hamda didaktik masala sifaida.
4. Ta'limning umumiyligi maqsadi va vazifalari.
5. Ta'limning xususiy maqsadi va vazifalari.
6. Ta'limning tur va bosqichlarida maqsad uzviyligi va davomiyligi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar

Ta'lim, ta'lim-tarbiya, ta'lim maqsadi, ijtimoiy buyurtma, ta'lim maqsadi va jamiyat, ta'lim maqsadini belgilash davlat siyosatining ustuvor sohasi, ta'limning umumiyligi maqsadi, ta'limning xususiy maqsadi, ta'lim maqsadi – ta'limning mazmuni, materiali, usul, vositalari va samarasini belgilovchi omil

Niyatingni xolis et, shoyadki, bo'lg'aydir qabul.

Insoniyat tarixida ta'lim olishga ehtiyoj tug'ilgan kundan boshlab, nimani o'rnatish, qancha o'qitish, nirma uchun o'qitish, qanday usullar bilan o'qitish kerak kabi savollar didaktika oldida turgan qadimiy va dolzarb masalalardan sanaladi. Shu muammolarga bog'liq holda kishilarning kundalik faoliyatida maqsad, mazmun, natija kabi tushunchalar tez-tez uchrab turadi.

Mantiqshunoslar nuqtayi nazari bilan qaraganda maqsad-ma'lum jamiyatdagi insonlar amaliy faoliyatining avvaldan fikran o'ylangan natijasi. Ba'zi adabiyotlarda qadimgi hindlarga, ba'zilarida yunonlarga

yoki arablarga nisbat beriladigan: "Maqsad unga erishish yo'l va choralarni belgilaydi", degan hikmatli so'z ostida juda katta ma'no yotadi. Maqsad insonning biror vogelikka bo'lgan ehtiyojining ongdagi in'ikosi yoki fikriy modeli bo'lib, u obyektiv sharoitlardan kelib chiqadi.¹ Maqsadni amalga oshirish natijaga erishish demakdir. Mazmun esa natijaga erishish jarayonining majmuyi, mag'zi, maqsad va uning natijasi o'rtafiga o'zaro munosabatlarning yig'indisidir. Natija o'z navbatida jamiyat ijtimoiy talabining qanday qondirilganligini belgilovchi omildir.

Pedagogik adabiyotlarda "ta'lim", "ta'lim mazmuni", "ta'lim maqsadi" tushunchalari turlicha talqin qilinadi: "Ta'lim–bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi".² Shuningdek, kishilik jamiyatida ta'lim mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi natijasida o'qituvchi va o'quvchi zimmasiga yuklangan o'qitish~o'qish jarayoni bilan belgilanuvchi vazifadir. Bu ta'limning tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatishidir. Keng ma'noda ta'lim jamiyatning barcha sohalarida ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi.³

Ta'lim tarbiyaning muhim omiliidir. Yana ham aniqroq aystsak, ta'lim va tarbiya bir butunlik, bir-biridan ajralmasdir. Bu haqda Prezident Islom Karimov, jumladan, shuni alohida ta'kidlaydilar: "Farzandlarimizni mustaqil va keng fikrash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish– ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi.

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi–bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi".⁴

Ta'lim va tarbiya bir-biridan ajralmas ekan, ta'lim maqsadi va tarbiya maqsadi mohiyatan bir bo'lishi, jamiyatniing bugungi taraqqiyoti ehtiyojmand shaxsni yetishtirishga xizmat qilmog'i shart.

¹ Узбек СЭ. Т. VII – Т. Узбек совет энциклопедияси Бош ред. 1975. – 84 -6.

² Узбек СЭ. Т. X – Т. Узбек совет энциклопедияси Бош ред. 1975 – 607- 6

³ Узбек СЭ. Т. X – Т. Узбек совет энциклопедияси Бош ред. 1975 – 608- 6.

⁴ Каримов И. А. Юксек маънавият – сингилмас куч Т. Майнавият. 2008 й 61-62-бетлар

Bunda, albatta, o'qituvchi-murabbiy faoliyati ulkan ahamiyatga egadir. Ustoz-murabbiy faoliyati tufayli ta'lif jamiyat tomonidan puxta o'ylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida olib boriladigan jarayonga aylanib, jamiyat kutgan natijalarni beradi. Inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo'lgan ta'lif, bilimlarni o'zlashtirish natijasida tafakkur rivojlanishini tezlashtiradi, tarbiya jarayoniga onglilik, uqilganlik, istiqboliy rivojlanuvchanlik bag'ishlaydi.

Hamma zamonalarda ham ta'lif maqsadini belgilash davlat siyosatining ustuvor sohasi hisoblangan. Ta'lifning maqsadi jamiyat amaliy faoliyatining avvaldan fikran o'ylangan natijasi bo'lib, jamiyatning maktab oldiga qo'yan ijtimoiy buyurtmasi ta'lif umumiyligi maqsadi asosida belgilanadi.¹ Ta'lifning maqsad va vazifalari ijtimoiy tuzumga muvofiq o'quv premeti, texnika, madaniyat taraqqiyoti asosida tarixan o'zgarib borishi bilan birga o'rta umumta'lif o'choqlarida o'qitishning didaktik tafsifini ham belgilaydi. Ta'lifning maqsadi o'qitishning ma'lum maqsadga qaratilganligini va shu maqsadga muvofiqligini o'zida aks ettirgan, ta'lifning ijtimoiy tabiatini, uning jamiyatdagi mohiyatini ochib beradigan, uning yo'naliшини, mazmunini, shakl va usullarini belgilab beradigan boshlanmadir. Ta'lif maqsadida insonga nisbatan u qanday bo'lishi kerak, unga qanday ijtimoiy ehtiyojlar uchun ta'lif berish kerak, degan talablar ifodalangan bo'ladi. Ta'lif jarayonida ta'lif maqsadlarini belgilovchi jamiyat talablari to'la holda aks etsagina, bola shaxsi har tomonlama kamol topishi mumkin. Ta'lifning maqsadi o'zining ijtimoiy tabiatiga ko'ra ko'p qirrali bo'lib, u amalga oshgach, ya'ni natijaga erishilgach, erishilgan natija asosida yangi maqsadlar qo'yiladi. Qo'yilgan yangi maqsadlar esa ta'lifning ilk maqsadini takomillashtiradi, dastlab tanlangan ta'lif maqsadi, ularni amalga oshirish vositasiga aylanib boraveradi. Chunki umumiyligi ta'lif jarayonining o'zi ta'lif maqsadini jamiyat taraqqiyoti talablari asosida uzuksiz muvofiqlashtirishni taqozo etadi.

Ta'lif maqsadi ta'lif jarayonini, ta'lif mohiyatini, uning mazmuni, vositalari, usuli, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari va,

¹ Лернер И Я Педагогическая литература о проблемном обучении М. 1983

nihoyat, uning samarasi – qanday shaxsni (yoki mutaxassisni) yetishtirishni belgilab beradi. Ta'lif maqsadi talablariga javob beradigan shaxs o'z navbatida ta'lif maqsadini oldingi bosqichdan yana ham yuqoriqoq pog'onaga ko'tarishni talab qiladi va mana shu holatdagina jamiyat va shaxs taraqqiyoti uzliksiz ilgarilab, yuksalib boradi-maqsadni voqelantirish qanday shaxsni yetishtirishni, jamiyatning umumiylar tarbiyalanganlik darajasi esa bo'lg'usi taraqqiyot yo'naliшини belgilaydi. Demak, ta'lif maqsadi jamiyatdan oziqlanadi va ayni zamonda jamiyat kelajagini belgilaydi. Butun ta'lif jarayoni-ta'lif materialidan boshlab, ta'lif natijasi (samarasi)gacha - ta'lif maqsadi bilan belgilanadi. Ta'lif maqsadi oldida turgan bosh masala: jamiyatga bugun va keljakda jamiyat ravnaqi hamda istiqboli uchun qanday shaxs (mutaxassis) tayyorlash kerak, jamiyat qanday shaxsni talab qiladi – ta'lif jarayoni shunday shaxsni yetishtirib berishi zarur. Mana shuning uchun o'qitishning eng muhim bo'g'inlarida ta'lif maqsadi davlat tomonidan belgilab qo'yilgan va jamiyat uchun umumiylar va qat'iy qonun tusini oladi. Hozirgi kunda ta'lifning turli bosqichlarida maqsadning kim tomonidan belgilanishini birinchi chizmada qo'yidagicha ko'rsatish mumkin:

1-chizma

TA'LIM MAQSADI VA UNI BELGIOVCHILAR

BELGIOVCHI	TA'LIM BOSQICHLARI
Davlat hujjatlari (qonunlar)	<p>Ta'lifning umumiylar maqsadi</p> <p>Ta'lif turlari va bosqichlari maqsadi</p>
DTS	<p>O'quv predmeti maqsadi</p> <p>O'quv predmeti bo'limlari maqsadi</p> <p>O'quv predmeti bosqichlari maqsadi</p>
Vazirlik (o'quv dasturi)	<p>O'quv predmetining yillik ta'lif maqsadi</p> <p>O'quv predmetining choraklik ta'lif maqsadi</p>
O'qituvchi-metodist	<p>O'quv predmetining mavzuviy ta'lif maqsadi</p> <p>O'quv predmetining muayyan dars maqsadi</p>

Shu o'rinda bir masalani alohida uqtirib o'tish lozim. Ta'lim maqsadi ta'limning mohiyatini belgilar va mohiyatan ijtimoiy buyurtma (davlat zakazi) mavqeyida ekan, u pedagoglar, didaktlar, muayyan o'quv predmetlarni o'qitish usuliyoti mutaxassislari, metodistlar diqqat markazida bo`lishi kerak. Afsuski, hamma vaqt ham shunday emas. Didaktik adabiyotlarda ta'lim mazmuniga jild-jild tadqiqotlar bag`ishlangan holda ta'lim maqsadi masalasi hamisha chetda qolib keladi. Ta'lim maqsadi pedagogik adabiyotlarda eng kam o`rganilgan masalalardandir desak, xato yoki mubolag'a qilmagan bo`lamiz.¹ Buning obyektiv sabablari ham bor. Birinchidan, yuqorida aytib o'tganimizdek, ta'lim maqsadi ta'lim mazmuni, usuli va, nihoyat, uning butun jarayoni va natajasini belgilovchi omil bo`lganligi uchun ta'limning istagan muammosi tadqiq-u tavsifida, muhokama-yu munozarasida ta'lim maqsadi masalasi muhokama etiladi. Shuning uchun uni maxsus o`rganishga zarurat yo`qdek tuyuladi. Ikkinchidan, ta'limning maqsadi – ijtimoiy buyurtma, ijtimoiy talab va juda ko`p hollarda siyosat, davlat hamda jamiyat taraqqiyoti, shuningdek, talabi bilan uzviy bog`liq masala, pedagog hamda didaktlar hal qiladigan sof ilmiy yoki ilmiy-metodik muammo emas. Ta'lim maqsadi-davlat ahamiyatiga ega bo`lgan siyosiy-ijtimoiy masala: u davlat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot talablari asosida ta'lim oldiga qo'yiladi. Ta'lim peshvolari, ta'lim muassasalari mana shu talabni samarali qondirish yo'l, usul va vositalarini ishlab chiqishlari, uni takomillashtirishlari lozim. U ma'lum taraqqiyot nuqtasiga ko'tarilgach, ta'lim maqsadi yangilanishi va oldingi maqsaddan yuqoriqolarini o'z oldiga qo'yishi mumkin.

Ta'lim maqsadi davlat ahamiyatiga molik masala bo`lganligi sababli u hukumat tomonidan belgilanadi. Buning yorqin misolini mustaqil O'zbekistonimizning taraqqiyot yo'lida ham ko'rishimiz mumkin. Mustaqillik memorondumidan keyin (31-avgust 1991-yil), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek,

¹ Коменский Я А Бюк дидактика – Т. Ўқитувчи. 1975. – 240 б., Леднев В С Содержание общего среднего образования (Проблемы структуры). – М: Педагогика, 1980. – 264 стр., Скакина М.Н., Кравецкого В В Знания- один из видов (элементов) содержания образования – М: Педагогика, 1978. № 7.

"mamlakatimizning istiqlol yo`lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko`nikmalari darajasiga chiqarish"¹ birinchi darajali masala sifatida o`rtta qo`yildi. Bu sohada qilingan eng katta ishlardan biri sifatida Prezidentimiz I.Karimov: "Maktab sohasida "Ta'lim haqida"gi qonun qabul qildik" deb sanab o`tdilar. Haqiqatan ham, mustaqillik memorandumidan keyin tezda O`zbekiston Respublikasining "Ta'lim to`g`risida"gi Qonuni qabul qilindi. Bu qonun ta'lim tizimimizda erkinlik, ittifoq tizimidan chiqish, ta'limni milliylashtirishga qaratilgan edi. Oradan ko`p o'tmay, mustaqil O`zbekistonimiz jahon hamjamiyatidan, mustaqil davlatlar tizimidan barqaror o`rin oldi va taraqqiyotning O`zbek modelini jahonga namuna qildi. Mana shu O`zbek modeling muhim tarkibiy qismlaridan biri O`zbekiston Respublikasining "Ta'lim to`g`risida"gi Qonuni va uni hayotga tatbiq qilish uchun ishlab chiqilgan hamda amalga joriy etilgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" (KTMD)dir. "Ta'lim to`g`risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"i bugungi kunda O`zbekistonimizda ta'lim maqsadini belgilab beruvchi asosiy hujjatlardandir.

Ta'lim maqsadi davlat tomonidan belgilanishi sababli bu masala, ta'kidlab o`tganimizdek, pedagogik adabiyotlarda ko`p va maxsus muhokama etilmaydi, lekin u ta'lim jarayoni va samarasini belgilaydi. Shuning uchun ta'lim jarayoni masalasi ustida to`xtalamiz.

Ayrim didakt-olimlar (S.P.Baranov, V.A.Slastenin, O.R.Roziqov va b.) ta'lim jarayonini "ikki subyekt faoliyatining bir-biriga kirishuvidan shakllanadigan hosila" deb qaraydilar. Ikkinci guruh olimlar esa (I.Y.Lerner, M.N.Skatkin, N.V.Savin va b.) o`qitish jarayonini ta'lim maqsadi orqali "ikki subyekt -ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatini ta'lim maqsadni amalga oshirish uchun munosabatga kirituvchi faoliyat", deb ta'riflaydilar. Nazarimizda, ta'lim jarayoniga o`rgatuvchi va o`rganuvchini ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun munosabatga kirituvchi faoliyat sifatida qarash ta'lim haqidagi umumiy

¹ Барқомол авлод – Ўзбекистон тараққиётинин пойдепори – Т. Шарқ, 1997 – 5-6.

mantiqqa hamohangdir. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati sintezida ta'limning maqsadi aniq va ravshan tushunilmaganligi sezilsa, shaxsni kamol toptirishga astoydil intilish bo'lmaydi. Balki ta'lim jarayonida bilib bilmay yondashish, o'zibo'larchilik avj oladi, ta'lim ajratilgan vaqtini to'ldirish uchungina olib boriladigan jarayonga aylanib qoladi. Ta'limning aniq begilangan maqsadi esa ta'lim jarayonida jamiyat talablarini qondira oladigan shaxsni tayyorlashni "loyihalash"ga imkon beradi.

Ta'limning umumiy maqsad va vazifalari, avvalo, ta'limga qo'yiladigan ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqadi va o'z navbatida har bir o'quv predmetini o'qitishning xususiy maqsad va vazifalar belgilaydi. Ta'limning umumiy maqsadi tarbiya maqsadı bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu bog'liqlik jamiyat talablariga muvofiq unda tarkib topayotgan kishilar o'rtaсидаги munosabatlarning taysifi bilan aniqlanadi. Ta'limning umumiy maqsadini belgilashda tarbiya maqsadining, ayniqsa, ijtimoiy-ma'naviy tarbiya va estetik tarbiya bilan bog'liqlik jihatlari hisobga olinishi shu asosda ta'lim-tarbiya maqsadi tarbiyalanuvchini har tomonlama shakllantirishga yo'naltirilmog'i lozim. Ta'limning umumiy maqsadi tarbiya maqsadlari bilan uyg'unlashib, mushtaraklik hosil qilgandagina tarbiyalanuvchi ongini jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish, rivojlantirish tizimi – ularning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda ishtirok etishiga qaratilgan samarali ta'sirlar majmuyi vujudga keladi. Shuning uchun ham ta'limning umumiy maqsadi ta'lim oluvchida faqat fikrash qobiliyatining rivojlantirishni emas, tarbiyalanuvchi shaxsini har tomonlama yetuklikka yetkazishga xizmat qilish imkoniyatlarini belgilab berishdek ulkan vazifani bajaradi, tarbiyaning ko'p maqsad va vazifalariga ta'lim orqali erishiladi. Prezidentimiz o'zlarining tarixiy ma'ruzalarida buni alohida ta'kidlaydilar: "Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak".¹

Ta'limning umumiy maqsadini amalga oshirish uchun ilm maskanlarida har bir tarbiyalanuvchini ma'naviy rivojlantiruvchi yetarli

¹ Karimov I A Barkamol avlod-O zbekiston taraqqiyotining poydevori /Barkamol avlod orzusi To'ldirilgan ikkinchi nashri. Toshkent O'zMQ. -2000. 16-b

shart-sharoit bilan ta'minlash lozim. Shu bilan birga ta'lim maqsadi ta'lim mazmuni, ta'lim materiali, vositalari va nihoyat samarasini belgilaydi. Buni 2-chizmada quyidagicha ifodalash mumkin:

2-chizma

TA'LIM MAQSADI TA'LIMNING MAZMUNI, MATERIALI, USUL, VOSITALARI VA SAMARASINI BELGILOVCHI OMIL

Ijtimoiy buyurtma

(Jamiyatning shaxsga/mutaxassisga qo'yadigan ruhiy, axloqiy, ijtimoiy, kasbiy, jismoniy talablar)



Tarbiya maqsadi ~Ta'lif maqsadi

(Ta'lif natijasida qanday shaxs yoki mutaxassisni yetishtirish lozim)



Ta'lif mazmuni

(Mazkur shaxs/mutaxassisga qanday bilim berish, unda qanday zaruriy malaka va ko'nikmalarni hosil qilish bilan amalga oshiriladi)



Ta'lif materiali

(Ta'lif mazmuni ko'zlagan bilim, malaka, ko'nikmalarni hosil qilish uchun ta'lif oluvchining yoshi va saviyasiga muvofiq ravishda ta'lif mazmunining tarkibiy qismlari)



Ta'lif usuli

(Ta'lif oluvchi va ta'lif beruvchining o'zaro munosabati)



Ta'lif vositalari

(Ta'lif oluvchi va ta'lif beruvchi ta'lif jarayonida tayanadigan, foydalananadigan barcha vositalar)



Ta'lif samarasi


(Ijtimoiy buyurtmaga mos ta'lif maqsadi talablariga javob beradigan shaxs)



Jamiyat ravnaqi va istiqboli

Ta’lim maqsadini to’g’ri belgilash jamiyat hayoti, ravnaqi va istiqboli uchun iqtisodiy munosabatlar hamda ishlab chiqarishdan keyin ikkinchi o’rinda turuvchi masaladir. Bu yerda O’zbekiston Respublikasining KTMDda to’g’ri belgilanganidek, shaxs-ishlab chiqarish munosabati bir tomonlama emas, balki ikki tomonlamadir: jamiyat, ishlab chiqarish qanday shaxs yetishtirish lozimligini belgilasa, ta’lim olgan shaxs (ta’lim samarasи) ishlab chiqarish samaradorligini belgilaydi. Shuning uchun KTMDda shaxs O’zbek modelining markazida turadi. (Qarang: 3-chizma.)

3-chizma




Shaxs nafaqat ishlab chiqarish, davlat, jamiyat, ta'lim markazida turadi, balki ularning o'zaro munosabatlarini ham, ravnaq-u taraqqiyotini ham belgilaydi. Shaxsni yetishtirish esa ta'lim-tarbiya maqsadi bilan belgilanadi. Demak, ta'lim maqsadining pirovard natijasi jamiyat qanday shaxsni talab qilishidadir. Butun ta'lim tizimi mana shu maqsadga xizmat qilmog'i, ta'lim jarayonidagi har bir predmet, har bir turdagi faoliyat, har bir dars va topshiriq mana shu maqsadga qaratilmog'i kerak. Ta'lim tizimida o'qitilayotgan har bir o'quv predmeti shu maqsadning qaysidir bir "vint"chasini yoqelantirishi lozim. O'quv predmetining xususiy maqsadi ta'limning umumiyligi maqsadi bilan umumiylilik-xususiylik, butun-bo'lak munosabatlari bilan bog'lanishi shart. O'quv predmetininig maqsadi esa uning ta'lim mazmuni, materiali, usulini belgilaydi. O'quv predmeti bo'yicha har bir

dars-u topshiriq shu maqsadga bo'y sunmog'i, har bir qadam shu xususiy maqsadning qaysidir yoki qanday "murvat'i bo'lishi zarur.

Ta'larning muayyan ijtimoiy talabdan dars-mashg'ulotgacha bo'lgan bosqichlari maqsadida pog'onaviylikni quyidagi 4-chizmada ko'rsatish mumkin:

4-chizma



Bu pog'onaning ilk to'rt bo'g'inida ta'limga maqsadi davlat tomonidan belgilangan hujjatlarida, jumladan, "Ta'limga to'g'risida"gi Qonunda o'z aksini topadi. Jumladan, bu qonunning 11-, 12-, 13-, 14-, 15-, 16-, 17-moddalari ta'larning har bir turi va tur ichidagi

bosqichlarning umumiyligi maqsadini belgilab beradi.¹ Bunda, masalan, umumiyligi o'rtalim maqsadi quyidagicha belgilanadi. "Umumiyligi o'rtalim bosqichlari quyidagilar:

- boshlang'ich ta'limgiz (I-IV sinflar);
- umumiyligi o'rtalim (V-IX sinflar).

Boshlang'ich ta'limgiz umumiyligi o'rtalim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandor. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yetti yoshdan qabul qilinadi.

Umumiyligi o'rtalim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi; dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga hamda ta'limgizning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi. Bolalarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashgan maktablar tashkil etilishi mumkin".²

Bevosita o'quv predmeti bilan aloqador bo'lgan V-VIII bo'g'lnlarda maqsad, I-chizmada ko'rsatilganidek, DTS, o'quv dasturi, dars ishlansMASI bilan belgilanadi.

Bu silsiladan ko'rinish turibdiki, maktabda har bir dars (topshiriq) maqsadi – bu umummilliy ta'limgiz maqsadining bir halqasidir. Agar ta'limgiz maqsadi zanjirining 4-chizmada ko'rsatilgan I-IV bo'g'nlari umum davlat hujjatlari (bizda "Ta'limgiz to'g'risida"gi Qonun, DTSlari) bilan belgilansa, uning beshinchi-sakkizinchisi bo'g'lnlari Vazirlig tom'onidan tasdiqlangan dasturlar bilan belgilanadi. Har bir o'quv predmeti bo'yicha dasturda shu o'quv predmetining bo'limgiz, bo'g'in, bandlari maqsadi yoritilgan bo'ladi. Shu sababli mutuxassis va amaliyotchilar, o'qituvchilar zimmasiga muayyan o'quv predmetining bo'limgiz (bandlari) maqsadining mavzulari va har bir muayyan darsda voqelanishini aniqlash, ta'limgiz maqsadining ko'rsatilgan sakkiz pog'onasi orasida uzviylik va davomiylikni izchil davom ettirish mas'uliyati tushadi: o'qituvchi har bir dars-topshiriq uchun ishlansMASI yoki ko'rsatma tuzib, uning maqsadini belgililar ekan, uning ko'z

¹ Баркамол авлод. Узбекистон гараккинетининг пойдевори – Т. Шарқ, 1997 - 23-24-6.

² O'sha asar - 23-6

o'ngida, diqqat markazida ta'larning umumiy maqsadi, o'quv predmetining muayyan ta'lim maqsadi turishi lozim.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. "Maqsad unga erishish yo'l va choralarni belgilaydi", degan hikmatning ma'nosini izohlang.

2. Sizningcha, hamma zamonalarda ham ta'larning maqsadini belgilash davlat siyosatining ustuvor sohasi hisoblanganmi? Fikringizni dalillang.

3. Ta'larning umumiy va xususiy maqsadlari deganda nimalar nazarda tutiladi?

4. Ta'larning umumiy va xususiy maqsadlari kimlar tomonidan, qanday tartibda belgilanadi?

5. "Ta'lim turlari va bosqichlari maqsadi" deganda niman tushunasiz? "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da bu haqida nima deyilgan?

6. Ta'lim maqsadi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchini o'zar munosabatlarga kirituvchi omil ekanligini tushuntiring.

7. Ta'lim turlari maqsadi va ta'lim bosqichlari maqsadi o'zar qanday farqlanadi? Misollar asosida tushuntiring.

8. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 11-, 12-, 13-, 14-, 15-, 16-, 17-moddalari nima haqida?

9. Shaxs~ishlab chiqarish munosabati bir tomonlama emas, balki ikki tomonlama ekanligini KTMD asosida tushuntiring.

10. "KTMDda shaxs ta'limi O'zbek modelining markazida turadi" degan fikrni o'zingiz tushunganinigizcha izohlab bering.

Foydalanish uchun adabiyotlar: |1; 2; 3; 4; 64; 70; 71; 72; 73; 74; 75|

TA'LIM MAZMUNINING TA'LIM MAQSADI BILAN ALOQADORLIGI

Reja:

1. Ta'lim mazmuni va uning tarkibiy qismlari.

4. Ta'lim mazmuni ta'lim maqsadining yoyilmasi sifatida.

2. Bilim va ijodiylik, bilim va uning amaliy tatbiqi.

5. Bilim~ malaka~ ko'nikma~odat ~ tabiat zanjiri haqida.

2. Ona tili o'quv predmetining maqsadi va mazmuni mutanosibligi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar

Ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, ona tili o'quv predmetining umumiy maqsadi. DTS talablari, bilim va ijodiylik, bilim va uning amaliy tathbiqi, malaka, ko'nikma, odat, tabiat. ta'lim mazmuni – ta'lim maqsadining yoyilmasi

*Utlubul ilma farizatun alo kuli mo'minin va mo'minatin
(Ilmga intilish har bir mo'nun va mo'mina uchun farzdir)*

*"Hadis"*dan

Oldingi bo'limda aytib o'tganimizdek, ta'lim maqsadi, xususan, ta'limning umumiy maqsadi mohiyatan ijtimoiy buyurtma, davr talabi va davlat zakazidir. Bu buyurtma ta'lim mazmuni orqali vogelanadi. Ta'lim mazmuni, ya'ni nimani o'qitish, hukumat tomonidan tasdiqlanadigan ta'lim dasturlari, maktab uchun darsliklar, qo'llanma-yu yo'riqnomalarda mujassamlangan bo'ladi. "Maqsad mazmun va usulni belgilaydi" zarurati asosida ta'limning maqsadi ta'lim mazmuni va ta'lim usullari bilan bog'lanib ketadi. Ta'limning umumiy mazmuni uning maqsadiga mos keladigan ijtimoiy shart-sharoit, texnika rivoji, san'at holati va davlatning siyosatini, o'quv predmeti xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilanadi. Ta'lim jamiyatning obyektiv qonuniyatlarini va istiqbolini to'g'ri tushunish natijasida bir maqsadga qaratilgandagina ta'lim mazmunida yaxlit jarayon o'z aksini topadi. Har qanday jamiyatda ham ta'limning umumiy mazmuni tarbiyalash maqsadlariga bog'liq bo'lib, muayyan o'quv predmetlari ta'lim mazmuni ana shu maqsadning aniq ifodasidir.¹ Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tarbiya maqsadi ta'lim maqsadlari bilangina to'laqonlidir. Tarbiya maqsadlarining o'zgarishi bilan ta'lim mazmuni ham qayta quriladi.

Ta'lim mazmuni ta'lim muassasalari uchun tasdiqlangan davlat ta'lim standartlari, dastur, darslik, o'quv qo'llanmalari, metodik tavsiyalarda o'z aksini topadi. U tarkiban ancha murakkabdir. Didaktik

¹ Савин Н В Педагогика - Т. Уйқитувчи, 1975 - 106-6

adabiyotlarda ta'lim mazmuni tarkibi xilma-xil talqin etiladi. I.Y.Lerner, M.N.Skatkin, L.N.Taranov kabi olimlarning pedagogikaga oid asarlarida ta'lim mazmuni ta'lim oluvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish uchun tanlangan, uslubiy jihatdan ishlangan boy ijtimoiy tajribaning bir bo`lagi deb hisoblanadi va ta'lim usuli unga qo'shilmaydi.¹ V.S.Lendev, N.M.Yakovlev, A.M.Soxor, Ch.Kupisevich kabi bir qator didaktlar esa bu tushuncha ostida uni o'rgatish usullarini ham tushunishadi: "ta'lim mazmuni-yoshlarni ma'lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalash maqsadida ma'lumot mazmunidan tanlanib, ta'lim jarayoniga olib kirilgan bilim, malaka, ko'nikma, faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat va tafakkur hodisalarini emotsiyonal baholashga doir munosabatlardir," deb ta'riflaydilar.² Shunda ta'lim mazmuni ta'lim oluvchi egallashi lozim bo'lgan bilimlar tizimi va unda hosil qilinadigan malaka va ko'nikmalar bilan bog'lanadi.

Ta'lim mazmunining tarkibiy qismlari haqida yuqoridaagi bayondan ham ko`rinib turganidek, didakt olimlarda yakdillik yo`q. Hatto ayni bir didaktning turli davrda yozilgan asarlarida ta'lim mazmuni tarkibi turlicha talqin qilinishi hollarini ham ko`rishimiz mumkin. Chunonchi, I.Y.Lerner "Ta'lim mazmuni tushunchasi ostida, odatda, bilim va malaka tushuniladi. Ba'zan esa ta'lim mazmuni deb ... faqat beriladigan bilimlar tushuniladi, xolos. Uzoq yillar davomida o`quv dasturlari berilishi lozim bo'lgan bilimlar ro'yxatidangina iborat edi," deb yozadi va bunday tor tushunishni qoralab, ta'lim mazmuni chegarasini ancha kengaytiradi va uning tarkibiy qismlari sifatida:

- 1) beriladigan bilimlar;
- 2) bilimlar asosida hosil qilinadigan malakalar (умение) va ko'nikmalar (новыки);
- 3) ijodiy faoliyat;
- 4) emotsiyonal munosabat

¹ Лернер И.Я. Дидактическая система методов обучения. – М.: Педагогика, 1976 ; Лернер И.Я., Скаткин М.Н О методах обучения – М: Педагогика, 1979 – стр 15-121 . Лернер И.Я Развитие мышления учащихся (в процессе обучения истории). – М: Изв. «Просвещение», 1982 – 192 стр.

² Розиков О., Огаев С., Махмудова М., Адизов Б. Дидактика. – Т: Фан, 1997 - 85-6

kabilarni ko'rsatdi.¹ Keyingi asarlarida esa I.Y Lerner o'ctituvchi va o'quvchi orasidagi munosabat va ta'lif usulini ham ta'lif mazmuni tarkibiga kiritadi.²

Ba'zi didaktlar (M.Mahmudova, S.Og'ayev, O.Rozikov, B.Adizovlar) ma'lumot mazmuni va ta'lif mazmuni tushunchalarini farqlab, ta'lif mazmunini "ma'lumot mazmunining dinamikasi – harakati" shaklida tushunadilar va ta'lif mazmuni tushunchasini quyidagicha sharhlaydilar: "Ta'lif mazmuni – yoshlarni ma'lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalash maqsadida ma'lumot mazmuniidan tanlanib, ta'lif jarayoniga olib kirilgan bilim, ko'nikma, malaka, faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat, tafakkur hodisalarini emotsiyonal baholashga doir munosabatlardir".³

Mazkur tavsifdan ko'rinish turibdiki, bu olimlar ta'lif mazmunining tarkibiy qismlarini aniq va ravshan sanab bermasalar-da, ta'lif mazmunining tashkil etuvchilari sifatida quyidagilarni ajratadilar:

- 1) berilishi lozim bo'lgan bilimlar;
- 2) bu bilimlar asosida hosil bo'ladigan malaka, ko'nikmalar;
- 3) faoliyat usullari;
- 4) emotsiyonal baholash.

Mualliflar "faoliyat usullari" tushunchasini ochib bermaydilar. Lekin ko'rinish turibdiki, unga "ijodiy" aniqlovchisi berilsa, ular I.Y.Lernering izidan borganlar.

A.G'ulomov, H.Ne'matovlar "Ona tili ta'lifi mazmuni" metodik qo'llanma⁴larida ta'lif mazmuni masalasi xususida to'xtalib, uning to'rt tarkibiy qismini alohida sanab o'tadilar:

- 1) o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bilimlar tizimi;
- 2) ilmiy-nazariy bilimlarga muvofiq keladigan ko'nikma va malakalar tizimi;
- 3) ijodiy faoliyat usullari;

¹ Лернер И Я Развитие мышления учащихся (в процессе обучения истории). - М: Изв «Просвещение», 1982. - 34-37-стр.

² Лернер И Я Дидактические основы методов обучения - М: Педагогика, 1981

³ Розиков О., Огаев С., Махмудова М., Ализов Б. Дидактика. - Т.: Фан, 1997. 85-6

⁴ Гуломов А., Нематов Х. Она тили таълими мазмунин - Т: Укитувчи, 1995. - 128 б.

4) o'quvchi ~ o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlar tizimi.¹

Demak, ta'lismazmuni tushunchasini tor va keng ko'lamda talqin etish mumkin. Tor ma'noda ta'lismazmuni deganda ta'lismoluvchiga berilishi, o'zlashtirilishi talab etiladigan bilimjar tushuniladi. Keng ma'noda ta'lismazmuni deganda ta'lismoluvchilarga qanday bilimlar berish, bu bilimlarni qanday usul bilan berish lozimligi, o'qituvchi o'quvchiga, o'quvchi o'qituvchiga qanday yondashishi, ta'lismatijasida tarbiyalanuvchi nimalarni qila olishi va hatto o'z faoliyatiga ichki baho bera olishi tushuniladi. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, keng ma'noda ta'lismazmuni ta'lismaqсадidan boshqa uning barcha asosiy tarkibiy qismlarini, jumladan, ta'lismusuli, ta'lismositalari, ta'lismatijasini o'z ichiga oladi va ayni zamonda ta'lismaqсадining yoyilmasi, uning voqelantirishninig material, usul va mositalarining, ta'lismositaları ishtirokchilarininig o'zaro munosabatlarining oldindan loyihalashtirilgan modeli maqeyini kashf etadi. Shuning uchun ta'lismositalarıda ta'lismaqсадidan keyin ikkinchi ahamiyatli tomon keng tushunilgan ta'lismazmuni -ta'lismaqсадining yoyilmasidir.

Ta'lismazmuni tushunchasi haqida gapirilganda bu tushunchaning "ta'lismning umumiyligmazmuni", "ta'lismuri (bosqichi)mazmuni" va "ma'lum bir o'quv predmeti ta'lismazmuni" kabi voqelanishini farqlash lozim.

Ta'lismning umumiyligmazmuni ta'lismning umumiyligmazsadi bilan kesishadi. Ta'lismuri (bosqichi)mazmuni deganda ta'lismning ma'lum bir turi (bosqichi)da o'rganiladigan "o'quv predmetlari, ularning o'zaro aloqadorligi va o'rganilish tartibi" tushuniladi.² "O'quv predmetining ta'lismazmuni" tushunchasi bularidan ancha farq qiladi. U, albatta, ta'lismning umumiyligmazsadi va mazmuniga mutanosib holda-uning bilan umumiylilik-xususiylik, butun-bo'laklik munosabatida belgilanadi, lekin har bir o'quv predmeti uchun – bu o'quv predmetini o'qitish maqsadi bilan bog'liq ravishda o'z xususiyatlari ega. Ona tili o'quv predmeti ham shunday. Ta'lismatizimida ona tilining o'qitish

¹ Гуломов А., Нематов Х. О на тили таълими мазмуми. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 5-8. 6

² Леднев В.С. Содержание общего среднего образования (Проблемы структуры). – М.: Педагогика, 1980 – 7-стр

maqsadlariga mos ravishda uning ham o`ziga xos ta'lim mazmuni bor va u ta'limning tur va bosqichlari uchun davlat tomonidan tasdiqlanadigan ta'lim dasturlarida o`z aksini topadi.

Ta'lim mazmunining asosiy tarkibiy qismi bilimlar tizimidir. Tomanda ta'lim mazmuni deganda mana shuning o`zining tushunilishi haqida ham yuqorida aytib o'tdik. Bilim nima? Bilim insonning kundalik hayotida orttirgan tajribalari, umumlashmalari, takrorlangan turuvchi hodisalarda ochgan qonuniyatlar bo'lib, avloddan avlodga yetkaziladi. "Bilim - moddiy borliqning inson ongidagi in'ikesi, tajribada sinalgan aniq natijalaridir".¹ Bilimlar asoslari, tamoyillari, qonunlar tarzida mavjuddir. Insonning faol va buniyodkor ongi va tafakkurining mahsuli bo'lgan bilim insonni hayvondan farqlaydi. Lekin ta'lrim tizimi ta'lim mazmuni tarkibiga kiritiladigan bilimlar silsilasiga o`ziga xos ravishda yondashadi – ta'lim oluvchiga berilishi, singdirilishi zarur bo'lgan bilimlarni ta'lim maqsadi "elagi" dan o'tkazadi va, albatta, beriladigan bilimlarni pragmatik ahamiyati, ya'ni olingan bilimlarni amaliy qo'llash – tatbiq va ijodliylik imkoniyatlari nuqtayi nazaridan baholaydi. Shuning uchun bilim/ilm umuman va ta'lim mazmuni tarkibiy qismi sifatida belgilangan bilimlar/ilmiy talqin va tahlil asoslari ayni bir narsa emas – ta'lim mazmuni tarkibiga kiritilgan bilimlar silsilasi umumiyligi bilim/ilmning ta'lim maqsadi nuqtayi nazaridan tanlangan, ta'lim oluvchinining yoshi, aqliy, jismoniy, kasbiy (faoliyat) xususiyatlari va ijtimoiy (jumladan, kasbiy) ehtiyojlariga muvofiqlashtirilgan bo'lagi, parchasidir. U, albatta, pragmatik ahamiyatli – tatbiq etiladigan va uning asosida ijod qilish mumkin bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lmog'i zarur.

Bilim tatbiq, ijod bilan ahamiyatlidir. Shayx Muslihiddin Sa'diy Sherzoiyga nisbatan beriladigan: "Bilimiga/ilmiga amal qilmaydigan mulladan ustiga kitob ortilgan eshak yaxshi", hikmatli so'zi bejiz emas. Bilim amaliy tatbiqini topmasa, u ta'lim oluvchi uchun ortiqcha yuk va juda tez xotiradan ko'tarilib, unutiladi, bunday – amaliy tatbiqsiz bilimni o'rganish va o'rgatishga sarflangan mehnat zoe ketadi. Lekin bilim va ijod, bilimdonlik va ijodiylik, bilim va uning amaliy tatbiqi ham bir

¹ Розиков О., Огаев С., Махмудова М., Адизов Б. Дидактика Т. Фан. 1997 85-6

narsa emas. Ularning har biri xilma-xil narsalar ekanligi haqida qadimgi yunon faylasuflari ham, sharq mutafakkirlari ham juda qimmatli fikrlarni bayon etadilar.

Yusuf Xos Hojib "Dasturi muluk" ("Maliklar-shohlar uchun qo'llanma") ham deb nomlanagan "Qutadg'u bilig" asarida (1069-yilda yozilgan) bilig va uqush (uquv, ijodiy qobiliyat, farosat)ni keskin farqlaydi. "Bilik" (bilim)ni o'rganish va o'rgatish mumkinligi, lekin uqush (o'sha davr sinonimlari: *o'g, aql, xirad, tadbir*; hozirgi ma'nodoshlari: *aql, idrok, farosat, uquv*) alohida ilohiy (tug'ma) ekanligini ta'kidlaydi va o'z asarida *Bilik uqush azrimin ayur* - (bilim va uquv - idrok farqini bayon qiladi) degan maxsus bob ochadi.¹ Bilim va ijodiy qobiliyatning o'zaro nisbiy bog'lanishini buyuk didakt (Yan Kominskiy) ham², hozirgi tadqiqotchilar ham to'liq tan oladilar. Jumladan, I.Y.Lerner bu haqda shunday yozadi: "Inson ijod qila olmasligi, biroq har qanday ishni bajara olishi mumkin. Insonning ijodiy imkoniyati uning bilimlari hajmigagina bog'liq emas. Bilim ijodiy faoliyat chegarasini, hal etilishi zarur bo'lgan vazifalar ko'lamini kengaytiradi. Lekin o'ta cheklangan bilimlarga ega bo'lgan holda juda sermahsul ijodkor bo'lish ham mumkin... O'tmishtda savodsiz aholi orasida juda ko'p ijodkor, bunyodkor shaxslar bo'lgan. Shuning uchun Demokrit: "Bilimning ko'pligi aqlni oshirmaydi", deb aytgan edi."³

Bilim va uquv munsabati haqida xalqimiz orasida shunday bir rivoyat bor:

Bir buyuk podshohning uquvsiz, beaql bir o'g'li bo'lgan ekan. Podshoh olimlarni yig'ib ularga shunday debdi: –Ulamoyi kibor! Men necha yillardirki, sizni, bola-chaqalariningizni hech narsaga muhtoj qilmay boqaman, oilangizni to'kin-sochin ta'minlayman. Mana shu o'g'limni o'qitib, olim-u dono qilasiz. Olimlar qabul qilib besh yil davomida bu uquvsiz o'g'longa bilim berishibdi, ilm asoslarini o'rgatishibdi. Besh yildan keyin podshoh olimlar faoliyatini baholash uchun o'g'lini imtihon qilmoqchi bo'lib, olimlar davrasini chorlabdi va

¹ Юсуф хос Хожиб. Құтадгу билиг (Нашрга тайёрлөвчи К.Каримов). 2-нешри – Т.: Фан, 1972. – 102-111- 6

² Коменский Я А Буюк дидактика – Т. Үйкитувчи, 1975 – 240 6.

³ Лернер И Я Развитие мышления учащихся (в процессе обучения истории). – М. Изв «Просвещение». 1982 – 37-стр

mushtiga nimanidir ushlab, o'g'lidan munajjimlik asosida mushtida nima borligini aytib berishni so'rabi. Uquvsiz o'g'lon jadvallar asosida hisob-kitoblar qilib shunday debdi:

—Mushtingizdag'i narsa bir aylanasimon, o'rtasi yoriq, bir chekkasida o'yiqmi, bo'rtib turgan qismi ham bor.

Podshoh behad xursand bo'lib: —Balli, o'g'lim, hamma belgilarni juda to'g'ri topdingiz. Qani ayting-chi, shu narsaning o'zi nu'n?

O'g'lon: —Men qayerdan bilay, tegirmon toshi bo'lsa kerak-da, - deb javob beribdi. Podshoh olimlarga g'azab qilmoqchi bo'lganda, ular:

—Shohim, biz o'g'lingizga bilim berdik, ilmlarni o'rgatdik, lekin unda uquv-farosat yo'q. Shuning uchun shunday deb javob berdi. Tegirmon toshinng mushtga sig'masligini bilmaslik befarosatlikdan o'zga narsa emas. Bilimni o'rgatamiz, farosat esa tug'ma, ilohydir, - degan ekanlar.

Biz bilimdon ijrochi shaxs tarbiyasidan ijodkor, bunyodkor shaxsnii yetishtirishga o'tdik.¹ Ta'llim mazmuniimiz o'quvchilarga berayotgan bilimlarimiz ularning ehtiyojlariiga muvofiqmi? Ularga ijodiy tafakkur malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladimi? Xususan, Demokrit: "Bilim aql bermaydi," - degan bo'lsa, bilim-u aql qanday munosabatda degan savol tug'ilishi mumkin. Didaktikada bu masala, odatda, bilim~malaka ~ko'nikma zanjirida tahlil etiladi va biz ham shu masala tafsifiga o'tamiz.

Har bir yangi avlod hayotga qadam qo'yari ekan, ilgarigi avlodlar tajribasini o'rganadi hamda shu asosda yangi bilimlar yaratadi. Ta'llim maqsadi bilan bog'liq ravishda ta'llim oluvchida hosil qilinishi lozim bo'lgan bilimlar hajmi va tabiatи ijtimoiy zarurat bilan belgilanadi hamda tarbiyalanuvchining iqtidori bilan muvofiqlashtirilgan bo'lishi lozim. Zeroki, bilim maqsad, shaxsni faoliyatga yo'llash hamda bilim~malaka va ko'nikmalar zanjiri asosini tashkil etadi. Bilim, xususan, umumiyl o'rta ta'llim bosqichida ta'llim oluvchi egallashi lozim bo'lgan bilimlar malaka va ko'nikmalar hosil qilish bilan, ya'ni o'quvchining ijodiy ~ amaliy tatbiq faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak. Amaliyotda tatbiq etilishi mumkin bo'Imagan, ya'ni kundalik

¹ Некитов А. Гуломов А. Мактабда тил сатчларини ўзаро боғлаб ўргатниш | РТМ, 1992 | 30 6

mustaqil ijodiy tatbiq bilan bog'lanmagan bilimlar o'quvchi xotirasida ortiqcha yuk bo'lib, tezda izsiz yo'qolib ketishi haqida yuqorida gapirib o'tgan edik. Xususan, ona tili ta'limi jarayonida bilim masalasi juda murakkab masaladir. "Ona tili qurilishining ilmiy talqini"¹ bola uchun qaydarajada ahamiyatli? Ergash gapli qo'shma gapning 14 (yoki 11) turini o'rganish qanday amaliy ahamiyatga ega? 1980-yillar matbuotida "o'rta maktabning 5-8-sinf darsliklarida berilgan grammatik talqinlarni bilgan filologiya fakulteti bitiruvchisiga davlat imtihonlarida 4 baho qo'yamiz" degan fikr bildirilgan edi.² Shuncha bilim bola uchun, uning bo'lg'usi amaliy faoliyati uchun zarurmi? Zero, ta'lim jarayonida beriladigan bilimlar, ayniqsa, umumta'lim tizimida, amaliyligi, pragmatik qiymati bilan belgilanishi zarur. Bilim haqida gap borganda bilim berish bilan birga bolalarda bilim olish, bilimni egallash yo'llari-lug'at, qomus, ensiklopediya, ma'lumotlar majmuasi (spravochniklar), internet tizimi kabi axborot banklaridan amaliy foydalanish ko'nikmalari hosil qilishga alohida e'tibor berish kerak. Shu bilan bog'liq ravishda bir metodik tavsiyada keltirilgan quyidagi rivoyat va voqeani keltirish foydadan xoli emas:

Latifa: Franklin Ruzvelt AQSH Prezidentligiga saylangach, o'ziga yordamchi tanlamoqchi bo'lib, tanlov e'lon qilgan va huzuriga tashrif buyurgan shaxslarga xayoliga kelgan "Yerdan eng olis yulduzgacha bo'lgan masofa necha kilometr?", "Pragadan Chilikacha necha kilometr?", "Buqa bir kunda necha litr suv ichadi?" qabilidagi savollarni beravergan. Suhbatga kelganlar hayron. Gopkinsga ham shunday savollarni bergen. U hech ajablanmay diktafon orqali Prezident kotibiga: "...falon ensiklopediyaning falon harfini olib keling", deb buyurgan. Ruzvelt uni yordamchilikka olgan va, ma'lumki, Gopkins jahonda Ruzvelt kabi mashhurdir.

Rivoyat: Tangri Odam Atoni yaratgach, unga qodir ollohdan tuhfa sifatida ikki narsadan birini tanlashni taklif etgan ekan. Bulardan biri - "bilim", ikkinchisi esa "bilim olish usuli". Shaytoni lain Odam Atoni bilimni olishga vasvasa etadi. Odam Ato o'ylanib, "bilimni olsam, u

¹ Ўрта умумтаълим мактаблари программалари. Онв тили (V-IX ва X-XI синфлар учун). – Т. Ўқитувчи, 1992. – 58 6

² Хайдаров А. Фидойи // Ўқитувчилар газетаси – 1989, 2 декабрь – № 50.

qanchalik ko'p bo'lmasin, mening avlodlarimga yetmaydi-ku, usulni olsam, farzandlarim bu usul bilan o'zlariga zarur bilimlarni qo'lga kiritaveradilar" deb, Ollohdan tuhfa sifatida bilim olish usulini tanlaydi. Shunda Olloh "*Anta kanzi*" – "Sen mening xazinamsan", degan ekan.

Bu latifa va rivoyatni keltirib mualliflar: "Ko'rib turibmizki, xalqimiz ijodiy tafakkur sohibini, tadbirkor shaxsni bilimdon shaxsdan ustun qo'ygan", deb xulosa chiharishadi.¹ Ma'lumki, XXI asr –axborot asri. Bu asrda faol hayot kechirayotgan shaxs uchun zarur bilimlarning barchasini egallay olmaydi. Barcha zarur bilimlar xazinasiga kalit esa axborot bankini bilish va ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishdir. Bunda, xususan, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalash, unga, uning ongiga ijodiylik urug'llarini sepish va undirish uchun Yan Amos Kaminskiyning muallimlar kamroq gapirib, o'quvchilar ko'proq bilim olish yo'llarini izlashlari zarurligi haqidagi fikri hozirgi kunda xuddi XVII asrdagidek dolzarbdir. Shuning uchun nafaqat qanday va qanaqa bilimlarni ta'lim oluvchiga yetkazish, balki bilimni o'quvchi qanday hosil qilishi – o'qituvchini tinglabmi, mustaqil o'qibmi yoki dars davomida va undan tashharida o'qituvchi rahbarligidagi tizimli mustaqil faoliyatmi, kuzatish, izlanish, topish, – qiyoslash, umumlashtirish va h.k. asosidami – katta ahamiyat kasb etadi va ta'lim usuli, malaka va ko'nikma hosil qilish yo'llari muammozi bilan bog'lanib ketadi.

Malaka va ko'nikmalar shaxsning jamiyatda tutgan o'rnnini belgilaydi. Shuning uchun tarbiya tizimida, didaktikada – ta'lim mazmunini belgilashda ijtimoiy talablar, jamiyatning shaxsga qo'yadigan talablari va shaxsning jamiyatda qanday o'rin tutish "loyiha"sida o'z aksini topmog'i lozim. Bilim va jamiyatning shaxsga qo'yadigan talablari munosabati xususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'zlarining "Barkamol avlod–O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" mavzusida qilgan ma'ruzalarida alohida to'xtalgan edilar: "...Albatta, - deb ta'kidlaydi Prezidentimiz, - bilim

¹ Фуломов А., Невъмбетов Х. Онатили таълимни мазмунни Т. Ўқитувчи, 1995. 4-6

kerak. Ammo bilim o`z yo`liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir.". ¹ Bu salmoqli so`zlar zamirida qanday ma`no bor?

Bilim tarbiyalanuvchi uchun jamiyatning ma'lum taraqqiyot bosqichida zaruriy malaka va ko`nikmalarni hosil qilish uchun muhimdir. Tarbiyalanuvchida hosil qilinadigan malaka va ko`nikmalar ta'lim mazmuni uchun maqsaddir. Ta'lim mazmuni tarbiyalanuvchida ijtimoiy zarur bo`lgan malaka va ko`nikmalarni shakkantirish, rivojlantirish vositasidir. Shu boisdan ham Prezidentimiz mazkur ma'ruzalarida ta'lim oluvchida ta'limning har bir bosqichida o`zlashtirilishi zarur bo`lgan bilimlarni, hosil qilinishi kerak bo`lgan malaka va ko`nikmalarni ijtimoiy zaruratdan kelib chiqqan holda aniq belgilab olish zarurligini ta'kidlaydilar. Bugun – axborot asri uchun kishi har bir muayyan sharoitda kerak bo`ladigan bilmlar majmuasini dars, darslik, umuman ta'lim bilan to`la berish mutlaqo mumkin emas – bilim doirasi behad kengaygan, axborot esa bir kishi bir zamonda o`zlashtira olish chegaradaridan behad uzohlashgan. Shuning uchun bugun uchun zaruri b i l i m hajmi va miqdorining o`zi emas, balki muayyan sharoitda zarur bo`lgan bilimlarni topa bilish va ulardan amaliy foydalana olish malakalariga ega bo`lishdir. Prezidentimizning so`zlarini mana shunday tushunish zarur.

Bilimlar bilish faoliyatining oxirgi mahsuli emas, balki har qanday bilim ta'lim oluvchi shaxsini jamiyat belgilagan ijtimoiy zarurat talablari asosida g`ayratga undagan taqdirdagina qimmatlidir.² Ta'lim mazmuni ta'lim oluvchida hosil qilinishi zarur bo`lgan malaka va ko`nikmalar bilan bog`liq bo`lganligi, bu masala pedagogika va didaktikada turlicha talqin etilishi sababli dastlab shu ikki tushuncha to`g`risida to`xtalamiz: Ko`nikma–shaxsga singgan, uning ajralmas atributi (xususiyati) bo`lgan avtomatlashgan malakadir. Pedagogik adabiyotlarda ko`pgina tadqiqotchilar malaka va ko`nikmani aksincha – ko`nikmani qobiliyat, imkoniyat; malakani esa shaxsga singgan, avtomatlashgan ko`nikma sifatida baholaydilar.³ O`zbek didaktlaridan

¹ Баркамол авлод орзуси. – Т: Шарқ, 1999. – 17-6.

² Савин Н.В. Педагогика. – Т: Ўқитувчи, 1975. – 336 б.

³ Розиков О., Огаев С., Махмудова М., Адизов Б. Дидактика. – Т: Фан, 1997. – 16-6; Савин Н.В. Педагогика. – Т: Ўқитувчи, 1975. – 85-6; Узбек СЭ. Т. VI. – Т: Узбек совет энциклопедияси Бош ред., 1975 – 221, 557-558-б.

A.G'ulomov ham o'z qarashini shu fikr nuqtayi nazaridan bayon etgan.¹ M.Mahmudova, B.Adizov, S.Og'ayev, O.Roziqovlar esa juft so'z ko'nikma~malaka atamasidan foydalananilar.² Atamada tarkibiy qismalarning joylashish tartibidan ko'rinish turibdiki, olimlar ko'nikmani quyi bosqich, malakani esa yuqori bosqich sifatida qabul qilishga moyildir va bunday qarashni o'zbek didaktikasi uchun umumiy deb sanash mumkin.³ Ammo malaka va ko'nikma atamalarining asoslari ifodalaydigan mazmunga bunday tushunish ziddir. Zeroki, malaka so'zi - ("O'zbek tili morfem lug'ati" (A.G'ulomov va b. T.: O'qituvchi, 1977)da bu so'z sinxronik sistemaviy tahlil nuqtayi nazaridan juda to'g'ri ravishda tub leksema tarzida berilgan bo'lsa-da) arabcha so'z bo'lib, "molik bo'lmoq", "ega bo'lmoq"; ko'nikma so'zining o'zagi esa "ko'nikmoq", "biror narsaga odatiy va me'yoriy deb qarash" ma'nolariga egadir.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da ko'nikma so'zi mahorat, malaka so'zlar bilan⁴; malaka so'zi esa mahorat so'zi bilan⁵ sinonim tarzida beriladi. Fikrimizni chuqurroq tahlil qilish maqsadida A.Hojiyev tomonidan tuzilgan "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"⁶ni ko'zdan kechiramiz. Lug'atda "ko'nikmoq", "ko'nikma" so'zlarining ma'nodoshlari sifatida odat hosil qilmoq, odatlanmoq, o'rganmoq so'zlar⁶ keltiriladi.

O'TII. da esa "odat", "odatlanmoq" so'zlar o'rganish bo'lib qolgan harakat, qiliq, ma'nosini bildirishi izohlanadi. Bizningcha, malaka, ko'nikma so'zlarining mohiyatiga ko'nikmani qobiliyat, imkoniyat; malakani esa avtomatlashgan qobiliyat sifatida yondashish rus pedagogik terminologiyasiga taqlidan yoki aynan tarjima qilish oqibatida kelib chiqqan. Chunki rus pedagogik terminologiyasida

¹ Гуломов А., Нсыматов Х. Она тили тъълими мазмунни – Т. Ўқитувчи, 1995 – 128 б.

² Розиков О., Огаев С., Махмудов М., Адизов Б. Диалектика – Т. Фан, 1997 – 85-6.

³ [Яна каранг. Гуломов А. Методика развития учебно-познавательной активности учащихся в процессе преподавания родного (узбекского) языка. Автореф дисс д-ра пед наук – Т. ТашГПУ, 1991 – 37 стр. Нсыматов Х., Гуломов А. Мактабда тили сатҳларини узаро боғлаб ўргатиш – Т. РТМ, 1992. – 30 б., Сандов М. Узбек мактабларининг 5-синфларидаги она тили тъълими жараснича тафаккурни ривожлантирувчи ўкуй топшириклари ва улардан фойдаланиш методикаси. Пед ўкува предмети наам. диссертацияси – Т. 1999. – 123 б., Сандов М. Она тили дарсларида укучилар фаоллигини ошириш – Т. РТМ, 1993. – 43 б]

⁴ Узбек тилининг изохли лугати. Т. I – М. Рус тили. 1981. – 521-б

⁵ Уша асар. 444-б

⁶ Ҳожиев А. Узбек тили синонимларининг изохли лугати – Т. Ўқитувчи, 1974 – 129-б

умение – ilk bosqich sifatida, *навык* – yuqori bosqich sifatida farqlanadi.¹ Shuning uchun biz o'zbek tilida malakani quyi, ko'nikmani undan yuqori bosqich sifatida tushunishimiz ma'qul. Lekin shuni ham ta'kidlash joizki, sharq didaktikasi bilim~malaka~ko'nikma zanjiri bilan cheklanib qolmaydiki, biz bu haqda quyida so'z yuritamiz.

Ta'lim oluvchida ta'lim jarayonida hosil qilingan malaka va ko'nikmalar ko'proq darajada ongli, puxta, natijalarning ishonchli bo'lishi bilan birga, o'zgarib turadigan sharoitlarda zarur harakatni tanlay olish, uni bajara olish bilan xarakterlanadi.

Shu o'rinda Prezidentimiz I.A.Karimovning bo'lajak avlod tarbiyasiga qo'yayotgan talablari xususida, ayniqsa, "Bizga bitiruvchilar emas, balki maktab ta'lim va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak" degan ta'kidlariga yana bir bor nazar tashlaymiz. Bu jumla zamirida nima yotadi? "Bilimli" bilan "tarbiya ko'rgan" orasida qanday farq bor? Xalqimizning "Farzandingni yo maktabga ber, yo madaniyatililar davrasida tut" mazmunidagi ta'birlari zamirida nima yotadi? Nega Prezidentimiz: "Men Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo momot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" degan fikrini ko'p mushohada qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning buyuk so'zleri asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalik muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir,"² deb alohida ta'kidladilar?

Darhaqiqat, tarbiya ko'rgan shaxs, albatta, bilimli bo'ladi, lekin u o'z bilimidan hamisha jamiyat talablariga mos ravishda, jamiyatda qabul qilingan axloq me'yorlariga rioya etgan, muayyan shart-sharoitni hisobga oлган holda foydalana olishi kerak. Tarbiya ko'rgan deb ilm-u bilimiga, sharoitga va maqsadga mos ravishda amal qila oladigan shaxs tushuniladi. Bu xislat uning tabiatiga aylangan bo'lishi shart. Mir Alisher Navoiy aytganlaridek: *Tabiatga har neki odat erur, Chu eskirdi odat tabiat erur.*

Prezidentimiz bilimli shaxsni emas, balki bilimlaridan jamiyat talablariga mos foydalana oladigan, mustaqil fikrlaydigan, bunday odat

¹ Русча-ўзбекча лугат Т.И. – Т. Ўзбек СЭ, 1983. – 809 б.

² Баркамол авлод орзуси. – Т. Шарқ, 1999 – 3-6

uning tabiatiga aylangan, ya'ni tarbiyalangan, madaniyatli, ma'naviyatli shaxsni yetishtirib chiqarishni maktab oldiga maqsad qilib qo'ygan. Demak, so'z nafaqat bilim, malaka va ko'nikma zanjiri, balki bilim ~ malaka ~ ko'nikma ~ odat ~ tabiat uzluksiz zanjiri haqida borishi kerak va so'nggi bosqichga ko'tarilgan shaxsgina tarbiya ko'rgan shaxs sanalishi mumkin. Prezidentimiz ham yuqorida keltirilgan fikrlarida shunday shaxsni yetishtirishni maktab oldiga vazifa qilib qo'ymoqda; shunday shaxsga xos zotiy xislatlar sifatida ijodiy tafakkur, mustaqil fikrlay olish, ijodiy amaliy ishga layoqat, shu asosda jamiyatda munosib o'rın egallash kabilarni sanab o'tish mumkin. Shuning uchun biz:

bilim ~ malaka ~ ko'nikma ~ odat ~ tabiat

pog'onaviy zanjiri haqida gapirishimiz kerak. Zarur bo'lган bilimlarni topa oladigan, olgalarini sharoitga mos ijtimoiy-ma'naviy-ahloqiy me'yorlarga muvofiq amalga tatbiq etish tabiatiga aylangan shaxsgina tarbiyalangan, tarbiya ko'rgan shaxs sanalishi mumkin. Bu o'rinda ayni bir bilimni turli usullarda bayon qilish bilan bog'liq bo'lган va bilimdon, lekin tarbiya ko'rmagan olim hamda kam bilimli, lekin tarbiya ko'rgan, ijodiy tafakkur va tadbirdilik xislatlariga ega bo'lган dono vazir, ularning qismatlari haqida 8-sinf birinchi avlod "Ona tili" darsligida keltirilgan "Mukofot va jazo" rivoyatini eslatib o'tish mumkin.¹ Shuning uchun yuqorida eslatib o'tilgan "Bilim hali aql emas" shiori juda serma'no va uning zamirida katta hikmat yotadi. Xalqimizda Qur'oni Karimni to'la yodlagan, lekin uni tushunmaydigan shaxslarni (rasmiy islomiy hofizlarni) ham, ko'zi ojiz kishilarni ham qori+ deb atalishi² bejiz emas. Haqiqatan, qorilar 114 sura, 6226 oyat – 77.639 so'z, 325.763 harfdan iborat bo'lган Qur'oni Karim³ni harfma-harf va qatorma-qator yod bilsalar-da, ular ojizdirlar: o'qiyotgan narsalarini tushunmaydilar, uqmaydilar. Zeroki, xalqimiz shiori "Ilmu amal, ilmu amal va ilmu amal"dir. Amal esa bilimning oqilonasi, sharoitga mos ijodiy tatbiqidir. Bu esa ta'lim oluvchida ijodiylik tabiatini shakllantirish, bilimni qoidalar deb tushunib, ularni

¹ Qodirov M, Ne'matov H. v.b. Ona tili. Umumta lim maktablarining 8-sinf uchun darslik – T: Ma'naviyat . 2010

Арабча лугавий маъноси кироатчи, ўқийдиган демакадир

² Юсуф ход. Ҳожиб Куттадгу билиг (Нашрга тайёрловчи К. Каримов) 2-нашири. – Т: Фан, 1972 – 964 б.

³ Аҳмад Ҳоди Ибодат исломия Мутаржим ва ношир Аҳмад Ҳўжа. – Т: «Парисев» матбаса, 1332 (Ўрта Осиё ва Қозогистон мусулмонлари гомонидан кайта литографияни нашири. – Т: 1990) (араб етумила) – 17-б.

yodlamasligi, balki uni chuqur alohadorliklarda va amaliy tatbiq bilan bog`liq ravishda hosil qilishi bilan, ya`ni ta`lim usuli, ta`lim metodlari bilan uzviy bog`liqidir va biz bu masalaga yana qaytamiz. Hozir esa ta`lim maqsadi bilan uzviy bog`liklikda jiddiy va keskin inqilboiy burilish davrida ona tili ta`limining maqsadi va mazmuni orasidagi mutanosiblik ustida to`xtalamiz.

Ta`lim maqsadi bir farmon, dekret, qaror yoki buyruq bilan yangilanishi mumkin. Davr, ijtimoiy hayotdagি tub-inqilobiy burilishlar, shubhasizki, ta`lim maqsadida ham tub o`zgarishga olib kelishi shart. Ta`lim maqsadidagi o`zgarish ta`lim mazmunida o`z aksini topishi shart. Agar maqsad dekret/qonun bilan yangilanib, ta`lim mazmuni unga moslashtirilmasa, bu qonun hech qanday amaliy samara bermaydi. Mana shuning uchun Prezidentimiz o`zlarining ta`limning tub islohoti haqidagi ma`ruzalarida bu masalaga alohida to`xtalib: "Ta`lim darslikdan boshlanadi. Eski qolipda yozilgan darsliklardan foydalanib... bolalarimizni yangicha fikrлаshga o`rgatolmaymiz," - deb ta`kidlaydilar.¹ Shuning uchun tub o`zgarishlar bosqichida turgan jamiyat olimlari va mutaxassislari-didaktlardan boshlab oddiy amaliyotchi o`qituvchigacha-oldida turgan muhim muammolardan biri ta`lim maqsadi va ta`lim mazmuni orasidagi uzviy bog`lanishni izchil ta`minlab borishdir.

Tub burilish rejasiz – inqilobiy, keskin, qisqa muddatda va ko`p hollarda qonli yo`llar bilan (revolyutsion tarzda) va bizda bo`layotgani kabi rejali, ongli, bosqichli *evolyutsion yo`l* bilan amalga oshirilishi mumkin. Bunday davrda maqsad bir qonun/ko`rsatma bilan yangilanishi mumkin, ta`lim mazmuni esa enersion ravishda eski, avvalgi, o`tgan davr bosqichida qolishi mumkin. Chunki ta`lim mazmuni tadrisiy tavsiyalardan boshlab oddiy amaliyotchi o`qituvchining kasbiy ko`nikmalarigacha singib ketgan, ularni bir farmon yoki qaror bilan yangilab bo`lmaydi. Uni haqiqatan ham yangilash uchun vaqt, jiddiy maqsadli- uzoq muddatli uzlucksiz ish kerak. O`zbek ta`lim tizimi hozir xuddi shunday bosqichni o`z boshidan kechirmoqda. Ta`lim maqsadi yangilandi: bu o`lkamiz tarixidagi tub burilish zamonaviy mustaqil

¹ Баркамол авлод – Ўзбекистон тараккнетининг пойдевори – Т.: Шарқ, 1997. – 15-6.

milliy davlatning barpo etilishi bilan bog'liq. Zamonaviy milliy daviat o'z ta'lif tizimi, uning tur va bosqichlari maqsadini muayyan qonunlarida, o'quv predmetlari maqsadini DTSlarida belgiladi. Xo'sh, ona tili o'quv predmetining maqsadi DTS talablariga mosmi? Dastur va darsliklar ko'zda tutgan o'quv materiali o'quv predmetining maqsadiga muvofiqmi? Bu masalalar, xususan, bizda, O'zbekistonda har bir o'quv predmetini o'qitish oldida turgan eng muhim muammolardandir. Biz didaktikada uzoq vaqt—oltmisht-yetmisht yil hukm surgan retroskopik-reproduktiv (ko'rgazmali bayon) usulda fundamentalizm va akademizm yo'nalishida bilimdon ijrochi shaxsni tarbiyalash tizimidan pragmatik yo'nalishda tadbirkor va ijodiy tafakkur sohibi bo'lgan shaxsni tarbiyalash tizimiga o'tdik. Ona tili ta'limi tizimimizda uzoq vaqt amalda bo'lgan fundamentalizm va akademizm ta'siri ostida bolalarga haddan ziyod ilmiy-filologik —amaliy zaruratdan ortiq -bilimlar taqab keldik. Bundan hozir ham to'la qutila olganimiz yo'q. Yangi ta'lim maqsadi har bir o'quv predmetidan qanday bilimlarni va qanaqa malaka-yu ko'nikmalarini talab qiladi?

DTSlari o'rta umumiy ta'limdan mustaqil fikrlovchi tadbirkor shaxsni yetishtirishni talab qilgani bois bu tizimning tayanch bo'g'inida—V-IX sinflarda ona tili ta'limi oldida va uning takomillashtirilgan ko'rinishi quyidagi maqsadni qo'yadi: "Ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya'ni kommunikativ savodxonlikka o'rgatishdan iborat."¹ Shunga muvosiq ravishda amaldagi dasturda ona tili ta'limi maqsadi quyidagicha berilgan: "Ona tili ta'limi oldida quyidagi bosh maqsad turadi: ona tili mashg'ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim."² Shu maqsadga muvofiq o'quvchilar ona tili mashg'ulotlarida filologiya (tilshunoslik fani) asoslari-yu tushunchalarini o'zlashtirish bilan emas, balki ona

¹ Она тилидан такомillashtirilgan давлат таълим стандартти // Ж. Тил ва алабиёт таълими. 2005.4 Б. 6-7.

² O'sha adabiyot 10-11-betlar

tilining juda boy imkoniyatlari asosida mustaqil fikrlash va ijodiy fikr mahsulini turli-tuman shakllarda go`zal nutq sifatida bayon etish ustida ishlashlari lozim. Qna tilidan ta`lim mazmuni ham, ta`lim usuli, o`quvchilar bajarishlari lozim bo`lgan o`quv topshiriqlari ham mana shunga xizmat qilmog`i zarur. Shuning bilan ta`lim maqsadi uning mazmuni orqali ta`lim usuli bilan to`qnashadi va navbatdagi suhabatda biz shu masala ustida to`xtalamiz.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Mustaqillik davrida o`zbek ta`lim tizimidagi inqilobiy o`zgarishlar haqida gapiring.
2. DTS nima? DTSning ta`lim tizimidagi o`rnii haqida nimalarni ayta olasiz?
3. Ta`lim mazmuni deganda nimani tushunasiz? Fikringizni dalillang.
4. Bilim va ijodiylik bir narsami? O`qimagan odamda ham ijodkorlik bo`lishi mumkinmi?
5. Bilim va uning amaliy tatbiqi deganda nimalar nazarda tutiladi?
6. Malaka, ko`nikma, odat, tabiat tushunchalarini izohlang.
7. Ta`lim mazmuni ta`lim maqsadining yoyilmasi ekanligini o`z so`zingiz bilan izohlab bering.
8. Ta`lim maqsadidagi o`zgarishlar ta`lim sohasida yana qanday o`zgarishlar bo`lishini talab etidi?
9. Maktabda ona tili ta`limining maqsadi nimadan iborat?
10. Ijodiy tafakkur sohibi, sizningcha, qanday bo`lishi zarur?

Foydalanish uchun adabiyotlar: {1; 2; 3; 4; 31; 46; 64; 70; 125; 219}

TA`LIM USULINING TA`LIM MAQSADI BILAN ALOQADORLIGI

Reja:

1. Ta`lim usuli ta`lim oluvchining biliш jarayonini tartibli ravishda amalga oshirish yo`lidir.
2. Ta`lim jarayonida to`g`ri tanlangan faoliyat usullari natijaga erishishni ta`minlaydi.

3. Ona tili ta'limida deduktiv-reproduktiv va kognitiv-pragmatik (induktiv) ta'lim usullari haqida.

4. Bilimli shaxs va ijodiy tafakkur sohibi.

5. Ona tili ta'limida induktiv-ongli, verbal, kognitiv-pragmatik usulning afzalligi va YPTlar.

Mavzunga oid tayanch tushunchalar

Ta'lim usuli, deduktiv-reproduktiv usullar, induktiv ta'lim usuli, induktiv-ongli, verbal, kognitiv-pragmatik usul, ona tili ta'limida tub yangilanishlar davri, bilimli shaxs, ijodiy tafakkur sohibi, ta'lim usulini yangi maqsad va yangi mazmunga muvofiqlashtirish.

Qalovini topsang, qor ham yonar.

(Xalq maqoli)

Pedagogik adabiyotlarda ko'p bora tahlil etilgan ta'lim usuli masalasi ham ta'lim mazmuni kabi qadimiyyidir.¹ Chunonchi, I.Y.Lerner o'quvchilarda ijodiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirish masalasiga bag'ishlangan tadqiqotida: "Tafakkur bilmlarni o'zlashtirish bilan rivojlanadimi?"² degan muammoni qo'yadi va bu savolga "Yo'q" deb javob beradi. Bilimlar zanjirida agar aloqadorliklar – bog'lanish, qiyos, sabab-natija munosabatlari bo'lmasa, u tafakkurni ya'ni tarbiya ko'rgan shaxsni bera olmaydi. Bilim olishning ham, ta'lim oluvchiga bilim berishning ham, unga malaka, ko'nikma, odatlarni singdirishning ham, tabiatini shakllantirishning ham xilma-xil vosita, yo'l va usullari mavjud.

Usul – bu faoliyatni amalga oshirish yo'li bo'lib, u ko'zlangan maqsadga erishishga olib boradi, ya'ni maqsadning natijaga aylanishi usul vositasida amalga oshiriladi. Usul-insonning bilish jarayonini tartibli ravishda amalga oshirish yoki biror obyektni amaliy o'zgartirish uskunasi, mexanizmidir. Usul aslida insonning amaliy faoliyati negizida

¹ Бабанский Ю.К. Оптимизация процесса обучения (общедидактический аспект) – М. Педагогика, 1977. – 174 стр. Лернер И.Я. Дидактическая система методов обучения. М. Педагогика, 1976 , Розников О. Огас С., Махмудова М., Адизов Б. Дидактика – Т.: Фан. 1997 – 256 б. Савин Н.В. Педагогика. Т. Украйуничи, 1975, н. 336 б.

² Лернер И.Я. Развитие мышления учащихся (в процессе обучения истории) – М. Изв «Просвещение». 1982 53-стр

yuzaga keladi. Faoliyat usullarining asosiy mazmunini, avvalo, amaliyotda sinalgan narsalar, masalan, ilmiy tadqiqot, bilish yo`li, nazariya, ta`limotlar tashkil etadi. Faoliyat usullari orqali amalgalashirilgan maqsad keyingi maqsadni yoki bosh maqsadni yaratuvchi yoxud amaliyot mazmunini, izchilligini belgilovchi usullar vazifasini bajaradi.

Faoliyat usullari to`g`ri bo`lsa, ko`zlangan natijaga komil ishonch bilan erishish mumkin. Bugungi kunga qadar insoniyat tomonidan faoliyat usullarining boy xazinasi to`plangan. Ammo fan-texnika, madaniyatning to`xtovsiz rivojlanib, murakkablashib borishi, yangi imkoniyatlarning yuzaga kelishi, ularni o`zlashtirish va ta`lim oluvchiga yetkazish usullarini muttasil yangilab turishni talab etadi. Bular, albatta, ta`lim jarayoniga ham bevosita aloqadordir.

Ta`lim oluvchida o`zlashtirilishi va hosil qilinishi zarur bo`lgan bilim, malaka, ko`nikma, odat va tabiat turli ta`lim usullari vositasida amalgalashiriladi. Ta`lim usullari-o`quv materialini nazariy va amaliy o`zlashtirish shakli bo`lib, unda ta`lim beruvchi va ta`lim oluvchi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ta`lim jarayonida ta`lim usulining to`g`ri tanlanganligi ta`limning bilim berish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarining aniq amalgalashirilishini kafolatlaydi. Ta`lim usullarining to`g`ri tanlanishi ta`lim jarayonining umumiyligi va aniq maqsadlariga bog`liqdir. Ta`limda amalgalashirilishi ko`zda tutilgan maqsadning aniqligi, o`z davri munosabatlariga hamohangligi ta`lim natijasining jamiyat ijtimoiy talablariga muvofiqligini ta`minlaydi. Ta`lim maqsadi va mazmuni orasidagi bunday muvofiqlik ta`lim usullarini to`g`ri tanlash imkoniyatlarini yaratadi hamda ta`lim oluvchi va ta`lim beruvchi faoliyatini o`zaro muvofiqlashtiruvchi bir butun jarayonni vujudga keltiradi.

Ta`lim usullari ilmiy bo`lishi, ta`lim oluvchini o`qitishning amalgalashirilishi ko`zda tutilgan bosh maqsadi ruhida tarbiyalashga qaratilishi, ta`lim oluvchi rivojlanishining psixologik-pedagogik imkoniyatlariga muvofiq kelishi, ommabop bo`lishi, o`quv materialini mustahkam egallashga qaratilishi va o`quv predmeti yangiliklari asosida yangilanib, takomillashib borishi zarurdir. Barcha o`quv predmetilar uchun umumiyligi

hisoblangan zohiran qiyoslash, moddiyatni taqqoslash, analiz, sintez, umumlashtirish, mavhumlikdan aniqlikka qarab borish, induksiya va deduksiya (va h.) kabi usullarning har biridan o'quv predmeti turlicha foydalanadi. Hozirgi vaqtida ko'pgina o'quv predmetlari, odatda, vogelikning biror tomonini shunchaki aks ettirib qolmasdan, balki muayyan maqsadga muvofiq ravishda shu vogelikni ta'llim oluvchi ongida gavdalantiradi, unga yangi malaka va ko'nikmalar rivojlantrishga xizmat qiladi, uni mustaqil hayot va faoliyatga tayyorlaydi. Bu hol bilish usullarini, ayniqsa, ta'llim usullarini muttasil takomillasintirib turishni talab etadi.

Ta'llim usuli ta'llim mazmunining vogelanish shakli bo'lganligi sababli pedagogik (didaktik) adabiyotlarda u ta'llim mazmuni muhokama etilayotganda ham, ma'lum bir mavzuni sinfda o'tish jarayonida ham, metodik ishlanma va tavsiyalarda ham keng muhokama etiladi. O'z-o'zidan tushunarlik, didaktik jarayon, bolaga bilim berish, ijodiy faoliyatda malaka va ko'nikma hosil qilish, har bir ishda mustaqillik, tadbirkorlik hamda ijodiy yondashishni uning zotiy xislatiga –odat va tabiatiga aylantirish xilma-xil yo'l, usul hamda vositalardan foydalanishni talab qiladi. Bunda A.S.Makarenkoning: "*Men oddiygina "Bu yoqqa kel!" amrini 72 usulda aytishni o'zlashtirganidan keyingina o'zimni pedagog deb his etdim*", degan fikrini eslash o'rini.

Haqiqatan ham, ta'llim usuli hech qachon universal, umumiyl, qat'iy, qotib qolgan va yakka-yu yagona to'g'ri bo'lishi mumkin emas. O'qituvchi sharoitga, muayyan holatga, o'quvchilarning yosh, tajriba, taraqqiyot xususiyatlariiga muvofiq ravishda, har bir holatga uyg'un tarzda shu – faqat mavjud sharoit va shu shaxs uchun mos bo'lган usul tanlay olsagina, ko'zlangan maqsadga yetishi aniq. Shu bois Y.K.Babanskiy va M.M.Potoshniklar "Ma'lum bir mavzuni o'tish uchun yozilgan metodik tavsiya va ishlanmalarda ta'llimning eng samarali usuli qo'llanilganmi?", degan savolga qat'iylik bilan "Yo'q" deb javob beradilar, zeroki bu tavsiya-yu ishlanmalar amaliyotdan,

o'qituvchi ish tutayotgan muayyan sharoitdan uzilgan.¹ Shunday ekan u "eng samarali usul" bo'la o'maydi. "Eng samarali usul" – bu ijodkor o'qituvchi ma'lum bir maqsadga erishishning xilma-xil yo'l va usullaridan (ta'lim va ta'sir usullaridan) xuddi mana shu sharoit hamda holatga mos tanlagan turidir² va ta'lim usuli uchun invariantlik xos emas.³

Ta'lim usulini bir invariantga keltirish mumkin bo'lmasa-da, didaktlar uning asosiy ko'rinishlarini ma'lum bir tiplarga, turlarga birlashtiradilar:⁴ Chunonchi, O.Roziqov, M.Mahmudova, B.Azizov, S.Og'ayevlar ta'lim usullarining asosiy ko'rinishlari sifatida og'zaki bayon (hikoya, ma'ruza, suhbat), ko'rgazmali, muammoli izlanish, mustaqil ishslash, didaktik o'yinlar, amaliylik kabi usullarni (metodlarni) ko'rsatsalar, I.Y.Lerner va M.N.Skatkin o'zlarining ushbu mavzuga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlarida ta'lim usullarini reproduktiv ko'rgazmali bayon (репродуктивность, объяснительно-иллюстративность), muammoli (проблемный), tadqiqiy (исследовательский) kabi turlarga ajratadilar va ulardan har biri ma'lum bir maqsadni ko'zlashi, hech qachon barcha holatlar uchun qat'iy va mutlaq bo'la olmasligini takror va takror uqtiradilar. Demak, ta'lim usuli hech qachon va hech bir zamonda yagona, mutlaq bo'lishi mumkin emas. U mavzu xususiyati, o'qituvchi va o'quvchi saviyasi, ta'lim sharoiti hamda juda ko'p holatlar hisobga olingan ravishda ta'limning (mavzuning) har bir turi, bosqichi, bo'g'ini uchun muayyan ravishda tanlansa-da, ta'lim maqsadi bilan uzviy bog'liq tarzda ta'lim turi, ma'lum o'quv predmeti uchun global (umumiy) ravishda ma'lum bir yetakchi, asosiy, bosh ko'rinishga ega bo'la oladi. Chunonchi, ta'lim maqsadi bilimdon shaxsni tayyorlashni loyihalashtirs, bunday ta'limda retroskopik usullar, deduktiv ta'lim yetakchilik qilishi shubhasizdir, chunki ta'lim maqsadi shuni talab qiladi. Ta'lim ijodiy tafakkur sohibi, tadbirkor shaxsni tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bo'lsa,

¹ Бабанский Ю.К., Поташник М.М. Оптимизация педагогического процесса (в вопросах и ответах) - Киев: Радянська школа, 1984 – 288 стр

² O'sha asar. 27-bet.

³ O'sha asar. 53-bet

⁴ Лернер И.Я., Скаткин М.Н. О методах обучения - М. Педагогика, 1979 – стр.115-121., Розиков О., Оғаев С., Махмудова М., Адизов Б. Дидактика Т.: Фан, 1997 – 184-202-6

unda bunday maqsadga muammoli va tadqiqiy ta'limg usullari, induktiv ta'limg yetakchilik qilishi lozim. Ta'limg usuli bilimni, shu asosdag'i ko'nikma-odatni ta'limg oluvchida qay usul bilan hosil qilish va o'z-o'zidan o'qituvchi-o'quvchining o'zaro aloqasi qanday bo'lishini taqozo qiladi. Bunda biz ta'limg oluvchi va ta'limg beruvchi orasidagi munosabatga ikki xil yondashish usullari xususida to'xtalib o'tishimiz zarur.

Birinchisi, ta'limg oluvchiga ma'lum miqdordagi bilimni o'rgatish obyekti, ta'limg beruvchiga esa o'rgatish jarayonining subyekti sifatida yondashadi. Bu yondashish deduksiya usulidan, ya'ni qoidadan tahlilga, umumiyligidan xususiylikka qarab intilish – **bilim berish** yo'lidan foydalanishni taqozo etadi. Bir qator olimlar—I.Y.Lerner, A.M.Matyushkin, M.Mahmudova, A.V.Zankov, Y.V.Senko, V.P.Palamarchuk, N.F.Talizina va boshqalarning didaktik asarlarida ham ta'limg usullariga xos ilmiy-nazariy fikrlar silsilasida ta'limg oluvchiga obyekt, ta'limg beruvchiga subyekt sifatida yondashilgan.¹ Ta'limg deduktiv-reprodukтив usulda tashkil etish uzoq yillar ta'limg jarayonida hokim bo'lib kelganligi barchaga ayon.

Ikkinchi yo'nalish ta'limg oluvchiga o'rganish jarayonining subyekti, ta'limg beruvchiga esa mazkur jarayonning boshqaruvchisi, tashkilotchisi sifatida yondashadi. Shuning uchun ta'limg jarayoni (dars mashg'ulotlari)da izlahishlarni, asosan, ta'limg oluvchi bajaradi. Bu yo'nalishda kognitiv-pragmatik (induktiv) usulidan, ya'ni kuzatish-u tahlildan qonuniyatga, xususiylikdan umumiylikkqa qarab intilishdan – **bilim hosil qilish** usulidan foydalaniladi

Bu yerda biz dadaktik adabiyotlarda, ta'limg usullari silsilaida uchramaydigan, o'zbek didaktikasida milliy istiqloldan so'ng ommalashgan induktiv ta'limg usuli atamasi ustida to'xtalishimiz lozim. Haqiqatan ham, ta'limg usullari silsilasida induktiv atamasi bilan nomlanadigan ta'limg usuli yo'q. Induksiya/induktiv (hodisadan → qonuniyatga) mohiatan falsafiy-mantiqiy usul bo'lib, umuman, bilim

¹ Бабанский Ю К Оптимизация процесса обучения (общедидактический аспект). – М.: Педагогика, 1977. – 174 стр., Бабанский Ю К Хозяйки замон умумий таълим нақтибидаги ўқиттиш методлари – Т.: Ўқитувчи, 1990. – 277 б., Розиков О., Оғаев С., Махмудова М., Адијон Б. Дидактика – Т.: Фан, 1997. – 256 б., Савин Н.В. Педагогика – Т: Ўқитувчи, 1975. – 336 б.

hosil qilishning, aqliy amaliyotning bir ko'rinishidir va deduksiya (qonuniyatdan→hodisaga) usuliga qarama-qarshi turadi. Induksiya/induktiv didaktik adabiyotlarda ta'lif usuli sifatida birinchi marotaba o'zbek didaktikasida H.Ne'matov va A.G'ulomovlar tomonidan ilk muhokamalar uchun nashr etilgan ona tilidan dastur'da qo'llanilgan. Bu dasturda qo'llanilgan ta'lif usulining mohiyatini o'sha davrda g'arb didaktikasida va psixologiyasida keng ommalashgan kognitiv-pragmatik (yoki to'la shaklda ongli, verbal, kognitiv-pragmatik) usul tashkil qiladi. Lekin, mualliflarning keyinchalik tan olishlaricha, ular o'sha davrda-kognitivizm ham, pragmatizm ham sovet didaktikasi va falsafasida zararli, burjua fani, individualist-maafaatparastlarni tarbiyalash usuli sifatida qoralanganligi va bu yo'nalishlarga nisbatan salbiy munosabat ziyorolar ongiga singdirilganligi sababli-ta'lif usuli nomlanishini to'g'ri ko'rsatmaganlar va usulni saqlab, atamani bilim hosil qilishning bir yo'li va bu ta'lif usuli uchun asosiy bo'lgan induksiya bilan almashtirganlar. Shu asosda bu atama o'zbek didaktikasida ommalashdi, uni keyinchalik yangilashga ham ehtiyoj qolmadidi. Xususan, o'zbek didaktikasida ommalashgan induktiv ta'lif usuli atamasining g'arbda, asosan, psixologiya sohasida qo'llanilgan va qo'llanilayotgan kognitivizm atamasidan ancha farqli ekanligini hisobga olsak, uni hozirgi kunda almashtirish ham maqbul emas-atama o'zbek didaktikasida o'zlashdi va o'ziga xos ma'no-mohiyat kasb etdi, endi uni yangilashga hojat yo'q. Bunday atamaviy chekinishdan so'ng ta'lif usuli haqida bayonimizni davom ettiramiz.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ta'lif usuli, asosan, induktiv bo'lgan o'quv mashg'ulotlarida faol ishlovchi ta'lif oluvchining o'zidir. Bunday mashg'ulotlarda ta'lif oluvchilar berilgan materialni mustaqil tahlil (analiz) qila olishlari, ta'lif boshqaruvchisi yordamida natijalarni umumlashtirishlari (sintez) va hukm chiharishlari, hosil qilingan umumiylilik (qonuniyat)ni amalda qo'llay olishlari, sinashlari va

¹ «Ўзбек тили»дан программа лойиҳалари – ИНДУКТИВ. «Ўзбек тили» доимий конференциясида мухокама учун материаллар 1-кисм. (Мас. муҳаррир У Н Нурмуҳаммадов Нафар учун масъул ЗК Юнусов.) – Тошкент ЎХТВ. Жумхурият ўқув-методика маркази. 1990. 6.27

o'quv masalalarini yecha olishlari ko'zda tutiladi. Bu jarayonda ta'limga beruvchining bosh vazifasi Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Ta'limga oluvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat".¹

XIX asrning 60-yillaridayoq rus pedagogi K.D.Ushinskiy ta'limga jarayonida ta'limga oluvchining bilishi, tafakkuri, o'zlashtirishida faktik materialarning ahamiyati, bajaradigan ishidan kelib chiqib, ta'limga berishning induktiv usulini qo'llab quvvatlagan edi. Uning fikricha, ilmiy bilishda ham, ta'limga jarayonidagi ta'limga oluvchining bilimida ham induktiv usullar eng mahsuldor yo'l sanaladi.² Ta'limga oluvchi va ta'limga beruvchi munosabatlariga birinchi, ya'ni deduktiv usullar nuqtayi nazaridan yondashuv, tom ma'noda, jamiyatga "bilimli shaxs"ni yetkazib beradi. Ikkinci, ya'ri induktiv usullardan keng foydalanan nuqtayi nazaridan yondashuv esa jamiyat uchun mustaqil fikrli shaxsni ijodiy tafakkur sohibini yetkazib beradi. Bu ikki tushuncha mohiatidagi tafovutni bir qator olimlar ilmiy-pedagogik harashlarida aniq farqlab berishgan.³ Olimlarning fikricha, "bilimli shaxs" ko'p narsani biladigan kishi, lekin insонning xotirasi imkoniyatlari cheklangan va u cheksiz bilimga ega bo'la olmaydi. Demak, "bilimli shaxs" tushunchasi cheklangan bilimli shaxsni ko'zda tutadi.

Ijodiy tafakkur sohibi deganda esa nafaqat bilimni, balki bilish yo'llarini biladigan va ulardan foydalana oladigan shaxs nazarda tutiladi. Demak, "bilimli shaxs"ning imkoniyat darajalari ma'lum miqdorda cheklangan, chegaralangan, ijodiy tafakkur sohibining esa bilish imkoniyatlari cheksiz. Bilimli shaxsnинг miyasi ma'lum miqdordagi bilimlar bilan to'ldirilishi zarur, ta'limga beruvchi esa shu idishni to'ldiruvchi vazifasini o'taydi. Ijodiy tafakkur sohibining ongini ko'zları yumuq buloqqa qiyoslash mumkin. Ta'limga beruvchining vazifasi buloqning ko'zinı öchişdan iborat.⁴ Buni biz yuqorida juda ko'p miqdordagi matnlarni yod bilgan, lekin savodsiz va alfavitdagi sanoqli harflarni taniydigan, o'qish/qiroat qoidalarini o'zlashtirgan

¹ Баркамол авлод орзуси – Т. Шарқ, 1999 – 16-6.

² Ушинский К.Д. Таилингган педагогик асарлар – Т. 1959 – 143 6.

³ Нематов X. Гуломов А. Мактабда тил сатҳларини ўзаро боғлаб ўргатиш. – Т. РТМ, 1992 – 30 6, Гуломов А., Нематов X. Она тили таълими мазмуни. – Т. Ўқитувчи, 1995 – 128 6

⁴ Нематов X. Гуломов А. Мактабда тил сатҳларини ўзаро боғлаб ўргатиш. – Т. РТМ, 1992 – 30 6.

shaxs imkoniyatlari bilan solishtirgan edik. Bilimli shaxs va mustaqil fikrlesh layoqatiga ega bo`lgan ijodiy tafakkur sohibni ham shunga qiyoslash mumkin – bilimli ko`p, lekin baribir chekdangan miqdorda bilimga ega– imkoniyatlari chegaralangan, ijodiy tafakkur sohibining imkoniyatlari deyarli cheksizdir–u Prezidentimiz masalani to`g`ri qo`yanlaridek, bilimga ehtiyoj ruhi bilan yo`g`rilgan.

Maktabxonlar orasida bir tajriba-sinov o`tkazildi. Buxoro shahridagi 4-son umumta`lim maktab o`quvchilari orasidan mashhur olim, san`atkorlarning bolalarini (qarindoshlarini) tanlab, ularga o`z otagonalari (qarindoshlari) haqida axborotni internet tizimidan topish vazifasi topshirildi. Bu sinov-musoboqada bir olimaning ikki –biri 7-sinfda, ikkinchisi 3-sinfda o`qiydigan – farzandlari ham ishtirot etayotgan edi. Topshiriq berilib, vaqt qayd etilgach, 3-sinfda o`qiyotgan qizi onasi haqidagi sahifani internetdan akasidan ancha oldin topdi - 3-sinf bolasi 7-sinf o`quvchisidan "o`ktamroq", "topqirroq", "epchilroq" chiqdi. Buning sababini tekshirdik. 3-sinf bolasi internetda o`z onasi ismi va familiyasini qidiruvga berganda "O`zbekistonda" sharhini ilova qilgan, akasi esa ism va familiyani hech qanday ilova-izohsiz bergen. Shuning uchun akasi ochgan varaqada butun dunyo bo`ylab shunday familiyali shaxslar haqida internet saytlarida mavjud bo`lgan axborot ro`yxati chiqqan bo`lsa, singlisi ochgan sahifada faqat O`zbekiston bo`ylab shunday familiyalilar haqida ma'lumot chiqqan. Tabiiyki, ularning ichidan onasini topish ancha oson.

Hozir–globallashuv, cheksiz miqdorda bilimlar yig`ilgan va sistemalashtirilgan axborot asrida o`zlashib singgan bilimdan ko`ra bilim topish yo`lini bilish afzal. Prezidentimizning "bilim o`z yo`lida" deb aytishlarida mana shunday tagma`no yotadi – mustaqil, ijodiy fikrlovchi qanday sharoitda qanaqa bilim kerakligini va uni qayerdan olish mumkinligini - bilim manbayini va undan foydalinish kalitini biladi. Tabiiyki, u "bilimga ehtiyoj ruhi bilan yo`grilgan" va uni qanday topish, demak, qanday foydalnish yo`llarini ham biladi.

Induktiv usulning o`z afzalliklari bo`lsa-da, mushohada, muhokama va muammoli ta`lim usuli hisoblangan induktiv usullar deduktiv usullarni rad etmaydi, aksincha, induksiya doimo deduksiya bilan

mustahkam aloqada bo`ladi. Induktiv usullarda ta`lim jarayonini tashki eta olish ta`lim beruvchidan yuksak darajadagi bilim va mahoratni talab etadi. Bundan tashqari ta`limning har xil tur va bosqichiarida muayyan o`quv predmetining turli o`rganilish bosqichlarida ta`limning bir xil yetakchi usuli hukmronlik qilishi mumkin emas. Masalan, ona tili o`quv predmetining boshlang`ich turida (bosqichida), tayanch o`ta ta`limda va o`ta maxsus ta`lim bosqichida yetakchi ta`lim usuli bir xil bo`lishi mumkin emas. Alisbo, xat-savod, imlo va talaffuz me`yorlarini o`quvchilarga muammoli, muhokama yoki tanqidiy usullar bilan singdirish, ularda amalda ravon va to`g`ri o`qish hamda yoziш, adabiy nutq me`yorlariga rioya qilish odatini tabiatga aylantirishi mumkin emas. O`ta umumiy talimning boshlang`ich ta`lim bo`g`iniga to`g`ri keladigan 7-10 yosh bolalarda o`ta rivojlangan xotira, reproduksiya, psixologik-stereotip shakllarni tez va abadiy o`zlashtirish davri. Bu davr ta`limida deduktiv-reproduktiv ta`lim usuli yetakchilik qilishi lozim. Bu yosh- payg`ambarimiz hadisi shariflarida qayd etib o`tganlarideki "Yoshlikda o`zlashgan ilm toshga o`yilgan naqshdir"--reproduktiv bilimlar, qat`iy va mutlaq qonun-qoidalarning bir umrga xotirada naqsh qildirish (toshga o`ydirish) davridir. Shuning uchun bu tur ta`limida, shubhasiz, reproduktiv ta`lim usullari yetakchilik qilishi lozim. Faqat bolaga beriladigan bilimlar hajmi va sifati, amaliyotga munosabatiga nisbatan, aytib o`tganimizdek, o`ta talabchanlik lozim; butun umri va jamiyatda kundalik faoliyati uchun zarur bo`lgan odatlarni shakllantirish uchun asos bo`la oladigan bilimlar va axborot bolaga shu yoshda singdirilishi lozim.

O`ta umumiy (tayanch) ta`lim bosqichida 11-16 yoshli o`smirlarning psixo-fiziologik holatlari tamoman o`zgacha bo`lib, ularda ijodiylik-olgan bilim, hosil qilgan ko`nikmalarini asosida ijod, ya`ni yaratish, bunyod qilish, yangilik yaratish, g`ayrioddiylikka qiziqish kuchayadi. Bu yoshda ularning ongini retroskopik ta`lim bilan band qilish ta`lim oluvchida ijodiylik kurtaklarini so`ndirishga olib kelishi mumkin. Shunga ko`ra o`ta umumiy (tayanch) ta`lim bosqichida ona tili ta`limi usuli ham tubdan yangilanishi, til va tafakkurning birligi hamda ajralmasliligiga tayangan holda ta`lim

oluvchiga ijodiy tafakkur malakalarini shakllantirishga qaratilgan, ya'ni ko'proq induksiyaga tayangan bo'lishi lozim bo'ladi.¹

Ona tili ta'limi o'smirlarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga, ijodiy tafakkur mahsulini yozma va og'zaki shakllarda to'g'ri hamda ravon bayon qilishni o'rgatishga xizmat qilmog'i lozim. Bu maqsad esa o'quvchilarga tayyor qoidalarni berish emas, balki hodisalarни kuzatib, ularni umumlashtirish, aqliy umumlashmalarni o'zaro qiyoslab, ular orasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashga haratilgan -bolalarni o'ylash, fikrlash, izlash, topish va umumlashtirishga undovchi - ta'lim usulini, muammoli vaziyatlarini, mashq va topshiriqlarni talab etadi.

O'zR VMning 1999-yil 16-avgustda 343-qarori bilan tasdiqlangan "O'rta umumiyyat ta'limning davlat ta'lim standartlariga muvofiq ravishda tuzilgan "Ona tili" dasturi "Uqtirish xati"da bilim olish va ko'nikma hosil qilish o'quvchi tomonidan bosqichlilik bilan quyidagi o'n turli mustaqil faoliyatni talab etishi ta'kidlangan:

"O'quvchining ta'lim jarayonida faol ishtirokchi ekanligi uning darslik topshiriqlari asosida o'qituvchi rahbarligida quyidagi turdagiligi mustaqil ishlarni bajarishida o'z aksini topadi:

- 1) kuzatish - darslik (o'qituvchi) topshirig'i asosida ona tili hodisalaridan berilgan (ko'rsatilgan) namunalarni kuzatadi;
- 2) izlanish - o'ylash, xotirada tiklash, so'rash, lug'at, qomus, ma'lumot manbalaridan foydaalanish asosida hodisalar sirasini boyitadi;
- 3) alohidiliklarni sharhlash - berilgan va o'zi davom ettirgan siradagi har bir hodisani alohida-alohida sharhlaydi;
- 4) qlyoslash - siradagi hodisalarни o'zaro qiyoslaydi;
- 5) umumiylikni aniqlash - siradagi hodisalarning o'xshash, umumiyyat tomonlarini aniqlaydi;
- 6) farqlarni topish - siradagi hodisalarning bir-biridan farqli tomonlarini aniqlaydi;
- 7) tasnif etish - siradagi hodisalarini o'xshashlik va farqlari asosida guruh hamda guruhchalarni ajratadi;

¹ Nematov H., Shirinova N. Tilshunoslikning falsafiy masalalari - Buxoro: Universitet, 2006. - 82 b.; Бонфилов В.З. Философские проблемы языкоизнания. - М.: Наука, 1977.; Хайруллаев М., Хабердинев М. Мантиқ. - Т.: Ўзбугчалик, 1993.; Язык и мышление. Взаимоотношение языка и мышления. - М.: Наука, 1971.

8) hukm chiharish – hodisalar sirasi haqida umumlashma (hukm, xulosa, qoida) chiharadi;

9) aloqadorlikni aniqlash–o'rganilgan hodisalarning yondoshlari (ma'nodoshlari, shakldoshlari, vazifadoshlari, qiymatdoshlari, zidlari va h.k.) aniqlaydilar;

10) qo'llash – hodisalarни mustaqil ravishda yozma va og'zaki shakllarda sharhlash, ijodiy matn tuzadi".¹

Tabiiyki, bu yerda o'quvchining har bir yangi mavzuni o'zlashtirishi bilan bog'liq bo'lgan va o'qituvchi rahbarligida bajaradigan mustaqil izlanish faoliyati faqat induksiya bilan, ya'ni hodisadan mohiyatga, xususiydan umumiyya yo'nalishi bilan cheklanmaydi: induksiya–bosh usul, usullar usulidir, usullar asosidir. Shuning uchun qator ilmiy-metodik ishlari shu dastur mualliflari, biz yuqorida aytib o'tganimizdek, "Ona tili"ning amaldagi dasturida ta'lrim usulini qisqagina qilib induktiv deb emas, balki ongli, verbal, kognitiv-pragmatik deb muayyanlashtirib, uni didaktikada keng tarqalgan muammoli ta'lrim usullari bilan yaqinligini qayd etadilar.² Bu ishlarda A.Ozbel³, Flagg⁴larning kognitiv pedagogik va psixologik tadqiqotlariga tayanib, onglilik, verballik, kognitivlik, pragmatiklik tamoyillarining har biri sharhanadi.⁵ Bundan ko'rindaniki, dasturda qo'llanilgan induksiya atamasi ta'limi ta'lim berish emas, balki ta'lim olish jarayoni sifatida tushunishni ta'kidlashga xizmat qilgan. Bunday falsafiy-mantiqiy atamadan foydalananish zaruratining boshqa (ijtimoiy-mafkuraviy) sabablari yuqorida sharhlangan edi.

Ona tili ta'limi o'rta umumiyya ta'limganing tayanch bo'g'inida (V-IX sinflarda) kognitiv-pragmatik usulda yo'lga qo'yishning afzalligi

¹ Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўкув ластири Она тили Алабист Т. Шарк. 1999. – 66-67-6

² Давилов В.В. Виды общения в обучении. – М. Педагогика, 1972. Давилов В.В. Психологические возможности младших школьников в усвоении математики. - М. Педагогика, 1969 – 105 стр

³ Ausubel D.P. Educational Psychology. A Cognitive View. – N.Y. 1968 № 45

⁴ Reynolds A.V., Flagg P.W. Cognitive Psychology. – Cambr, 1997. – 32.

⁵ Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўкув ластири Она тили Алабиёт Т. Шарк, 1999 – 304 б.; Гулмамов А., Нигматов Х. О перестройке содержания образования по узбекскому языку // Сов педагогика - 1988. – № 2.; Жабборов А., Незматова Г. Она тили гаълимида когнитив психология. вербал гаълим ва ижодкор шахс масаласи // Тил ва алабиёт таълими - 2001 - № 6 , Нигматов Х., Незматова Г. Она тили таълими ва ижодий тафаккур соҳиби (Онгли вербал, индуктив-прагматик таълим хусусида) // Филологик тадқиқотлар – 2003 – № 3-4

nimada? Bu, birinchidan, o'quvchilarning boshlang'ich ta'limga xat-savodning asosiy qoidalari, o'zbek adabiy tilining imlo va talaffuz me'yorlari bilan, asosan, retroskopik ta'lim usulida tanishganlari, ikkichidan – o'quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olgan holda-endigi navbat ularda izlanish va topish, yaratish, ijod malakalarini shakllantirish maqsadi bilan bog'liq. Bu yoshdag'i o'quvchining ongida kundalik hayotida ishlatajigan har bir narsa-buyum, voqe'a-hodisa, harakat-holatni o'nlab usul-u turlarda atash va ifodalash imkoniyatlari mujassamlangan. U axborot manbalari-lug'at, ma'lumotnoma, o'rganayotgan boshqa o'quv predmetlari bo'yicha olgan qo'shimcha ma'lumotlar bilan ularning sirasini muttasil boyitib borishi, ona tili imoniyatlardan maqsadga muvofiq to'g'ri va go'zal foydalana olish malakalarini o'zida o'qituvchi rahbarligida shakllantirishi lozim. Nazariy-lingvistik qoidalarni emas, balki mustaqil izlanish asosida ma'lum bir masala (narsa, belgi-xususiyat, hodisa, harakat-umuman vogelik) ustida fikr yuritishi, o'z kuzatish va topilmalarini, fikr-u mushohadasini ona tilining ichki imkoniyatlardan samarali foydalanib yozma va og'zaki shakllarda, ayni bir fikr-ma'lumotni (masalan, dam olish kunini qanday o'tkazgani haqida) turli shakllarda (yozma va og'zaki, rasmiy yoki do'stona suhbat, badiiy tasvir....) va har xil kishilarga (masalan, tanishiga, yaqin sirdosh o'rtoq'iga, uzoqdagi akasi yoki boshqa katta qarindoshiga, sinf rahbariga) bayon etishi uchun ona tili mashg'ulotlari juda qulay va ulkan imkoniyatlarga egadir. Ona tili ta'limi jarayonida bu imoniyatlardan samarali foydalanish mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashda mustahkam zamindir.

Ta'lim jarayonida ta'lim usulini yangilash, yangi usullarni qo'llash va ommalashtirish ta'lim maqsadi va mazmunini yangilash hamda ommalashtirishdan ancha murakkab, chunki bu, birinchidan, ta'lim vositalari va ko'p ming kishilik o'qituvchilar ommasining kasbiy ko'nikmalarini bilan bog'liq. Juda ko'p hollarda, ta'lim vositalari (darslik va o'quv materiali) yangilangan paytda ham o'qituvchining darsni eski –mazmun va materialga mos kelmaydigan – usullarda tashkil etishi va o'tkazishiga guvoh bo'lamiz. Ta'lim maqsadi ijtimoiy buyurtma asosida hukumat qaror, buyruq va ko'rsatmalari bilan, ta'lim mazmuni va

materiali ta'lim maqsadiga muvofiq ravishda bir guruh metodist va didakt olimlar hamda ilg'or amaliyotchi o'qituvchilar tomonidan yangi dastur, darslik va tavsiyalar shaklida qisqa muddatda yangilanishi mumkin. Lekin ko'p ming kishilik o'qituvchilarda zotiy odatga aylangan ko'nikmalarini-ta'limning darsliklardan boshqa qo'shimcha vositalarini-yangilash uzoq muddatli qat'iy maqsadli ishlarni talab qiladi. Mana shuning uchun O'zbekistonimiz ta'lim tizimi oldida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning ikkinchi-sifat besqichini amalga tatbiq etish jarayonida juda katta muammo-yangi pedagogik texnologiyalar (YPT)ni ommalashtirish muammosi ko'tarildi. Zeroki, O'zR VMning 1999-yil 343-, 2000-yil 400-, 2001-yil 343-qarorlari bilan umumiyoq o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar, oliy ta'lim DTSlari qabul qilinib, ta'limning yangi maqsadlari, yakuniy natijalari belgilandi (tasdiqlandi). Shu maqsadlarga muvofiq dasturlar ta'lim vazirliklari tomonidan tasdiqlanib amaliyotga joriy etildi, amaldagi yangi dasturlar asosida umumiyoq o'rta ta'limning barcha o'quv predmetlari bo'yicha darsliklarning birinchi avlodni (ona tili, adabiyot, tarix va, hatto, boshqa predmetlardan ikkinchi va uchinchi avlodni) yaratilib ommalashtirildi, lekin yangi pedagogik texnologiyalarni ommalashtirish, o'qituvchilarda yangicha ishslash, darsni yangicha tashkil etish va o'tkazish ko'nikmalarini hosil qilish ancha qiyin kechmoqda. O'zbekiston hukumati YPTlarni ommalashtirish uchun barcha imkoniyatlarni - ichki resurslarni, tashqi investitsiyalarni ishga solmoqda, mustaqillik davrida davlat budgetining salmoqli qismi ta'lim tizimini isloh etishga va "2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi"ni amalga oshirishga sarflandi.

Mustaqillik davrida YPTlar ommalashtirildi, jahondagi ilg'or pedagogik texnologiyalarni vatanimizda joriy etishga chet el sarmoyalari va turli jamiyatlari bilan yaqin hamkorlik ta'minlandi, shu maqsadlarda "Umid", "Ustoz" jamg'armalari tuzildi, minglab yoshlar chet ellarga ta'limning YPTlarini o'rganish uchun yuborildi, yuzlab mutaxassislar g'arb va sharqning eng rivojlangan davlatlaridan ishga

taklif etildi, qator qo'llanmalar¹, ilmiy maqolalar², tavsiyalar³ ommalashtirildi. Bularning barchasi bitta bosh maqsadga – YPTlarni joriy etishga, ta'lim usulini yangi maqsad va yangi mazmunga muvofiqlashtirishga qaratilgan edi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Taniqli didakt olim I.Y.Lernerner "Bilim aql beradimi?" degan savolga nima uchun "Yo'q" deb javob berganligini izohlang.
2. Nima uchun ta'lim usullari doimo yangilab turilishi zarur?
3. "Ta'lim maqsadi o'ziga xos ta'lim usulini talab qiladi" degan jumla mazmunini o'z so'zingiz bilan tushuntiring.
4. Ma'lum bir mavzuni o'tish uchun yozilgan metodik tavsiya va ishlanmalarda ta'limning eng samarali usuli qo'llanilganmi?
5. Qoidadan tahlilga, umumiylidkan xususiylikka qarab intilish yo'lidan foydalanadigan usul qanday nomlanadi?
6. O'qitishning qaysi bosqichida reproduktiv ta'lim usullaridan foydalanish samara beradi?
7. O'zRVMning 1999-yil 16-avgustda 343-qarori bilan tasdiqlangan "O'rta umumiylar ta'limning davlat ta'lim standartlariga muvofiq ravishda tuzilgan "Ona tili" dasturi "Uqtirish xati"da "Ta'lim usuli asosan induktivdir", deb qayd etilgan. Buning sababini tushuntiring.

¹ Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии – М. Педагогика, 1989. Дустмуродова О. Она тили таълими янги педагогик технологиясининг моҳияти – Т. РТМ, 2005 – 36 б. Жўраев А. Таълим технологиялари. – Бухоро: Университет, 2005. – 76 б; Назарова Т.С Педагогическая технология. Новый этап эволюции. – М.: Педагогика, 1997.; Розиков О., Огасе С., Махмудов М., Адизон Е. Таълим технологияси – Т. Ўқитувчи, 1999.; Сайдакхмедов Н., Абдурахмонов О. Янги педагогик технология моҳияти ва замонавий ложиҳаси. – Т. РТМ, 1999. – 27 б.; Фарберман Б. Илгор педагогик технологиялар. – Г. Фан, 2000. – 46 б.; Фарберман Б. ва б. Олий ўкув юртларида уқитишнинг замонавий усуллари – Т. Олий таълим, 2002. – 138 б.; Юсупов Э., Исмоилов Ф. Инсон баркамоллиги – Т. Узбекистон, 1989. – 157 б.

² Заринов К. Янги педагогик технологияни татбиқ этиш бошкичлари // Халқ таълими. – 1997. – № 2.; Йўлдошев М. Янги педагогик технология: йуналишлари, мувоммолари, ечимлари // Халқ гаълими. – 1999 – № 4.; Несматова Г. Она тили таълимминг янги технологияси ва ўқувчининг фаболигт турлари // Тил ва адабиёт таълими. – 1999, № 5-6. – 35-38-б.; Нишоналиса У. Инструментарий обучения воспитания и развития // Учитель Узбекистана – 1998, 7 октябрь.; Омилов М. Уқитиш усулни – педагогик технологиянинг асосий компоненти // Халқ таълими. – 1999 – № 6.; Сайдакхмедов Н. Янги педагогик технология моҳияти // Халқ таълими –1999. – № 1.; Хўжаев Н. Педагогик технологиялар хакида // Милий таълим. – 2003. – № 2.; Колиров В. Ноанъянавий дарслар // Илмий-усулий маколалар тўплами – Андижон, 1996 – № 5.

³ Несматова Г. Ижодий тафаккурни ривожлантириш технологияси ва ўқувчининг мустақил фволияти (Она тили ўқитувчилари учун методик тавсиялар) – Т. РТМ, 2001. – 34 б.; Омилов М. Янги педагогик технологиялар. – Каши: Насаф, 2000. – 13 б.; Стилл Ж., Мередис К., Темпл Ч. Танкидий фикрлашни ривожлантириш асослари 1-2-3-4-5-кўлланмалар – Т. Узбекистон – Очик жамият институти, 2000. Узбек тили бўйича ДТСни жорий этиш масалалари (Республика илмий-амалий конференцияси материаллари) – Кўкон, 2003 – 151-155-б.; Колирова Ф. Педагог кадрларга янги технология хакида // Тил ва адабиёт гаълими. – 2004 – № 4. ва б.

8. Ongli verbal~induktiv~kognitiv(ongli)~pragmatik usulning mohiati nimada?

9. Respublikamizda "2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi"ning qaydarajada bajarilganligi haqida gapiring.

10. Respublikamizda ta'lim usulini yangi maqsad va yangi mazmunga muvofiqlashtirish qaydarajada amalga oshirilmoqda?

Foydalanish uchun adabiyotlar: |1; 2; 4; 6; 22; 23; 24; 25; 30; 32; 33; 49; 51; 53; 118; 125; 152; 153|

TA'LIM VOSITALARINING TA'LIM MAQSADI BILAN ALOQADORLIGI

Reja:

1. Darslik va dars davomida ta'lim oluvchi bajarishi lozim bo`lgan topshiriqlar tizimi (algoritmi) xususida.
2. Ta'lim maqsadi va mazmunining o`zaro mutanosibligi ta'minlashda ta'lim vositalarining roli.
3. Ta'lim vositalarining ta'lim maqsadi bilan aloqadorligi.

Mavzuga oid tuyanch tushunchalar:

Ta'lim vositalari: darslik, topshiriqlar tizimi, axborot banklari, ta'lim maqsadi va vositalarining o`zaro mutanosibligi, ta'limning yangi texnologiyalari

Ta'lim vositalari deganda ta'lim jarayonida ishlatalatiladigan, foydalananadigan barcha vositalar – birinchi navbatda darslik, metodik tavsiyalar-u ishlanmalar, ko`rgazma va tarqatma materialllar, texnik asbob-uskunalar majmuyi tushuniladi. Bularidan, shubhasizki, hozircha o`quv predmetidan darslik ta'lim jarayonida muhim o`rin tutadi. Zeroki, dastur asosida tuzilgan darslik ta'lim mazmunini aks ettiruvchi o`quv materialini ham, uning o`quvchi tomonidan o`zlashtirilish usullarini ham, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi uchun zarur sanalgan tahlil (analiz), umumlashtirish (sintez) uchun materialni ham, o`quv

materialidagi tarqoq hodisalarni bir-biriga bog'lovchi qonuniyatlarini ham o'z ichiga oladi. Bir so'z bilan aytganda, darslik – ta'lif oluvchi uchun ma'lum miqdordagi bilimlarni, malaka, ko'nikina, odatlarni o'ziga singdirish uchun tayanch manba. Darslik ta'lif maqsadi, mazmuni va usuli bilan uzviy bog'liqlikda har xil bo'ladi. Retroskopik-reproduktiv (ko'rgazmali bayon usuli) hukmronligi davrida darslik o'quvchi o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilimlar va hosil qilinishi kerak bo'lgan malaka va ko'nikmalarni deyarli to'la qamrab oladi–o'quv materiali, asosan, darslik bilan cheklanadi – o'quvchi darslik materialini bilsa bas. Tabiiyki, bunday darslik bilan ishlash tom ma'nodagi ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Darslik topshiriqlar tizimida o'quvchining mustaqil izlanishi uchun yo'llanmalar berib borganda, ta'lif oluvchining axborot banklariga doimiy murojaatini talab qilganda, uni ijodiy faoliyatga undagandagina u o'z maqsadiga erishishi mumkin. Shuning uchun darslik bilan dars davomida ta'lif oluvchi bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar tizimi (algoritmi)ni va zaruriy o'quv materialini aralashtirmaslik lozim. Biz hozir darslik deganda ham mavzu talqinini, ham o'quv materialini, ham ta'lif oluvchi bajarishi Jozim bo'lgan amaliyotlar va ularning tartibini ham, ta'lif oluvchi kelishi kerak bo'lgan yechim (xulosa)ni ham o'z ichiga olgan majmuani tushunamiz. Haqiqiy ijodiy tafakkur sohibini shakllantirish va rivojlantirishga mo'ljallangan darslik yuqorida zikr etilgan darsliklardan farq qilmog'i lozim; yangi maqsadlar uchun yangi turdagи darsliklar zarur. Buni Prezidentimiz ham o'zlarining tarixiy ma'ruzalarida ta'kidlab, eski qolipda yozilgan darsliklardan xalos bo'lmay, bolalarimizni yangicha fikrlashga o'rgatish mumkin emasligini alohida uqtirib o'tgan edilar.¹ Yangicha o'qitishda, ijodiy tafakkur sohibini yetishtirishda o'quv materiali darslik materiallaridan ancha keng bo'lmoshga shart. Jumladan, ona tilidan darsliklar o'quvchilarga xilma-xil lug'atlardan (axborot banklaridan), qomuslardan, ma'lumotnomalardan (spravochniklardan), mакtabda o'qitiladigan boshqa o'quv predmetlari bo'yicha olgan bilimlari va ma'lumotlaridan, tajribali kishilar (o'quvchilarning yaqinlari)dan

¹ Баркамол авлод Узбекистон тараккиётининг пойлевори – Т. Шарқ. 1997. – 15-6.

qo'shimcha material olishga, bu – darslikda berilmagan material ustida ijodiy ishlar tizimini loyihalashtirgan taqdirdagina ko'zlagan maqsadiga erisha oladi. Aks holda, u o'quvchi oyoq-qo'liga kishan, tafakkuriga g'ov bo'ladi. Yangi maqsadga yangi turdag'i darslik, yangicha mazmun, yangicha usul va vositalar olib kelishi va yangi shaxsni–tadbirkor, axborot manbalarini chuqur biladigan, undan o'ziga kerakli ma'lumotlarni tez topa oladigan, bu ma'lumotlari ichida o'zi yashab turgan muayyan sharoit uchun eng qulay va serunumidan foydalanish oladigan tezkor tadbirkor shaxsni yetishtirishni ta'minlashi mumkin. Shuning uchun yangi darsliklar mashqlar majmuasidan emas, balki topshiriqlar tizimidan iborat bo'lmos'hish kerak. Lekin bunday darslik bilan ishslash ta'lim ishtirokchilari ona tilidan ta'lim jarayoniga zarur bo'lgan axborot banklari bilan to'la ta'minlangandagina mumkin. Sovet davrida o'zbek didaktikasining, xususan, ona tili ta'limining fojeasi xuddi mana shunda edi: maktablarimiz ona tili darslarida o'quvchilar foydalanishi zarur bo'lgan qo'shimcha material – lug'at, ma'lumotnomalar, qomus, tavsiflash uchun qanday so'z va iboralardan foydalanish zarurligi ko'rsatilgan rasm-suratlar kabi ilg'or davlatlarda va, hatto, rus məktəb və sinflarida o'tgan asrning 70-yillaridan beri keng qo'llanilib kelinayotgan vositalar bilan mutlaqo ta'minlanmagan. Mana shuning uchun nafaqat o'quvchilarimizda, balki o'qituvchilarimizda ham (yana ham kengroq miqyosda umuman, ziyolilarimizda) lug'atlardan foydalanish, axborot manbayiga doimiy, har qadamda murojaat madaniyati shakllanmagan – TABIAT darajasiga ko'tarilmagan.

BuxDUda ta'lim olgan o'zbek tilshunosligi magistranti Shahlo Hamroyeva bakalavriat va magistraturada o'qish jarayonida (1998-2004-yillarda) o'zbek va rus sinflarida ona tili darslarini o'tish uchun mavjud qo'shimcha axborot vositalarini va ulardan foydalanishni, shu usul bilan shaxsda ma'lumot manbalariga murojaat madaniyatini singdirilshining qiysiyligi bilan (professor H.Ne'matov rahbarligida) shug'ullandi, kurs ishlari, malakaviy bitirish ishi, magistrlik dissertatsiyasini shunga bag'ishladi ba juda qiziq (qiziq emas – ayanchli, yig'lagulik!) xulosaga keldi: 1965-1985-yillar davomida rus sinflarida ona tili mashg'ulotlarida foydalanish uchun 20dan ortiq nomda

qo'shimcha axborot manbayi (lug'at, ma'lumotnomalar, ko'rsatkich, qiziqarli topshiriqlar tizimi va h.) ommaviy (milliardli - kishi boshiga o'n /o'ndan ortiq) nusxalarda nashr etilgan va tarqatilgan. Shu davorda o'zbek maktabxonlari uchun atigi ikki marta imlo lug'ati qariyb 2000 (ikki ming) kishiga bir nusxa miqdorida nashr etilgan, xolos. O'zbek xalqi tafakkurini o'mmavilayatiga ravishda bo'g'ishning, uni mutelikda saqlashning bundan zo'rroq vositasi – og'irroq kishani va iskanjası – bo'lmasa kerak! O'zbek bolasi o'z tafakkurini ona tilida rivojlantirish imkoniyatidan–axborot manbalariga murojaat va ular bilan ishslashdan, o'zga manbalarga murojaat qilib, bilimni oshirish, dunyoqarashini kengaytirish va saviyasini ko'tarish madaniyatini shakllantirishdan – mahrum qilingan edi; o'zbek bolasining hukmdorlar tomonidan o'qish va bilishga ruxsat etilgandan boshqa yana biror narsani bilishi yoki qila olishi shart emas edi. Shior ham juda sodda edi: Odam bo'lmoqchimisan, rus maktabi/sinfiga bor (ya'ni ona tiling –rus tili, tafakkuring ruscha bo'lsin!). Afsuski, bu "kasallik" bizda haligacha "davo"langani yo'q. To'g'ri, DTSlari talablari asosida tuzilgan dasturning "Ona tili o'qishning asosiy vositalari" bandida:

Ilk bosqichda:

1. Shu dastur asosida yaratilgan darsliklar.
2. O'zbek tili bo'yicha lug'atlar: «O'zbek tilining izohli lug'ati», «O'zbek tilining uyadosh so'zlar lug'ati», «O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar lug'ati», «O'zbek tilining shakldosh so'zlar lug'ati», «O'zbek tilining zid ma'noli so'zlar lug'ati».

Ikkinci bosqichda bu vositalar sirasi «O'zbek tilining so'z yasash lug'ati», o'zbek tilidagi ensiklopediya, ona tili mashg'ulotlarida og'zaki va yozma tasvir uchun izohli albom, ishlatalishi lozim bo'lgan zarur so'zlar berilgan rasm-tasvirlar va h.k. bilan to'ldirilishi lozim deb ta'kidlanadi. Lekin holat yaxshilanishdan ancha yiroq. O'quvchilar ona tili mashg'ulotlarida axborot manbalaridan keng va samarali foydalanishlari uchun moddiy zamin yaratish, shu yo'l bilan ommaviy

¹ Ona tili fanidan modernizasiya qilingan o'quv dasturi (5-9-sinfilar) // Ж. Тил ва адабиёт таълиими. 2008.

tafakkurni o'stirish davlat diqqat markazida bo'lmog'i va qat'iy nazorat qilinishi shart.

Albatta, DTSlari qabul qilinib, joriy etilgandan keyin bu yo'nalishda ham ancha ishlar qilindi. Jumladan, Oarshi davlat universiteti va Qashqadaryo viloyat xalq ta'limi boshqarmasi huzurida professor Baxtiyor Mengliyev boshchiligidagi jamoatchilik asosida ish olib borayotgan "O'quv lug'atchiligi" markazi tomonidan shu maqsadlarni ko'zlab tuzilgan va ommalashtirilgan quyidagi ishlarni sanab o'tish mumkin:

—Ona tili/ Qomus. Maktab o'quvchilar uchun. —Tuzuvchilar: Mengliyev B., Xoliyorov O. —Toshkent: Yangi asr avlodi. —2009. 274 b.

—Bobojonov S., Islomov I. O'zbek tili so'zlarining darajalanish o'quv lig'ati. Maktab o'quvchilar uchun. —Toshkent: Yangi asr avlodi. —2007. 70 b.

—Shukurov O., Boymatova B. O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lig'ati. —Toshkent: Yangi asr avlodi. —2007. 58 b.

—Suvanova X., Turdiyeva G. O'zbek tilining shakldosh so'zlar o'quv lig'ati. —Toshkent: Yangi asr avlodi. —2007. 54 b.

—To'rayeva U., Shodmonova D. O'zbek tilining zid ma'noli so'zlar o'quv lig'ati. —Toshkent: Yangi asr avlodi. —2007. 56 b.

—Mengliyev B. va b. O'zbek tilining so'z yashalish o'quv lig'ati. —Toshkent: Yangi asr avlodi. —2008. 180 b.

—Mengliyev B. va b. O'zbek tilining iboralari o'quv lig'ati. —Toshkent: Yangi asr avlodi. —2007. 72 b.

—Hamroyeva Y. O'zbek tili o'zlashma so'zlarning o'quv lig'ati. —Toshkent: Yangi asr avlodi. —2007. 124 b.

—Mengliyev B. va b. O'zbek tilining so'z tarkibi lug'ati. —Toshkent: Yangi asr avlodi. —2007. 104 b.

—Mengliyev B. va b. O'zbek tili qo'shma so'zlarning o'quv lig'ati. —Toshkent: Yangi asr avlodi. —2007. 114 b.

—Nafasov T., Nafasova V. O'zbek tilining talaffuzdosh so'zlar o'quv izohli lug'ati. Maktab o'quvchilar, kollej va litsey talabalari uchun. —Toshkent: Yangi asr avlodi. —2007. 122 b.

Mazkur lug'atlarning yaratilishi yaxshi. Lekin bu manbalar takomillashtirilishi, keng va eng muhimi ommaviy ravishda—har bir o'quvchining qo'lida bo'lish darajasida —tarqatilishi lozim.

Lekin hozir kutib o'tirish, "Olma pish, og'zimga tush!", "Qachon bunday axborot manbalari maktablarda tarqaladi va biz foydalanamiz" deb turishning payti ham emas. O'quvchiga ijodiylik ruhini singdirishda, uni mustaqil fikrlash, izlash va topishga undashda ta'lim usuli — yangi pedagogik texnologiyalarni amalda tatbiq etish — ham muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni ta'lim vositalari ta'lim usuli bilan bog'lanib ketadi. Biz quyida ijodkor o'qituvchilarining ayrim dars ishlasmalarini diqqatingizga havola qilamiz:

(I-namuna)

"O'simlik otlari" mavzusi bo'yicha interfaol usullarni qo'llash

"Insert" usuli asosida bajariladigan topshiriq beriladi. Bunda o'qituvchi quyidagi matnni guruhlarga bo'lingan o'quvchilarga tarqatadi:

O'simlik

O'simlik-hayot manbayi. Tirik mavjudot hayotini o'simliklar olamisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Masalan, yashil o'simliklar bargi bilan turli changlarni tutib qoladi. 100 tup yosh terak bir yil davomida 75 kg changni ushlab qoladi. Chinor, zarang, lola va olma barglari eng sisfatli "changyutgich"dir. Shuning uchun o'simliklarni "salomatlik posbonlari" deyishadi. O'simliklar odam uchun havo, oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon, qurilish materiali, uy-ro'zg'or buyumlari, matolarga rang beruvchi bo'yoqlar, efir moylar, spirt, shuningdek, xalq xo'jaligining turli sohalari uchun xom ashyo manbayi hisoblanadi.

O'zbekistonning "Qizil kitobi" 1984-yilda chop etilgan. Unga respublikamizdagи kamyob va yo'qolib ketish xavfi bor 163 turdagи o'simliklar nomi kiritilgan. Kitobning qayta nashri 301 tur o'simlikni o'z ichiga olgan. 1983-yilda Respublikamizda "Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi" tashkil etildi.

O'quvchilar matnni o'qib chiqadilar va har bir gap oldiga quyidagicha izoh beradilar: **Bilardim. Bildim. Bila olmadim** kabi.

O'qituvchi matnni yig'ib olib tanishgach, xulosa chiharadi va "Bila olmadim" tarzida izohlangan satrlarni tushuntirib beradi.

"Sinkveyn" usuli asosida bajariladigan topshiriq beriladi: O'quvchilar uch guruhg'a ajratilib, har bir guruhg'a bittadan so'z beriladi. O'quvchilar muayyan so'zni mavzu sifatida olib, unga sifat va fe'llar qo'yib, so'z birikmalari hamda gap tuzadilar. Masalan:

1-guruh. Mavzu: O'RIK (daraxt)

Sifat: sershox; katta (o'rik daraxti)

Fe'l: (O'rik) gullaydi, meva beradi.

Gap: O'rik daraxti chiroli gullaydi. Uning mevasi inson salomatligi uchun juda foydali.

2-guruh. Mavzu: Atirgul (o'simlik)

Sifat: qizil, oq, sariq, chiroli, xushbo'y

Fe'l: (Atirgul) ochiladi; zavq bag'ishlaydi.

Gap: Atirgul bargidan xushbo'y ichimlik tayyorlanadi.

3-guruh. Isiriq (giyoh)

Sifat: foydali va shifobaxsh

Fe'l: (Isiriq) davolaydi; urug'laydi.

Gap: Isiriq ko'pgina kasalliklarga davodir.

Topshiriqlarni tez va xatosiz bajargan guruhi rag'batlantiriladi.

"Uchburchak o'yini" usuli asosida bajariladigan topshiriq beriladi: har bir guruhi sardori o'qituvchi tomonidan tayyorlangan uchburchaklardan bittasini tanlaydi. Shaklning 3 tomoniga topshiriqlar yozilgan va birorta o'simlik rasmi yopishtirilgan bo'ladi. Masalan:

1-tomon. U haqida she'r yoki qo'shiq aytib bering

2-tomon. Uni ta'riflang, matn tuzing.

3-tomon. Uyadosh so'zlar toping.

She'r va matnlar markerlar yordamida qog'ozga yozilib, ularning taqdimoti o'tkaziladi. Masalan, 1-guruh a'zolari quyidagicha she'r yozib, matn tuzdilar:

Atirgul

1. Gul jannatdan hadya bir ne'mat erur,

Guldin kishilar yuziga yog'ilur nur.

Bardoshiszlar qo'rqedilar xoridan,

O'rgilayin shunday gulning boridan.

Etaklari nurga to'lgan atirgul,

Yaproqlari durga to'lgan atirgul.

2. Gullar inson hayotida alohida o'rIN tutadi. Dunyoni go'zal qilib, qalblarga zavq bag'ishlaydi. Xushbo'y, chiroqli va rang-barang gullarni kim sevmaydi, deysiz. Atirgul – gullar malikasi. Uning husni, xushbo'y hidi hammaga yoqadi. Bu gul oq, qizil, sariq, pushti ranglarda bo'ladi. Odamlar yaxshi kunlar – to'y-tantanalar, tug'ilgan kun va bayramlarda bir-birlariga atirgul sovg'a qiladilar.

3. Uyadosh so'zlar: gul- atirgul, chinnigul, nastarin, gultojixo'roz va h.k.

Topshiriqlarni tez va xatosiz bajargan guruuh a'zolari rag'batlantiriladi.

(2-namuna)

Ushbu ishlanmada 7-sinf o'quvchilariga nutqda yordamchi so'zlardan turli usullar yordamida foydalanish tajribasini 7-sinf ona tili darsligidagi "Yordamchi so'zlar" mavzusi ustida ishlash jarayoni orqali yoritamiz.

Dars xarita, tarixiy shaharlarning rangli suratlari, yil fasllari, bayonli suratlari bilan jihozlanib, o'quvchilarga tarqatma material beriladi. Bu darsdan ilgari o'quvchilarga so'zlash odobi haqida "O'zbek xalq maqollari" kitobidan tarkibida yordamchi so'zlar mavjud bo'lgan maqollarni yod olish va tarixiy shaharlarimiz haqida ma'lumotlar bilan tanishish vazifasi topshiriladi.

Sinf o'quvchilarini "Ko'makchi", "Bog'lovchi", "Yuklama" nomli guruhlarga bo'lamiz. Bu guruhsar vazifalarni bajarishda bir-biri bilan musobaqalashishlari kerak.

Dars "Aqliy hujum", ya'ni "Maqollar sabog'i" degan musobaqadan boshlanadi. Bunda bir guruuh maqolning birinchi qismini aytsa, ikkinchi guruuh uning davomini topishi kerak edi. Musobaqa quyidagicha o'tadi:

"Ko'makchi" guruhi: Shirin so'z bilan ilon inidan chiqar...

"Bog'lovchi" guruhi: Yomon so'z bilan pichoq qinidan chiqar...

"Yuklama" guruhi: Yomon so'z bilan musurmon dinidan chiqar.

"Ko'makchi" guruhi: Hosil uchun yer hayda....

"Bog`lovchi" guruhi: Yer haydasang ham kuz hayda...

"Yuklama" guruhi: Kuz haydamasang-chi, yuz hayda.

"Ko`makchi" guruhi: Do`siti ko`p bilan siylash...

"Bog`lovchi" guruhi: Do`siti oz bilan sirlash...

"Yuklama" guruhi: Do`siti yo`qdan qoch.

"Ko`makchi" guruhi: Ona va bola....

"Bog`lovchi" guruhi: Gul-u lola ..

"Yuklama" guruhi:

Maqollardan o`quvchilar yon-atrofdagilar bilan inoq, do`siti, yaqin bo`lish, ig`vo, hasad ma`nosidagi so`zlarni aslo so`zlamasdan, doimo shirin, mazmunli va ma`noli so`zlashish lozimligi haqida xulosa chiqaradilar. O`qituvchi esa o`quvchilar e'tiborini maqollardagi yaxshi so`zning atrofdagilarga ijobjiy ta'sirini, yomon niyatli ilonni ham eritib yuborishiga, yomon so`zning salbiy ta'siri esa yovuzlikka sabab bo`lishiga tenglashtirib tasvirlanganligiga qaratadi va ular tarkibida mustaqil ma`noli so`zlar bilan bir qatorda yordamchi so`zlar ham ishtirok etganligini, yordamchilarning ham gapda o`z o`rni borligini eslatadi.

Keyingi musobaqa "Suratlar tilga kirsin" o`yini tarzida o`tkaziladi. Bunda guruhlarga yurtimizda yetishtiriladigan ekinlar – paxta, makkajo`xori, savatchada pilla, bug`doyzor tasvirlangan rasimli kartochkalar tarqatiladi.

O`yin shartiga ko`ra, 5 daqiqa ichida har bir guruh berilgan rasmlar asosida she`r yoki nasriy matn tuzishi, matnda albatta yordamchi so`zlardan foydalanishi va tuzilgan she`r yoki matnni guruh a`zolaridan biri o`qib berishi kerak edi. Bu vazifani guruhlar quyidagicha bajarishi mumkin:

"Ko`makchi" guruhi: Paxta milliy boyligimiz

Yurtimiz boyligi hamda bizning milliy g`ururimiz paxtamizdir. Shunga ko`ra uni "oq oltin" deb ataymiz. Chunki u bizni kiyintiradi, to`yg`izadi, xalqimiz hayotini farovon qiladi. O`zbekistonimiz paxtasi bilan dunyoga mashhur. O`zbek xalqining qalbi paxtasi kabi oq.

"Bog`lovchi" guruhi: Makkajo`xori – dala malikasi

Makkajo `xori ham boshqa o'simlikliklar kabi chiroyli, rangi ko'mko`k. U insonlar uchun ham, chorva mollari uchun ham to'yimli ozuqa. Undan ko'p shirin yeguliklar tayyorlanadi. Hosili foydali, ammo tanasi ham keraksiz emas. So'talari ichidagi "sochlar"i malikalarnikidek. Dalalarimizga chiroy bag'ishlagani uchun uni dala malikasi deyishadi.

"Yuklama" guruhi: Pilla – kumush tola

Bahorda ipak qurti boqamiz. Ipak qurti pilla o'raydi. Pilladan kumush rangli tola olinadi. Undan atlas-u adres kabi matolar to'qiladi. Bu matolar bilan o'zbek xalqi jahonga mashhur bo'lgan.

Shartni ertaroq bajargan "Ko'makchi" guruhi qo'shimcha topshiriqni bajarishlari mumkin. Jumladan,

"Ko'makchi" guruhi:

Bug'doy - oltin boshoq
Dalaga sepsangiz don,
O'sadi sho'x bug'doyjon,
Bo'ladi katta xirmon,
Oltin boshoq – bug'doyjon.
Bizga bo'lar issiq non,
Qushlarga-chi, emish don.
Hosildan barcha xandon,
Oltin boshoq – bug'doyjon.

Bu o'yinda "Ko'makchi" guruhiga rag'bat kartochkasi berildi.

Darsning bu qismiga o'qituvchi yakun yasaydi: bu matnlar va she'rda paxtani oltinga, ipakni kumushga, bug'doy boshoqini ham oltinga qiyoslash tasviriy ifodalash vositalarining bir turi ekanligi ba ularda mustaqil ma'noli so'zlar bilan teng baravar yordamchi so'zlar ham bog'lanishli matnlarning yuzaga kelishiga xizmat qilganligi tushuntiriladi.

Shundan so'ng, barcha o'quvchilarga darslikdagi "Bilib oling" rukni ostida berilgan matnni o'qish topshirig'i beriladi:

Atash ma'noli so'zlar yoki ular o'rnida qo'llanilib, ma'lum so'roqlarga javob bo'lувчи va gapda ma'lum gap bo`lagi vazifasida keluvchi so'zlar mustaqil so'zlar sanaladi.

Atash ma'nosiga ega bo'lмаган, ma'lум so'роqqa javob bo'lмайдиган, gap bo'лаги vazifasida kelmaydigan so'злар yordamchi so'злар hisobланади.

Yordamchi so'злар mustaqil so'зларни yoki gaplarni bir-biriga bog'lash, ularning ma'nolariga qо'shimcha ma'no yuklash vazifalarini bajaradi.

Yordamchi so'злarga ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalar kiradi.

Matndagi yordamchi so'зlarga berilgan ta'rifni aniqroq ifodalash uchun doskaga qо'yidagi matn yozilgan ko'rgazma ildiriladi:

Bir shogird ustozidan: "Izzat hamda hurmatga ko'p loyiq bo'lgan zot kim?" deb so'rabdi. Ustozi: "Ona". deb javob beribdi. Shogirdi: "Undan keyin kim?" deb so'raganda ustoz "Ona" deb javob qaytaribdi. uchinchi marta savolga ham "Ona" so'zini takrorlahdi...

Olim-fozillar onani quyoshga, hayotga qiyoslaydilar. Ha, onaning mehri quyoshdek heminnat va musaffodir. Onaning o'z farzandlari uchun qilgan xizmatini hech narsa bilan o'lchab ham, baholab ham bo'lmaydi. Onalarning davlati ham, borlig'i ham, kelajagi ham, huvonchi va muhabbat ham farzandidir. Ona o'z farzandiga hayot bag'ishlaydi va unga mehr-muhabbat-u insoniylik fazilatlarini baxsh etadi-ku. Farzandlar faqat ana shu ulug' siymo oldida ko'proq qarzdordirlar. Biz ham ana shu iabarruk ustoz javobidan o'z burchimizni anglamog'imiz lozim. Zero, buyuk fors-tojik shoiri A.Jomiy aytganlaridek: Onangdan bosh tovlama, oshmasin dardi. Sharaf toji erur oyog'in gardi.

Matndagi ajratib ko'rsatilgan yordamchilarning ma'nosiga, shakliga e'tibor qaratiladi, yordamchu so'зlarning mustaqil so'зларни yoki gaplarni bir-biriga bog'lash, ularning ma'nolariga qо'shimcha ma'no yuklash vazifalari tushuntiriladi.

Yordamchi so'злар mustaqil so'зларни yoki gaplarni bir-biriga bog'lash, ularning ma'nolariga qо'shimcha ma'no yuklash vazifalarini bajarishi haqida xulosa qilindi. Misol qilib qо'ng'iroq chalindi, dars boshlandi ~ qо'ng'iroq chalindi va dars boshlandi ~ qо'ng'iroq chalindida, dars boshlandi ~ qо'ng'iroq chalindi-yu, dars boshlandi ~ qо'ng'iroq chalindi hamda dars boshlandi~ qо'ng'iroq chalindi, ammo (lekin,

biroq, shuning uchun) dars boshlanmadi ~ham qo'ng'iroq chalindi, ham dars boshlandi degan gaplar keltiriladi.

Darsning keyingi bosqichida "Yordamchi so'zlar" sahna ko'rinishi namoyish etildi.

Darsda Yordamchi timsolidagi o'quvchi bilan guruqlar orasida quyidagi aytishuv o'qib eshittiriladi:

Yordamchi: Ey ilm maskanining
Zo'r ilm toliblari,
Ma'nolar mahzanining
Orzumand g'oliblari.
Aniqdir men-la doim
Suhbat o'tkazishingiz.
Ko'ngil kalitingiz-la
Oching qalb darvozasin.
Javohirman ichida,
Injular xazinasin.
Mening nomim bilsangiz
Yordamchi so'z bo'laman.
Nutqni ravon qilishda
Hamkorman, vositaman.
Men-la nutqingiz go'zal
Men-la yozilgan g'azal
Siz sevgan she'r, qo'shiqlar
Men-la yoqimli azal.
Mening so'zlarim sizlar
Yoymangiz maqtanmoqqa
Hozirlaning savollar
Bersam javob topmoqqa.
Qo'shma gap tarkibida
Soddasini bog'laydi?
Bilsangiz ayting, u-chi....
"Bog'lovchi" guruhi: Yordamchi so'z – bog'lovchi.
Yordamchi: Balli, zukko ekansiz
Biroq, yana ayting-chi,

To`plab aqlda borin.
Bilan, uchun, sari ne?
"Ko`makchi" guruhi: Topdik! Bular- ko`makchi!
Yordamchi: Ey, topqirsiz-ku, rahmat !
So`z va gaplarga yuklar qo`shimcha ma'no...
"Yuklama" guruhi: Biz aytamiz, bu -yuklama
Yordamchi: Ot,olmosh, harakat nomi-yu sifatdoshdan keyin keladi...
"Bog`lovchi" guruhi: Bu ko`makchi, bobo
Bog`lashi gapga davo.
Yordamchi: Bog`lovchilar majmuyi
Qanday nomlanar yana?
"Ko`makchi" guruhi: Tezda topib qo`ydik biz.
Bu- yordamchi so`z.
Yordamchi: Endigisin topsangiz,
Eng topqir bo`lasiz siz.
Uyushiqni bog`laydi,
Uyushmasa "ko`maklashadi"...
"Yuklama" guruhi: "Bilan" so`zi, bilamiz biz!
Yordamchi: Ancha topqir ekansiz.
Ayting-chi, qay yordamchini,
Ham so`z bilan, ham qo`shimcha bilan
Ifoda etsa bo`lar?
"Bog`lovchi" guruhi: Bu eng oson savol-ku,
Kabi, -dek, -day javob-ku!
Bu savol-javobda eng ko`p rag`bat kartochkasini qo`lga kiritgan guruhi g`olib hisoblanadi. Shundan so`ng "O`yla, izla, top" o`yini o`tkaziladi. O`yinda guruuhlar o`zlariga berilgan quyidagicha test savollariga javob topdilar:

1. Mustaqil so`zlarni yoki gaplarni bir-biriga bog`lashga xizmat qiluvchi yordamchilarni toping.
- a) Ot b) Modallar c) Bog`lovchi d) Undovlar
2. Mustaqil so`zlar yoki gaplarga qo`shimcha ma'no yuklash vazifalarini bajaradigan yordamchi nomi berilgan qatorni toping.

a) Ot b) Modallar s) Bog`lovchi d) Yuklamalar

3. Qora oltin tasviriy ifodasining aniq atamasini toping.

a) neft b) ko`mir s) temir d) kumush

4. "Bahorda binafsha ...lola qalbni quvontiradi" gapida tushirib qoldirilgan yordamchini toping. a) va b) ammo s) goh d) kabi

Test yechishda uchala guruh ham rag`bat kartochkasiga ega bo`lishi mumkin.

Dars so`ngida saylanma diktant quyidagicha o`tkazildi:

Xattaxtaga "yo`l chiptalari" tarqatiladi. Har bir guruhga o`ziga tushgan shahar haqidagi matnni anihlash, matndagi yordamchi so`zlarni topib yozish topshirig`i berildi va guruhlarga quyidagi matnlar o`qib eshittiriladi:

"Shahrisabz yurtimizning boshqa shaharlari kabi juda go`zal. Usolibqiron Amir Temur tavallud topgan yurt. Shahrisabz yashil shahar degani. Oq saroy obidasi ham shahar markazi, ham shahar ko`rki hisoblanadi. Mustaqillik sharofati bilan Shahrisabzda yangi ilm maskanlari barpo etilmoqda".

Endi esa sohibqiron Amir Temur poytaxt qilgan Samarqandga yo`l olamiz.

"Samarqand Sharif Buxoromiz kabi qadimgi tarixiy yurt. Go`yo bu shahar feruza gumbazlar makonidek. Yer yuzining sayqali Samarqandni butun dunyo xalqlari biladi. 1996-yil A.Temur tavalludning 660 yilligiga bag`ishlab, Toshkent, Samarqand hamda Shahrisabzda sohibqiron haykali o`rnatildi".

Samarqanddan chiqib Toshkent shahri tomon yuzlanamiz. "Mana bu O`zbekistonimizning yuragi Toshkent shahrining surati-ku! Faqat Toshkentgina Sharqning oltin darvozasi. Hur diyormiz poytaxti. Sharq mash`ali Toshkent "non shahri" deb ham atalgan".

Ushbu topshiriq bo`yicha g`olib guruhlariiga rag`bat kartochkasi beriladi.

Dars so`ngida faol qatnashgan guruh a`zolari rag`batlantirilib, g`olib guruhlari e`lon qilinadi. Uyga 158-mashqda berilgan savollarga yozma javob yozib kelish vazifa qilib berildi.

Maktabda «Yordamchi so`zlar»ni o`qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish

Maktabda ona tili mashg`ulotlari boshqa bo`limlar singari «Morfologiya»dan beriladigan izchil bilimlar silsilasi ham, asosan, amaliy maqsadni, ya`ni bolalarning imlo savodxonligini oshirish, fikrni og`zaki va yozma shakkarda to`g`ri, ravon ifodalash ko`nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishni ko`zlaydi. Demak, morfologiyani o`rganishdan ko`zlanadigan asosiy maqsad morfologik tushuncha, ta`rit va qoidalarni o`rganish emas, balki fikrni to`g`ri, aniq, ravshan va go`zal ifodalashda so`z turkumlarining boy imkoniyatlaridan o`rinli foydalanishdir. Bu murakkab va ma`suliyatli vazifani muvaffaqiyatli hal qilish uchun yangi pedagogik texnologiyalar qo`llanilgan amaliy ishlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu ishlannmada 7-sinf o`quvchilarida nutqda yordamchi so`zlardan o`rinli foydalana olish malaka va ko`nikmalarini rivojlantirish tajribasini 7-sinf ona tili darsligi¹dagi «Yordamchi so`zlar» (46-dars) mavzuyi ustida ishlash jarayoni orqali yoritamiz.

Dars komputer, proyektor, yurtimizda mavjud uy hayvonlarining rangli suratlari tushirilgan topshiriqli slaydlar, tarqatma materiallar xarakteridagi slaydlar bilan jihozlanadi. Bu darsdan ilgari o`quvchilarga so`zlash odobi, yaxshilik, rostgo`ylik, inoqlik, do`stlik, ishning ko`zini bilish kabilalar haqida «O`zbek xalq maqollari» kitobidan tarkibida yordamchi so`zlar mavjud bo`lgan maqollarni yod olish, uy hayvonlari va ularning o`ziga xos xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishish vazifasi topshiriladi.

Sinf o`quvchilarini «Ko`makchi», «Bog`lovchi», «Yuklama» nomli guruahlarga bo`lamiz. Bu guruhlar ta`limiy topshiriqlarni bajarishda bir-birlari bilan musobaqalashishlari kerak.

Dars «Aqliy hujum», ya`ni «Maqollarda hayot hikmati» nomli ta`limiy topshiriqni bajarishdan boshlanadi. Bunda har bir guruhga proyektor orqali belgilangan maqolning birinchi qismi, ya`ni

¹ Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Ona tili. Umumta`lim maktablarining 7-sinf uchun darslik – T. Ma`naviyat, 2011. 128 h.

boshlanishi ko'rsatiladi, guruhlar zudlik bilan uni davom ettira olishlari zarur bo'ladi. Chunonchi,

Proyektor orqali: *Dono sari intilsang, dono bo'larsan...*

«Ko'makchi» guruhi: *Ahmoq sari yugursang, ahmoq bo'larsan...*

«Bog'lovchi» guruhi: *Kun kundan o'tgan sayin ekkanningni o'rarsan.*

Proyektor orqali: *Shirin so'z bilan ilon inidan chiqar...*

«Yuklama» guruhi: *Yomon so'z bilan pichoq qinidan chiqar...*

«Ko'makchi» guruhi: *Yomon so'z bilan musulmon dinidan chiqar.*

Musoboqa davomida o'quvchilarga «*Hosil uchun yer hayda, yer haydasang ham kuz hayda, kuz haydmasang-chi, yuz hayda*», «*Do'sti ko'p bilan siylash, do'sti oz bilan sirlash, do'sti yo'qdan qoch*», *Dehqon makkasidan kechsa ham, chumchuqlar o'zaro kelisholmas, noahil-da, hech chiqisholmas*», «*Oyning ham o'rog'i bor, har toyning ham suv ichgan bulog'i bor, har ko'katning ham suygan tuprog'i bor*», «*Nodon va yalqov – dushman uchun ov*», «*Er yigit nomi bilan, Mehnatda shoni bilan, Yov kelsa, joni bilan*», «*Saxiy bilan baxil bir buлоqdan suv ichmas. Saxiy bilan baxil bir avga sig'mas. Saxiy bilan baxilni eshaginiн to'qimi bildirar*», «*Yolg'onim go'yo uzoqqa ketdi, Ko'zlangan manzildan ham o'tdi. Baribir haqiqat quvib yetdi*», «*Imon bilan himmat egizak. Bitik bilan hikmat egizak, Yolg'on bilan sharmisorlik egizak*» kabi maqollarning boshlanish qismini berish ham o'rinnlidir.

O'qituvchi esa o'quvchilar e'tiborini maqollar mag'ziga singdirilgan mantiqiy ta'sirlarga qaratadi, shuningdek, maqollar matnidagi mazmundorlikni ta'minlashda mustaqil ma'noli so'zlar bilan bir qatorda yordamchi so'zlar ham ishtirok etganligini, yordamchilarning ham gapda o'z o'rni borligini eslatadi.

Keyingi musobaqa «*O'rniда qo'lla!*» o'yini tarzida o'tkaziladi. Bunda har bir guruhg'a proyektor orqali topshiriqli slaydlar ko'rsatiladi.

O'yin shartiga ko'ra, 4-5 daqiqa ichida har bir guruh o'zlariga mo'ljallangan rasm asosida ijodiy matn tuzishi, matnda, albatta, yordamchi so'zlardan foydalanishi va tuzilgan ijodiy matn tarkibidagi uchta gap rasm pastida berilgan chizmaga mos kelishi kerak.

«Ko`makchi» guruhi:



----- bilan -----, ammo----- .

----- uchun----- kabi----- .

Avval----- , so`ngra----- .

Qorabayir

O`zbekistonda otning bir qancha turlari bo`lib, ular uy hayvonlaridan biri hisoblanadi. Shulardan biri qorabayirdir. Qorabayir **ham** issiqqa, **ham** sovuqqa chidamliligi **bilan** boshqa otlardan ajralib turadi.

Otlar va ularni boqish **bilan** shug`ullanish yaxshi, **ammo** bu oson ish emas. Otlarni parvarishlash uchun keng va ozoda joy, etarli ozuqa bo`lishi kerak. **Avval** otlarni sevish, **so`ngra** ularni boqishga kirishish kerak.

Qorabayir mag`rurlik ramzi.

«Bog`lovchi» guruhi:



----- va -----, biroq----- .

----- ham, ----- ham-----u, ----- .

Ba`zan----- , ba`zan----- .

Oq ot-go`zallik timsoli

Oq ot **ham** boshqa otlar **kabi** chiroyli, rangida **ham** musaffolik ramzi bor. Biz qorabayir, saman, to`riq **va** qashqa **kabi** otlarni yaqindan ko`rganmiz, **biroq** rasmdagi **kabi** go`zal, baquvvat oq otini tomosha qilmaganmiz. Ot sutidan qimiz bo`lishini **ham**, go`shtidan qazi tayyorlanishini **hem** bilamiz-u, ularning foydali xususiyatlari **haqida** eshitmagan ekanmiz. Albatta, shunday ma'lumotlarni topib o`qishga harakat qilimiz.

Ba'zan o'zimizning otimiz bo'lishini, ba'zan unga minib hammani qoyil qoldirishni istar edik. Endi hammamiz go'zallik timsoli bo'lgan oq otimiz bo'lishini orzu qilyapmiz.

«Yuklama» guruhi:



-----a? -----mi ? -----.
-----faqat ----- xuddi -----.
-----naq----- , go`yo ----- .

Saman

*Saman otni ko`pchiligimiz bilamiz-a? Shu otni siz ham chiroyli, g`ayratli deb hisoblaysizmi? Bizningcha, chopqirlilikda, go`zallikda va ayniqsa, sadoqatlilikda samanga teng keladigani yo`q. Saman Boychibor, G`irot, Jiyronqush **kabi** afsonaviy otlar avlodidan. Dostonlardan bilamizki, ot **faqat** uzog`ingni yaqin qiladigan ulov emas, u **xuddi** yaqinlaring **kabi** sadoqatli do`st hamdir.*

Rasmdagi otning naq peshonasi oq tusda, u oldinga intilmoqda, go`yo uchib horayotganday.

Guruqlar taxminan yuqoridagi kabi matnlar tuzadilar va o`qib beradilar. Bu o`yin-topshiriqda g`olib guruhga rag`bat kartochkasi beriladi.

Darsning bu qismiga o`quvchilar o`qituvchi boshchiligidagi yakun yasaydilar: tuzilgan matnlarda mustaqil ma'noli so`zlar bilan teng baravar yordamchi so`zlar ham bog`lanishli matnlarning yuzaga kelishiga xizmat qilganligiga e'tibor qaratiladi.

Shundan so`ng o`quvchilar hukmiga proyektor orqali «Bilib oling» rukni ostida berilgan matn havola etiladi va o`quvchilarga o`qittirilib mazmuni so`raladi:

Atash ma'noli so`zlar yoki ular o`rnida qo'llanilib, ma'lum so`roqlarga javob bo`luvchi va gapda ma'lum gap bo`lagi vazifasida keluvchi so`zlar mustaqil so`zlar sanaladi.

Atash ma'nosiga ega bo`lman, ma'lum so`roqqa javob bo`lmaydigan, gap bo`lagi vazifasida kelmaydigan so`zlar yordamchi so`zlar hisoblanadi.

Yordamchi so`zlar mustaqil so`zlarni yoki gaplarni bir-biriga bog`lash, ularning ma'nolariga qo'shimcha ma'no yuklash vazifalarini bajaradi.

Yordamchi so`zlarga ko`makchi, bog`lovchi va yuqlamalar kiradi.

Matndagi *yordamchi* so`zlarga berilgan ta'rifni o'quvchilar qaydarajada o'zlashtirganlarini bilish uchun proyektor orqali qo'yidagi matn yozilgan slayd ko'rsatiladi:

*Bir shogird ustozidan: "Izzat hamda hurmatga ko`p loyiq bo`lgan zot kim?" deb so`rabdi. Ustozi: "Ona". deb javob beribdi. SHogirdi: "Undan keyin kim?" deb so`raganda ustoz "Ona" deb javob qaytaribdi. uchinchi marta savolga **ham** "Ona" so`zini takrorlabdi...*

*Olim-fozillar onani quyoshga, hayotga qiyoslaydilar. Ha, onaning mehri quyoshdek heminnat va musaffodir. Onaning o'z farzandlari uchun qilgan xizmatini hech narsa **bilan** o'lchab **ham**, baholab **ham** bo`lmaydi. Onalarning davlati **ham**, berlig'i **ham**, kelajagi **ham**, quvonchi va muhabbatli **ham** farzandidir. Ona o'z farzandiga hayot bag`ishlaydi va unga mehr-muhabbat-u insoniylik fazilatlarini baxsh etadi-ku. Farzandlar faqat ana shu ulug` siymo oldida ko`proq qarzdordirlar*

Matndagi ajratib ko'rsatilgan yordamchilarning ma'nosiga, shakliga e'tibor qaratiladi, yordamchi so`zlarning mustaqil so`zlarni yoki gaplarni bir-biriga bog`lash, ularning ma'nolariga qo'shimcha ma'no yuklash vazifalari tushuntiriladi.

Shundan keyin o'quvchilar e'tibori quyidagi gaplar yozilgan slaydga qaratiladi: *Qo`ng`iroq chalindi, dars boshlandi ~ Qo`ng`iroq chalindi va durs boshlandi~Qo`ng`iroq chalindi-da, dars boshlandi~Qo`ng`iroq chalindi-yu, dars boshlandi~Qo`ng`iroq chalindi hamda dars boshlandi ~Qo`ng`iroq chalindi, ammo (lekin, biroq) dars boshlanmadi~Ham qo`ng`iroq chalindi, ham dars boshlandi~Qo`ng`iroq chalindi, shuning uchun dars boshlandi~ Qo`ng`iroq chalindiki, dars boshlandi.* Gaplar orasidagi ma'no nozikliklariga ko'ra farqlar o'quvchilardan so`raladi.

O'quvchilar «Kim topqir?» o'yinida slaydlarga joylashtirilgan test savollariga javob topadilar.

Dars so`ngida «**Tinglashni o`rgan!**» o`yin-topshirig`i o`tkaziladi. Bunda o`quvchilarga komputer diktofoniga yozilgan quyidagi matn o`qib eshittiriladi va ularga matn tarkibida qo`llanilgan yordamchi so`zlarni daftarlariга yozib borish topshirig`i beriladiki, bu o`quvchilarda diqqatni tarbiyalashga ko`maklashadi:

Tinglash kishidan sabr-qanoatni, chidam-bardoshni va o`ziga xos odob-axloqni talab etadigan xislatdir: «Bir kuni qadimgi yunon faylasufi Arastuning oldiga juda ham sergap yosh yigit kelib, unga notiqlik san`atini o`rgatishni iltimos qilibdi. U dabdabali so`zlarni izhor etgandan so`ng Arastudan o`qish uchun qancha haq to`lashni so`rabdi.

-Sendan boshqalarga qaraganda ikki barobar ko`proq haq olinadi, - qovog`ini solib javob beribdi faylasuf.

-Nima uchun? -hayron bo`libdi yigit.

-Chunki sen bilan ikki barobar ishlashga to`g`ri keladi: senga so`zlashni o`rgatishdan avval jum turishni o`rgatishim lozim.....

Shuning uchun ham ulug` Kaykovus bobomiz o`ziniig «Qobusnomा» asarida shunday nasihat qiladi: «Ey farzand, toki qila olsang, so`z eshitmakdin qochmagilkim, kishi so`z eshitmak bila suxango`ylik hosil qilur. Avvalo buni shundoq dalillash mumkin: agar bir o`g`lon onadin tug`ilsa, unga arning ostidan bir joy qilib sut berib, ul joyda parvarish qilsalar, onasi va doyasi unga gapirmasalar, u o`g`lon hech kishining so`zin eshitmasa, ulug` bo`lg`onda lol (soqov) bo`lur.

Ko`rmasmusankim, barcha lollar kar bo`urlar...» (Siddiq Mo`min «So`zlashish san`atii» kitobidan)

Har bir o`quvchi topshiriqni mustaqil bajaradi, keyin esa o`z guruhdoshlari bilan tahsil qiladi. Tahsil natijalari guruhnинг bir yoki ikki a`zosi tomonidan o`qib beriladi. Zaruriy o`rinlar o`qituvchi tomonidan izohlanadi.

Ushbu topshiriq bo`yicha g`olib guruh uchun qisqa ritndagi yoqimli musiqa eshittirib boriladi.

Agar bir soatlik dars uchun mo`ljallangan yuqoridagi topshiriqlarni doskada yozish yoki tarqatma materiallar, qog`ozli ko`rgazmalar orqali tashkil etsak, bizga 45 daqiqa kamlik qiladi. Taqdim etganimiz kabi

axborot texnologiyalaridan foydalanish ham vaqtimizni tejaydr, ham dars samaradorligini ta'minlaydi.

Ta'lim vositalari haqida gap borar ekan, zamonaviy ta'lironi kompyutersiz tasavvur etish mumkin emas To'g'ri, hali har bir dars-mashg'ulotni kompyuter ishtirokida o'tkazishimizga anche vaqt bor, lekin yaqin yillarda kompyuter –hamisol elektr chiroqlar-u, televisor-u, sovtugich-u gaz kabilar har bir xonadonda bo'lgan kabi – o'quvchilar qo'lida serob bo'ladi. Ta'lim vositalari taraqqiyoti mana shunga harab borishi kerak. Jumladan, yuqorida sanab o'tilgan qomus va lug'atlarning barchasining elektron variantlari har bir viloyatdagи pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlarida, Respublika ta'lim markazida, uning viloyat bo'linmalarida mavjud. Ijodkor-izlanuvchan o'qituvchi ularni olish va dars jarayonida samarali foydalanish imkoniyatiga ega. Ta'lim vositalari sirasida kompyuter ishtiroki va kelajakda uning yetakchiligi ta'lim usuliga ham katta o'zgartirishlar kiritishni talab etadi, albatta.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Darslik nima? O'qituvchi va ta'lim oluvchining undan doimiy foydalanishi zarurmi?
 2. Darslik topshiriqlarining dars davomida ta'lim oluvchi bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar tizimi (algoritmi)dan farqi nimada?
 3. Ta'lim vositalari deganda darslikdan tashhari yana nimalar nazarda tutiladi?
 4. Ta'lim maqsadi va mazmunining o'zaro mutanosibligi ta'minlashda ta'lim vositalarining roli nimalardan iborat?
 5. Ta'lim vositalarining ta'lim maqsadi bilan aloqadorligini isbotlang.
 6. Hozirgi kunda boshqa o'quv predmetlari qatorida ona tilidan darsliklarning, o'quv topshiriqlarining muntazam yangilanishi boisi nimada?
 7. Hozirgacha ona tili ta'limiga oid to'plangan axborot banklari xususida nimalarni bilasiz?
- Foydalanish uchun adabiyotlar:** [1; 2; 5; 6; 54; 56; 75; 79; 108; 109; 117; 118; 152; 153]

TA'LIM JARAYONI TIZIM SIFATIDA

Reja:

- 1.Ta'lism jarayoni – ustoz~o'quvchi faol munosabati.
- 2.Ta'lism jarayoni tizim sifatida.
3. Ta'lism jarayoni tarkibiy qismlari orasida mutanosiblik.
- 4.Ta'lism jarayoni tarkibiy qismlar orasida nomutanosiblik va uning oqibatlari.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar

Ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi munosabati, bilimdon ijrochi va mustaqil ijodiy tafakkur sohibi. DTS talablari

*O'quv qunt beradi, bilim – sharaf-shon,
Shu ikkov tufayli ulug`dir inson.*

Mahmud Qoshg`ariy

Ta'lism jarayoni – bu mohiyatan ta'lism jarayoni ishtirokchilari – ta'lism oluvchi (o'quvchi, talaba, shogird, izdosh, payrav; tarixan – murid) va ta'lism beruvchi (o'qituvchi, muallim, murabbiy, ustoz: tarixan-pir, murshid)¹ orasidagi ta'lism maqsadi asosidagi faol munosabatidir; ta'lism bilan aloqador barcha munosabatlar, uning barcha qirralari ta'lism ishtirokchilarida – ustoz va o'quvchida kesishadi. Inson barcha ijtimoiy munosabatlarning markazi, kesishish nuqtasi bo`lganidek, ustoz~o'quvchi ham barcha turdagи didaktik munosabatlarning kesishish nuqtasidir. Shuning uchun biz yuqorida ta'lism maqsadi, uning mazmuni, usuli, vositalari, ularning o`zaro aloqadorligi masalalarini ko`rib o`tyotganda har doim o'quvchi~ustoz munosabati masalalari bilan to`qnashdik. Chunonchi, ta'lism maqsadining o`zi, eng avvalo, KIMni, qanday shaxsni yetishtirish masalasini o`rtaga qo'yadi. Bu shaxs kim? U O'QUVCHIdir! Kim uni yetishtiradi, tarbiyalaydi? U esa USTOZdir! Ular o`zaro qanday munosabatda bo`lishi kerak? Biz bu haqda yuqorida (ta'lism usuli bilan bog`liq ravishda) ikki xil yondashish mavjudligini va bu yondashishlarning har biri o`ziga xos shaxsni –

– biri bilimdon, ijrochi, lekin mute, mo'min-qobil, passiv ijrochini,

¹ Biz bu atamalardan asosan, ikkitasidan – o'quvchi va ustoz so zlaridan foydalananamiz.

*-ikkinchisi esa faol, bonyodkor, mustaqil ijodiy tafakkur sohibi
bo`lgan tadbirdorni*

tayyorlashga qaratilganligi haqida suhbatlashgan edik. Haqiqatan ham, o`quvchi~ustoz munosabati ta`lim jarayonining m a r k a z i y muammosi –ham ibtidosi, ham intihosidir. Ta`lim maqsadi, ya`ni jamiyatning tarbiya-ta`lim natijasiga qo`ygan ijtimoiy talabi, birinchi navbatda o`quvchiga qanday yondashish va ustoz qanday bo`lishi kerakligini, kimni yetishtirishni belgilaydi. Undan keyingina o`quvchiga nimani berish (ta`lim mazmuni), qanday berish (ta`lim usuli), nimalar orqali berish (ta`lim vositalari) masalalari turadi. Shuning uchun Prezidentimiz O`zbekistonda ta`limning tub islohoti dasturi bo`lgan tarixiy ma`ruzalarida bu masalaga alohida to`xtalib, jumladan, ustoz haqida shunday degan edilar: "O`qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o`zi ana shunday bilimga ega bo`lishi kerak."¹ Shuningdek, zamonaviy o`quvchiga talab ham bu ma`ruzada "bilimga chanqoq, bilim olishni o`zining oily maqsadi qilib qo`ygan"² sifatida belgilanadi. Prezidentimiz o`quvchi-ustoz munosabatlariga ham alohida to`xtalib: "O`qituvchi va o`quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o`rnini ongli intizom egallashi" lozimligini, "o`qituvchining bosh vazifasi o`quvchida mustaqil fikr yuritish ko`nikmalarini hosil qilishdan iboratligini" ta`kidladilar.³ Shuning uchun zamonaviy ta`limda o`quvchi o`rganishga intiluvchan, bilimga tashna, ehtiyojli, ustoz esa uni bu qiziqish va izlanishlari sari san`atkorona olg`a yo`llovchi, o`quvchining izlab topish baxtidan quvonishi va g`ururi uchun ilhombaxsh tashabbuskor, homiy va yetakchi bo`lmog`i lozim. Shundagina zamonaviy ta`lim o`z maqsadiga yetishgan bo`lishi mumkin. Bunday o`qituvchi va o`quvchini faylasuf shoir G`afur G`ulom mashhur "Yasha, deyman, o`g`lim! " she`rida ota va o`qil timsolida shunday tasvirlagan edi:

—Dada, men osmonga uchar bo`lsam,
Cheki yo`q ko`kni uchar bo`lsam,

¹ Баркамол авлод орзуси – Т. Ўзбекистон миллый энциклопедияси, 2000 13-б

² Баркамол авлод орзуси. – Т. Ўзбекистон миллый энциклопедияси, 2000 – 19-б

³ Баркамол авлод орзуси – Т. Ўзбекистон миллый энциклопедияси, 2000 17-б.

Yulduzdan yulduzga ko`char bo`lsam,
Sen tubanda qolib ne deysan?
– Yasha, deyman, o`g`lim!
– Dada, men tankka otlansam-da,
Istagan o`lkaga yetsam damda,
Esizki hozircha yoshim kam-da,
Ko`zing yo`lda tolib ne deysan?
– Yasha, deyman, o`g`lim!
– Dada, men jo`nadim Arktikaga,
Bitta ortiqcha putyovka sanga,
E'tibor bermay sovuq osmonga,
Sen tumanda qolib ne deysan?
– Yasha, deyman, o`g`lim!
– Dada, men so`rasam qalamingni,
To`ldirsam she'rda ko`p-kamingni,
Yuvolsam xijolat-u g`amingni,
Yozganimni o`qib ne deysan?
– Yasha, deyman, o`g`lim!

Bu she'rda ulug`langan o`quvchining intiluvchanlik, bunyodkorlik, faollik pafosiga So`fi Olloyor tomonidan "ulug`langan" mo`min-qobililik, mutelik, qullik tushkunligi qarama-qarshi turadi. Bu ruhiyatni muallif "Sabotul ojizin" didaktik asarida quyidagicha beradi:

G`ulome oldi Abdullohi Ansor,
Dedi: –Ey qul, otingni ayla izhor.
Dedi: –Ey xoja, sen qo`ysang qayu ot,
Mening otim o`shaldur, ey neku zot.
Dedi: –Ey qul, sevarsan qaysi xo`rok?
Dedi: –Sendin na teksha, behdur, ey pok.
Dedi: –Qaysi kiyim ko`nglingda marg`ub?
Dedi: –San qaysini bersang o`shal xo`b...¹

Bu ikki badiiy asarda tasvirlangan ikki turli shaxs ham o`quvchi ~ ustozi munosabati mahsulidir. Shu o`rinda haqli bir savol tug'iladi:

¹ Сўфи Оллоёр. Сабот ул-ожизини (Нашрга тайёрловчилар: Ҳожи Пўлаткори Мухаммад Али ва б.) – Т. Мекнат – 1991 – 81 – b.

O'quvchidan qanday shaxs yetishib chiqishi faqat o'quvchi~ustoz munosabatiqa bog'liqmi? Mutlaqo bunday emas. O'quvchi ~ ustoz munosabati mohiyatan juda murakkab mexanizm, uskuna bo'lgan ta'lif tizimining, davr didaktikasining bir murvati, bir bo'lagidir, xolos.

Ta'lif jarayoni o'ziga xos tizim bo'lib, uning tarkibiy qismlari sifatida biz yuqorida ko'rib o'tgan ta'lif maqsadi (resp. o'quv predmeti maqsadi), ta'lif mazmuni (o'quv materiali), ta'lif usuli, ta'lif vositalari, shuningdek, o'quvchi~ustoz munosabatilarini o'z ichiga oladi, didaktik qonuniyatlarga bo'ysunadi. Didaktik qonuniyatlar esa o'z navbatida, ijtimoiy qonunlarning bir ko'rinishidir. "Ijtimoriy qonunlar tabiat qonunlari kabi haqqoniy va mutlaqdir. Ular inson ixtiyori va irodasiga bo'ysunmaydi, lekin ularni uqish, taraqqiyot yo'nalishida borib, ulardan amaliy foydalanish, ya'ni qonuniyatlarga bo'ysunish orqaligina ularni inson manfaatlariiga bo'ysundirish, boshqarish insoniyatga ulkan imkoniyatlar bersa, zid harakat, qarshi borish, odatda, katta zararlar, inkor etish esa, tasavvur qilib bo'lmas fojialar keltiradi. Ijtimoiy qonunlarning ham, tabiat qonunlarining ham pirovard natijasi ma'lum turdag'i samaradorlikdir. Chunonchi, ma'lum bir turdag'i hosil olish uchun saralangan urug' tanlab, ishlov berilgach, yerga qadalsa, rivojlanish qonuniyatlariga uyg'un ravishda o'z vaqtida parvarish qilinsa, albatta, ko'p hosil-samara olinadi. Lekin bu jarayonning biror bosqichida tabiiy qonuniyatlardan atigi biri buzilsa, unga rioya qilinmasa, barcha mehnat barbod bo'ladi. Tabiat qonunlariga bo'ysunish hamma uchun tushunarli, lekin ijtimoiy qonunlarga bo'ysunish yoki bo'ysunmaslik oqibatlarini ko'rish ancha murakkab, buning uchun juda ko'p hollarda uzoq yillar kerak..."¹ Haqqoniy va mutlaq tabiatli didaktik qonunlarga ko'ra, davr talablari (ijtimoiy talablari va ijtimoiy taraqqiyotning mutlaq qonunlari bilan uyg'un bo'lgan) ta'lif maqsadi bilan ta'lif mazmuni, usuli va vositalari uyg'un bo'lgan taqdirdagina o'quvchi~ustoz munosabatilari unga uyg'un bo'la oladi va tizim tugallikka ega bo'ladi, o'z maqsadiga erishishi mumkin. Aks holda, chunonchi, o'simlikni yetishtirish davrida

¹ Невматов Х., Ширинова Н. Пурсамар конуну// газ. Бухоронома 2010 81-сон. 20 октябрь.
<http://www.buxoronoma.uz/cgi-bin/main.cgi?lan=u&nom=279&id=3082>

istagan bir bo'g'inda uzilish butun mehnatni zoe ketkizganidek, ta'lif mazmuni yoki usuli va vositalarida, o'quvchi~ustoz munosabatlarda ta'lif maqsadiga nomuvofiqlik butun didaktik jarayonni barbod qilishi muqarrar. Shuning uchun maqsad mustaqil fikrlovchi ijodiy tafakkur sohibini tayyorlash bo'lgach, ta'lif mazmuni (o'quv materiali, o'zlashtirilishi zarur sanalgan bilimlar tizimi) pragmatik ahamiyatli, tatbiqiy, o'quvchi kundalik faoliyatida amalda qo'llay oladigan, ta'lif usuli o'quvchini fikrlash, izlash va topishga undaydigan, ta'lif vositalari darslik bilan cheklanib qolmay, o'quvchini axborot manbalari bilan ishlashga undaydigan, ustoz esa o'quvchining o'ta murakkab kuzatish, izlanish, topish, fikrlash va qo'llash jarayonining mohirona boshqara oladigan bo'lmosg'i shart – didaktik tizimning barcha bo'g' inlari bir-biriga muvofiq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldirib borishi zarur.

Yuqorida bir necha marta takrorlaganimizdek, bu juda murakkab va ancha vaqt-u mehnatni talab qilidigan jarayondir. Xususan, **maqsad~mazmun~usul~ vosita~ustoz~o'quvchi munosabatlari** tizimning 4- va 5-bo'g' inlari – bu birinchi navbatda ko'p ming kishilik o'qituvchilar jamoasining ko'nikmalarini, ish usullarini tubdan yangilash bilan uzviy bog'liqidir. DTSlari, ularning asosida yangi dastur tasdiqlanib, bu dastur asosida yangi darslik tuzilib, amalga joriy etilgach, qiziq bir voqeanning guvohi bo'ldik. Bir necha maktab jamoasidan yangi darsliklarning yaroqsizligi, ulardan amaliy foydalanishning imkoniyati yo'qligi haqida xabarlar olindi. Masalani atroflicha o'rganish maqsadida shunday xabar tashkilotchilaridan bo'lgan bir maktab jamoasi bilan darslik mualliflari, ta'lif boshqarmasi mutasaddilari va metodistlar uchrashuvi o'tkazildi. Bu maktabdan kelgan norozilik xati tajribali, obro'li o'qituvchilar va ota-onalar tomonidan imzolangan edi. Masalani o'rganish shuni ko'rsatdiki, norozilik va janjal 5-sinf "Ona tili" darsligi "Fonetika" bo'limida berilgan mashqni bajarishdan boshlangan. Sinfda o'quvchilar bilan o'tkazilgan suhabatdan ma'lum bo'ldiki, darslikda berilgan topshiriq bilan ustoz (sinfda fan o'qituvchisi) bergen topshiriq bir-biriga muvofiq kelmagan. Darslik kir~qir, kul~qul, bor~bar kabi so'z juftliklarini berib, ularning talaffuzini kuzatish topshirig'ini bergen.

Fan o'qituvchisi o'quvchilarga berilgan so'zlarni qo'llab gap tuzib kelish topshirig'ini bergen. Natijada, kir, qir, kul, qul, bor, bar kabi omonim so'zlarni qo'llab gap tuzishda chalkashlik va anglashilmovchilik yuz bergen, ona-onalarning ham noroziligiga sabab bo'lgan. Sinf fan o'qituvchisining ko'p yillik odatiy ko'nikmalariga tamoman yot bo'lgan, tamoman boshqacha ishlashni talab etadigan darslik norozilik xatiga asos bo'lgan. Darslik topshirig'i bilan sinf o'qituvchisining bergen topshirig'i to'la mos kelishi, albatta, shart emas, lekin ustoz topshirig'i o'ylanmagan, tasodifly ham bo'lmasligi kerak.

Yana bir misol: Yuqorida ta'lim maqsadi va mazmuni orasidagi mutanosiblik ko'pincha o'quv dasturlari va darslik mualliflari tomonidan hisobga olinmayapti deb ta'kidladik. Fikrimizni dalillash uchun e'tiborni umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinflari uchun mo'ljallangan "Ona tili" o'quv darsligi¹ ga qaratamiz. Avvalo ta'kidlash joizki, mazkur darslik mustaqillik sharofati bilan yaratilgan hozirgi kunda umumta'lim maktablarining V-IX sinflari uchun "Ona tili" dan yangi tipdagi – ijodiy tafakkur sohibini yetishtirish maqsadli dastur asosida yaratilgan yangi darsliklarning ikkinchi avlodidan biri bo'lib, undan respublikamizning ko'p ming sonli farzandlari foydalanmoqda. Darslikdagi mavzularning joylashishi, og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar miqdorining anche yuqoriligi, mavzularni mustahkamlash uchun berilgan savol va topshiriqlarning keng qamrovliligi, darslik oxirida test namunalari, qisqacha izohli lug'at berilishi uning qimmatini oshiradi.

Bizga ma'lumki, ta'lim maqsadi bilimdon, barkamol shaxsnı yetishtirishni nazarda tutsa, bunda retroskopik usullar, deduktiv ta'lim yetakchilik qilishi shubhasizdir, chunki ta'lim maqsadi shuni taqozo qiladi. Ta'lim ijodiy tafakkur sohibi, tadbirkor shaxsnı tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, unda bunday maqsadni amalga oshirish uchun muammoli va tadqiqotchilik usullari, induktiv ta'lim yetakchilik qilishi lozim. Ta'lim usuli bilim, shu asosdagи ko'nikma, malakani o'quvchida qanday usul bilan hosil qilish o'qituvchi-

¹ Mahmudov N., Nunnonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo'roboyeva Z. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. - T. Ma'naviyat, 2011.

o'quvchining o'zaro subyekt-subyekt munosabatga kirishishini taqozo qiladi. Shuningdek, ta'lif vositasi hisoblangan o'quv darsligi ham shunga mos bo'lmoq'i zarur, chunki bu ta'lif maqsadi va mazmuni orasidagi mutanosiblikni ta'minlashda asosiy o'rnlardan birida turadi. Bizning kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, 5-sinflari uchun mo'ljallangan "Ona tili" o'quv dasturi zamirida jamiyatga ijodiy tafakkur sohibini yetishtirib berish maqsadi yotadi, biroq shu dastur asosida tuzilgan darslikda esa mavzularning aksariyati retroskopik usullar asosida darsni tashkil etishga mo'ljallangan. Darslikda bir yuz-u to'qsonga yaqin "Eslab qoling", "Bilib oling" tarzidagi qoidalarning berilishi ham fikrimizni dalillaydi. Yoki birligina "Fonetika. Grafika" bo'limining o'zida ellikdan ortiq qoidalarning berilishi ham bola uchun, bizningcha, "tayyor osh" demakdir.

Xalqimizda "Chaynab bergan osh bo'lmas" degan maqol bor. O'zbek pedagogikasi, didaktikasi va psixologiyasida bixeoviristik nazariyaga asoslangan hamda XIX asr oxiri XX asrning boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy talablarga javob beradigan retroskopik-retseptiv usulda bilimdon ijrochini yetishtirishga qaratilgan ta'lif tizimi o'z vazifasini o'tab bo'lganligini, yangi davr – tugal bozor iqtisodi davri tamoman boshqa shaxsga – mustaqil ijodiy tafakkurga qodir tadbirdor shaxsga muhtoj ekanligi masalasi muhokamasi qariyb yigirma yil oldin kun tartibiga qo'yanligini hisobga olsak, endi farzandlarimizga mavzularni "tayyor osh" sifatida berishimiz ta'lif maqsadi va mazmuni orasidagi mutanosiblikning ta'minlanishiga to'sqinlik qiladi.

Bugungi kunda ta'lif maqsadi asosida uning mazmunini muntazam yangilash, uning shaxsga yo'naltirilgan demokratik modelini belgilab berish zaruriyati asosida barcha o'quv predmetlaridan, ayniqsa, "Ona tili"dan axborot banklarining yaratilayotganligi ham, o'quv-biluv jarayoni mazmunida bir qator o'zgarishlarning amalga oshirilayotganligi – o'quv topshiriqlarining muntazam yangilanayotganligi ham quvonarlidir. Bu pedagogik tadbir ta'lif maqsadining ro'yobi bilan bog'liq tarzda amalga oshirilmoqda.

Biz yuqorida misol tariqasida keltirgan darslikni tanqid qilish nuqtayi nazaridan yiroq ekanligimizni ta'kidlagan holda

aytmoqchimizki, respublikamizda yangi maqsadni ko'zlaydigan darsliklarni tuzish va ommalashtirish tajribasi yig'ilmoqda Shuning uchun ona tili o'quv predmetidan ta'limning yangi mazmuni, usuli va vositalarini ona tili ta'limi maqsadiga muvofiqligini har tomonlama tadqiq etish, bu yo'lida tajribalarni umumlashtirish, bugun o'zbek tilini ona tili sifatida o'qitish tajribalar xazinasida bo'lgan A.G'ulomov va M.Asqarov, H.Ne'matov, A.G'ulomov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov va Z.Jo'rabyevelar rahbarligida tuzilib, amaliyotda qo'llanilgan birinchi va ikkinchi avlod, shuningdek, A.Hojiyev, A.Nurmonov, N.Ahmedovlar tomonidan sinov uchun chiqarilgan "Ona tili" darsliklari o'quv materiallarini, ularda mujassamlangan ta'lim usuli, o'qituvchi~o'quvchi munosabatlarini har tomonlama o'rganish, Prezidentimiz aytganlaridek, "borini avaylab asrash va yo'g'ini yaratish yo'li"dan og'ishmay borish uchun darsliklarni sinchiklab tekshirish oldimizda turgan muhim vazifalardandir. "Ona tili" ta'limining zamonaviy, davr talablari bilan uyg'un maqsadi aniqlandi, uni voqelantirishning umumiyo yo'llari belgilab olindi, navbatdagi vazifa ona tilidan muktabda o'tkaziladigan har bir darsni, mustaqil va sinfdan tashqari ishiar tizimini shu maqsadga bo'ysundirish, umumiyo maqsad bilan har bir topshiriq maqsadi orasida, qayta-qayta ta'kidlaganimizdek, dialektik-gnosologik (resp.didaktik) umumiylilik~yakkalik, mohiyat~hodisa, imkoniyat~voqelik, sabab~oqibat munosabatlarini ta'minlashdir. Bunga erishish metodikamiz, ona tili ta'limimiz oldida turgan muhim vazifalardandir.

Muayyan o'quv predmeti mazmunini loyihalashda birinchi navbatda ta'limning umumiyo maqsadi keyin esa o'quv predmeti maqsadlariga asoslanish lozim. O'quv predmeti mazmunini loyihalash uchun ta'limning bosh maqsadi va o'quv jarayonining xususiy maqsadlarini aniq bilish talab etiladi. Aks holda ta'lim maqsadi bilan uning mazmuni orasidagi muvozanat yo'qoladi. Ta'lim maqsadi bilan uning mazmuni orasidagi mutanosiblikni ta'minlash uchun muayyan didaktik qonuniyatlar, jumladan, o'quvchi shaxsini uzlusiz rivojlantirish, uni qo'llab quvvatlash tamoyillariga amal qilish talab etiladi. Bunda, ayniqsa, o'quvchini har tomonlama qo'llab quvvatlashga

erishish muhim ahamiyatga ega bo`lib, ta`lim maqsadi bilan uning mazmuni orasidagi mutanosiblikni ta'minlashda quyidagilarni e'tiborga olish lozim:

1. Bola hayoti davomida foydalanishga zarurat sezadigan, ya`ni amaliy ahamiyatli didaktik ishlanmalarni ta`lim maqsadiga mos tarzda tanlash. Ona tili darslari bu borada juda katta imkoniyatlarga ega. Maktab o`qituvchilarining tajribalari shuni ko`rsatmoqdaki, ona tili darslarining mustaqil uy topshiriqlari sifatida kasb-kor, o`rin-joy, qarindosh-urug` va boshqalar bilan bog`liq so`zlar, ish qurollari, amaliyotlar, mag`sulotlar, shaxs tavsifi bilan bog`liq ravishda berilgan topshiriqlar natijasida o`quvchilar shu kasb-korga qiziqish, mehr qo'yish, uni o`rganish va o`zini hayotga shu kasb-hunar orqali tayyorlash singari amaliy ahamiyatga ega bo`lgan natijani qo`lga kiritish mumkin.

2. Ta`lim mazmuni asosida tanlangan aniq o`quv modellarini belgilab berish. Shu maqsadda darslik zaruriy o`quv materialini to`liq bermasligi, balki undan faqat namunalar berib, uni to`ldirishni, kengaytirishni o`quvchining mustaqil izlanish faoliyatiga qoldirishi muhimdir. Ona tili imkoniyatlarini o`zida mujassamlashtirgan hamda o`quvchilar ona tili darslarida amaliy foydalanishlari uchun zarur axborot banklari – turli maqsadlarni ko`zlab tuzilgan lug`atlar, ma'lumotnoma-qomus –ularning elektron variantlari, komputer dasturlari yo`qligi aniqlandi hamda shunday xazinani yaratish ishlariga kirishildi. Chunki bunday vositalarsiz ongli(kognitiv)-induktiv-pragmatik ta`lim usuli ko`zlagan samarasini bera olmaydi. Bu ta`lim usulining bosh omili - o`quvchining darslikda berilgan o`quv materiali bilan mutlaqo chegaralanmasligi, darslik topshiriqlari asosida axborot bankidan material topib uning ustida mustaqil izlanishidir. Shuning uchun bu usulda yozilgan mакtab darsliklari odatda hajman k i ch i k bo`ladi; ular o`quv materialini to`liq bermaydi, uni topish, uning ustida ishslash mas'uliyatini o`qituvchi rabarligida o`quvchining o`ziga yuklaydi.

Ta`lim maqsadi aniq belgilanib olingandan keyin ta`lim mazmuning, usul-u vositalarini ularga muvosiqlashtirish,

o'quvchilarning ham, o'qituvchilarning ham ta'limga tamomani yangicha munosabatda bo'lishlarini shakllantirish bugunning dolzarb masalasidir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Ta'limga maqsadi jamiyat keljagini belgilay oladimi?
2. "Ta'limga bilan aloqador barcha munosabatlar, uning barcha qirralari ta'limga ishtirokchilarida – ustoz va o'quvchida kesishadi" degan fikmi izohlang.
3. Zamonaviy ta'limga deganda nimalar nazarda tutiladi?
4. Ta'limga maqsadi va mazmunning o'zaro mutanosibligi ta'minlashda DTSning roli nimalardan iborat?
5. O'quvchidan qanday shaxs yetishib chiqishi faqat o'quvchi~ustoz munosabatiga bog'liqmi?
6. Tarixiy taraqqiyotda *maqsad ~mazmun~ usul~ vosita~ ustoz~ o'quvchi munosabatlari* tizimining muntazam yangilanishi boisi nimada?
7. O'qituvchi-o'quvchining o'zaro subyekt-subyekt munosabatga kirishishi xususida nimalarni izohlay olasiz?

Foydalananish uchun adabiyotlar: [1; 2; 3; 4; 5; 6; 17; 31; 32; 33; 42; 45; 46; 47; 70; 71; 82; 113]

2- BO`LIM

ONA (O`ZBEK) TILI TA`LIMI MAQSADINING TARAQQIYOTI

Mavzu tahlilini boshiashdan avval biz didaktikada juda ko`p hollarda aralashtiriladigan ikki tushuncha ustida to`xtalishimiz va ularga aniqlik kiritishimiz zarur. Bular ona tili va ta`lim tili tushunchalaridir. Sovet didaktikasida bu ikki tushuncha aralashtirilar, ta`lim tili ona tili bilan tenglashtirilar va 1924- 1991-yillarda rusiyabon maktablarda ta`lim olgan o`zbek farzandlariga “ona tilingiz – rus tili” deb uqtirilar edi¹. Shuning uchun hozir **ta`lim tili, ona tilida ta`lim, ona tili ta`limi** tushunchalari sharhi ustida to`xtalamiz.

TA`LIM TILI VA ONA TILI TA`LIMI TUSHUNCHALARI HAQIDA

Reja:

1. Ta`limni ona tilida olib borish masalasi.
2. Ta`lim ona tilida olib borilgan sharoitda ona tilini o`qitish maqsadi.
3. O`zbek maktablarida ona tili o`qitilishi tarixi.
4. Ona tilining o`quv predmeti **sifatida matabda** (ta`lim o`choqlarida) o`qitilishi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar

Ta`lim tili, ta`limni ona tilida olib borish, ta`lim ona tilida olib borilgan sharoitda ona tilini o`qitish maqsadi, ona tilining o`quv predmeti sifatida matabda (ta`lim o`choqlarida) o`qitilishi

Ta`lim maqsadi jamiyat ehtiyoji, **jamiyat** talablari **oldiga qo`yilg** maqsad, o`z taraqqiyoti va yashash **tarzi** uchun qanday shax yetishtirishni loyihalashtirish bilan **uzvviy bog`liq ravishda**, ya ijtimoiy buyurtma asosida belgilanishini **ishning oldingi bobida** ko`tdik. Jamiyat hamisha taraqqiyot va o`zgarishda bo`lib, uning xil xil rivojlanish xususiyatlari ta`lim **oldiga** turli maqsadlarni qo`y

¹ Aholini ro`yxatdan o`tkazishning sovet davrida o`tkazilgan oxiri amaliyoti (1980-yillar)da o`mansubligini o`zbek deb sanagan ko`p kishi ona tili rus tili deb korsaganligi statistikadan ma`lum

maqsadlar esa voqelanishi uchun har xil usul va vositalarni talab qiladi. Shu bois o'zbek tilining bugungi ta'limi maqsadini to'la anglash, uni talab qiladigan usul va vositalari bilan ta'minlash uchun ta'lismi maqsadi tarixi bilan qisqacha bo'lsa-da, tanishib o'tishimiz zarur. Bunday ekskursning zarurligi, jumladan, quyidagi omillar bilan belgianadi:

birinchidan, bugunimizni anglash, kelajagimizni belgilash tariximizni mehr va unga samimiy hurmat-ehtirom bilan tanqidiy o'rghanishimizni, uni bilishimizni, tarixiy saboqdan to'g'ri xulosalar chiqarib, bugun va istiqboliy dolzarb muammolarni kun tartibiga qo'yishimiz hamda hal etishimizni talab qiladi;

ikkinchidan, o'zbek tili ta'limi maqsadi tarixi pedagogikamiz, didaktikamiz va ona tilini o'qitish metodikasi tarixida umuman o'rganilmagan bo'lib, bu yo'nalishda Y. Abdullayevning XIX asr oxiri XX asr boshlariда eski mакtabda xat-savod o'rgatish masalalariga bag'ishlangan tadqiqoti¹ va monografiyasidan boshqa ommalashgan jiddiy ilmiy tadqiqot yo'q desak xato qilmaymiz. Bu, shubhasizki, tarixga xiyonat ko'zi bilan qaragan, o'z tarixini qoralashni "eskini tubdan buzib tamoman yangini buniyod qilish"ni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan kommunistik mafkuraning o'zbek xalqini uning o'z tarixiy ildizlaridan uzish siyosati natijasi edi.² O'zbek tili ta'limi maqsadi tarixinining o'rganilmaganligi, jumladan, "oktabr revolyutsiyasiga qadar vatanimiz ta'lim o'choqlarida tibbiy bilim, aniq o'quv predmetlar, ona tili va adabiyot o'qitilmas edi" degan o'ydirma fikrni zo'r berib ommalashtirish³ bilan bog'liqdır. Vaholanki, keksa pedagog va metodistimiz Y. Abdullayev ta'kidlaganidek: "O'zbek maktablarida ona tili o'qitilishi tarixi bilan tanishsak, hozirgi yutuqlarimizning nihoyatda buyuk ekanligini anglab olish osonlashadi, ona tili darslarida qo'llanilayotgan bir qancha usullarning tarixiy ildizlari bizga ayon bo'ladi, ona tili darslarida qaysi masalalarga ko'proq e'tibor berish

¹ Абдуллаев Й. Эски узбек мактабларида (1865-1917 йиллар) салод чикаринш — Пед. файлари номз. дисс афтореф. - Т. 1961 - 216

² Абдуллаев Й. Эски мактабда хат-савод ўргатиш - Т. Ўрта ва олчи мактаб. 1960 - 152 б

³ Узбек педагогологияси 1 жилд - Т. Ўқитувчи. 1995 10-б

⁴ O'sha asar 9-b

zarurligini aniqlab olishga yordam beradi".¹ O'zbek tili ta'limi maqsadi tarixini o'rghanish ma'naviyatimiz va tariximizga yangicha munosabatda bo'lish davrida dolzarb masalalardan biridir: o'zbek tilini ona tili sifatidagi ta'limining bugungi maqsadini uqish va anglash uning tarixini bilishni talab etadi. Shuning uchun ona tili ta'limi maqsadi va uning voqelanishi masalasiga bag'ishlangan izlanishlarimizning bu bobi ona (o'zbek) tili tarixidagi tarixiy-taraqqiy tadrijiylik masalasiga bag'ishlanadi.

Ta'limimiz tarixining mukammal va mufassal o'rganilmaganligi, albatta, ona tili ta'limi maqsadi tarixini – turli davrlarda ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan vazifalarni – taddiq qilishda ma'lum qiyinchiliklar tug'dirishi shubhasizdir. Ma'lumki, ta'lim maqsadi ta'lim vositalarida voqelanadi. Bu vositalardan eng asosiysi esa kitoblar – darslik va qo'llanmalar, didaktik adabiyot namunalaridir. O'zbek xalqi esa bu yo'nalihsda ming yildan ortiq uzlusiz yozma an'anaga ega. O'quv (didaktik) adabiyot namunalari asosida biz shu adabiyot yaratilgan davrda ona tili ta'limi oldida turgan maqsad va vazifalarni aniqlay olamiz. Yozma yodgorliklarimiz uzlusiz tarixga ega bo'lganligi sababli biz bu masalalar tarixning turli bosqichlarida qanday qo'yilganligini aniqlashimiz mumkin. Bundan tashqari didaktik va badiiy adabiyotlarda onda-sonda o'sha davr maktabi tavsifi uchraydi, bu tavsiflar ham ko'zlagan maqsadimizga erishishga katta yordam beradi. Mazkur masalada shuni nazarda tutish kerakki, bundan bir necha yuz yil oldingi, bizning nazarimizdan uzoq davr va sharoitlarga biz ona (o'zbek) tili ta'limi maqsadi va uning voqelanishi tushunchasi hamda hodisasiga bu tushunishning hozirgi tushunilishi asosida yondasha olmaymiz. Bunday yondashish g'ayriimiy va tarixga xilof bo'lardi. Ona tili ta'limi maqsadi va uning voqelanish usul hamda vositalari – mutlaq va muhim didaktik invariant.² U ta'lim mavjud ekan, millat (elat) bor ekan, uning tili mavjud ekan ona tili o'qitiladimi, o'qitilmaydimi, qat'iy nazar, bu

¹ Абдулласев Й. Эски ўзбек мактабларида (1865-1917 йиллар) савод чикариш. – Пед. фанлари номз... дисс афтореф. – Т.: 1961. – 3-б

² Qarang: Бабанский Ю.К., Поташник М.М. Оптимизация педагогического процесса (в вопросах и ответах). – Киев: Радянська школа, 1984. – 288 стр.

tushuncha va didaktik muammo mavjud bo`ladi. Biroq har bir davrda, har bir ijtimoiy taraqqiyot bosqichida bu muammo o`z davri va sharoitiga xos hamda mos ravishda maydonga chiqadi, o`z yechimini berishni talab qiladi. Albatta, hozirgi mezon va tamal toshlari bilan tarixga yondashib bo`lmaydi – tarixiy hodisa tarixiy sharoit bilan bog`liq ravishda o`rganilishi va baholanishi lozim. Xuddi shunday "o`tgan davrlarda (IX-XII asrlarda) o`zbek tilini ona tili sifatida ta'limi maqsadi va uning voqelanishi" masalasiga ham IX-XII asrdagi tarixiy sharoitni hisobga olgan holda yondashish lozim. Bu masala tadqiqi uchun, nazarmizda, ikki o`zaro aloqador tushunchani farqlash lozim. Chunki *ona tilining o`quv predmeti sifatida maktabda (ta'lim o`choqlarida) o`qitilishi* bilan *ta'limni ona tilida olib borish* masalasi ayni bir muammo emas. Bu, o`z navbatida, ta'lim tili tushunchasini izohlashni talab qiladi.

Ta'lim tili deganda ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya olib boriladigan, o`quv-didaktik adabiyotlar yozilgan til tushuniladi. Ta'lim ona tilida olib borilsa, ta'lim tili va ona tili tushunchalari mazmun-mohiyati bir-biriga mos keladi, lekin ta'lim ona tilidan boshqa tilda olib borilsa, ta'lim tili va ona tili bir-biriga mos kelmaydi. Sovet didakatikasining, uning ziddimilliy siyosatining asosiy kamchiliklaridan biri shunda edi –ona tili ta'lim tili bilan tenglashtirilar edi¹. Ta'lim ona tilidan boshqa tilda olib borilganda, ta'limgohda ona tili o`qitilishi ham, o`qitilmasligi ham mumkin – u davr bilan, siyosat va boshqa shu kabi kreteriyalar bilan ijtimoiy (juda ko`p hollarda ta'lim bilan aloqador bo`Imagan) shart-sharoitlar bilan bog`liq. Lekin ta'lim ona tilida olib borilganda ona tili alohida o`quv predmeti sifatida ajratiladimi, ajratilmaydimi –ona tili o`qitiladi – ta'lim shu tilda olib boriladi.

Ta'limni ona tilida olib borish deganda maktabda (ta'lim o`choqlarida) o`rganiladigan o`quv predmetlarini, beriladigan ta'lim, tarbiya, bilim, hosil qilinadigan malaka va ko`nikmalarni ona tili vositasida amalga oshirish tushuniladi. Maktabda **ona tilini o`quv**

¹ Sovet umumiyy ta'lim muassasalarini beradigan bitiruv hujjalari – shahodatnomalar va yetuklik attestatlarida – Ona tili va adabiyoti / Родной языка и литература банди борди. Bu bandda til ko`rsatilmas - ёнгичга то`дитилган til – ta'lim tili bilan aynan edi. Bunday hujjalar ta'lim milliy tillarda olib borilganda ikki tilda (avval milliy, so ngra rus tilida), ta'lim rus tilida olib borilganda bir – faqat rus tilida to`ldirilari edi.

predmeti sifatida o`qitish deganda, ona tilini alohida o`quv predmeti sifatida o`rganish tushuniladi. Ta`lim ona tilida amalga oshirilganda, ona tili maxsus o`quv predmeti sifatida ajratib o`qitilmasa-da, ona tili o`qitilmaydi, degan xulosaga kelish mutlaqo noto`g`ri. Chunki ta`lim ona tilida olib borilganda ta`lim oluvchilarga shak-shubhasiz *yozuv, imlo, talaffuz, qiroat* o`rgatiladi. Bularning barchasi ona tili ta`limining tarkibiy qismlaridir. Shuning uchun ta`lim tili ona tili bo`lganda, ona tili maxsus o`quv predmeti sifatida ajratiladimi, yo`qmi, qat`iy nazar, biz ta`lim o`choqlarida ona tili o`qitiladi, deb baholashimiz lozim.

Azal-azaldan hozirgacha məktab ta`limida ma'lum bir mafkuraviy yo`nalish axloq-odob masalalari muhim o`rin tutadi. Natijada, ta`lim ona tilida amalga oshirilganda, har bir mashg`ulotda ta`lim oluvchilar o`z ona tilining lug`aviy boyliklari, ifoda vositalari, tasviriy imkoniyatlari bilan tanishib ularni muttasil oshirib boradi, ya`ni ona tilidan ta`lim oladi, ona tilida yosh xususiyatlarga mos ravishda yaratilgan badiiy tarbiyaviy-mafkuraviy, axloqiy-adabiy, badiiy va, hatto, ilmiy adabiyotlarning eng sara hamda ommaviy ko`rinishlari bilan tanishadi, ona tilidan foydalanish imkoniyatlarini muttasil kengaytirib boradi. Ta`lim ona tiliga asoslanganda, ona tili ta`limi oldiga alohida maxsus maqsad qo`yilmaydi (chunki alohida o`quv predmeti sifatida o`qitilmaydi), lekin butun ta`limning maqsadi ta`lim oluvchining ona tilida fikrashi va o`z fikrini ona tilida bayon etish ko`nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan bo`ladi. Mana shu maqsad o`z-o`zidan ona tilini o`quv predmeti sifatida o`qitilmasligini to`la-to`kis qoplaydi. Ta`lim ona tilida olib boriladigan bilimgohda bu predmet alohida o`qitilsa, uning oldida o`ziga xos muayyan maqsad qo`yiladi.

Ta`lim ona tilida olib borilganda "ona tili ta`limi" bilan "ona tilida ta`lim" tushunchalari nafaqt o`zaro kesishadi, balki bir-biriga singadi. Shunday bo`lsa ham, ikki masala : a) **ta`lim ona tilida olib borilganda ona tili ta`limi maqsadi** va

b) **ta`lim ona tilida olib borilgan sharoitda ona tilini maxsus o`qitish maqsadini** farqlash zarur.

Dastlab ona (o'zbek) tilida ta'lif tarixi, bu sharoitda o'zbek tili ta'limi maqsadi ustida va uning taraqqiyot davrlari ustida to'xtalamiz. Zeroki, sovet tuzumi va komunistik mafkura hukmronligi davrida zo'r lab singdirilgan "Oktabr revolyutsiyasiga qadár maktablarda o'zbek tili o'qitilmas edi" degan o'ydirma fikr ta'siri hali-hali batamom yo'qolgan emas. Ona (o'zbek) tilida ta'lif va unda ona tili ta'limi masalasini biz o'zbek xalqining tarixiy taraqqiyot bosqichlari bilan uzviy bog'liqlikda:

- qadimgi (V-IX) davrlarda ona (o'zbek) tilida ta'lif maqsadi;
- o'rta (X - XIX) asrlarda ona (o'zbek) tilida ta'lif maqsadi;
- jadidlarning ona tili ta'limi uchun kurashlari;
- sovet davrida ona (o'zbek) tili ta'limi maqsadi,
- mustaqillik davri ona (o'zbek) tili ta'limi maqsadi
- kabi besh davrga ajratib o'rganamiz va tahsil qilamiz.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Ta'lif tili deganda nima nazarda tutiladi?
2. "Ona tili ta'limi" bilan "ona tilida ta'lif" tushunchalari aynan bir narsa emas, ammo ular o'zaro kesishadi" degan fikr mohiyatini izohlang.
3. Sizningcha, ona tilida ta'lif masalasi qaysi davrlardan boshlangan?
4. "Ona tili ta'limi" bilan "ona tilida ta'lif" muammolarini o'rganish kelajak uchun nima beradi?
5. "Eskini tubdan buzib tamoran yangini bunyod qilish" rejasi asosida qaysi mafkura ish ko'rdi va nega?
6. Ona tilining o'quv predmeti sifatida maktabda (ta'lif o'choqlarida) o'qitilishi qachondan va qanday tarixiy sharoitdan boshlandi?
7. "Ona tili ta'limi maqsadi va uning voqe'anish usul hamda vositalari –mutlaq va muhim didaktik invariant". Ushbu fikr mazmunini misollar asosida izohlang.
8. Ona tili ta'limi davlat siyosati darajasida ekanligining boisi nimada?

9. Ona (o'zbek) tilida ta'lif va unda ona tili ta'limi masalasini o'zbek xalqining tarixiy taraqqiyot bosqichlari bilan uzviy bog'liqlikda qanday davrlarga ajratib o'rghanish mumkin?

Foydalanish uchun adabiyotlar: |1; 5; 6; 8; 9; 10; 11; 12; 228|

QADIMGI (V-IX) DAVRLARDA ONA (O'ZBEK) TILIDA TA'LIM MAQSADI

Reja:

1. V-IX asrlarda turkona ta'lif va uning maqsadiga oid bilvosita ma'lumotlar.
2. Turkiy tilda ta'lif, turkiy tilni o'qitish ishlari katta tarixga ega.
3. Qadimgi turkiy yozuvlar davrida (eramizning V-X asrlarida) turkiy til ta'lif o'choqlarida o'qitilgan.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar

V-IX asrlarda turkona ta'lif va uning maqsadi, turk-runik yodgorliklari, 500 yil amalda bo'lgan runiy yozuv

IX-XIX asrlarda, asosan, turkiy, turkcha, qator manbalarda hoqoniy, qoshg'ariy, chig'atoiy kabi o'ndan ortiq nomlar bilan atalib kelingan ona tilimizning o'qitilishi to'g'risida bevosita ma'lumot beruvchi manbalar bo'lmasa-da, bu tilning ta'lif-tarbiya tizimida muhim tarkibiy qismi bo'lib kelganligi, demak, ta'lif o'choqlarida o'qitilganligi haqida bilvosita ma'lumot beradigan vositalar juda ko'p. Ulardan eng qadimiylari, shubhasiz, ilk turkiy yozma yodgorliklardir.

Ma'lumki, ilk namunalari VI asrga, kattagina qismi esa VIII asrga mansub bo'lgan turk-runik (O'rxun Yenisey) yodgorliklari shunday bir turkiy yozuvda yozilganki, bu yozuvni olimlar XIX asrning oxirigacha mutlaqo bilmas edilar. Bu yozuvlar siri 1893-yilda daniyalik tilshunos olim V.Tomsen tomonidan ochildi.² Umuman, runiy yozuvdagি

¹ Qarang: Абдуллаев Ф.А. XV asr adabiy tilinining dialektal asoslarini // Навоий ва алабий таъсир масалалари – Т.: 1968. – 5-б.; Абдурахмонов Ф. Ўзбек халки ва тилининг шаклланиши ҳақида – Т.: ТДШИ, 1999. – 89 б.; Ахмедов Б. Ўзбек улуси. – Т.: Нури, 1992. – 44 б.

² Абдурахмонов Н. Кадимги туркий тил. – Т.: Ўқитуучи, 1989. – 161 б.; Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Кадимги туркий тил. – Т.: Ўқитуучи, 1982. – 168 б.; Малов С.Е. К истории открытия древнестурецких рунических надписей в Средней Азии // «Материалы Узкомисгариша». – Ленинград: 1936. – № 6-7.; Малов С.Е. Памятники древнесторкской письменности. – М.-Л. 1951. – 188 стр.

yodgorliklar katta territoriyaga tarqalgan bo`lib, ular ulug` hoqonlar va ularning qarindoshlari qabri ustiga qo`yilgan toshlar, tosh-tayoqchalar va qoyalarda saqlangan. Bu yozuv yodgorliklari, tekshiruvchilar ning fikricha, qadimgilari eramizning V asriga mansub bo`lsa, keyingilari eramizning IX-X asrlariga oiddir. Demak, runiy yozuv qariyb 500 yil amalda bo`lgan. Bu esa bizni sof turkiy yozuv, turkiy til ta`lim o`choqlarida o`qitilgan, o`rgatilgan degan xulosaga olib keladi.

Bitiktoshlarning keng xalq ommasi bernalol ko`ra oladigan ochiq joylarga qo`yilishi savodlilik qator mamlakatlarda bo`lgani kabi sanoqli kohinlar-u din o`choqlari bilan chegaralanmaganligidan dalolat beradi. Yevropadagi qadimgi yodgorliklar monastir-u qadimgi grek butxonalarida mujassamlangan bo`lsa, turkiy yodgorliklar yuz minglab turkiylar o`tadigan katta chorrashalarda, sahrolarda o`rnatilgan. Qadimgi turkiy yodgorliklarning V.Tomsen, V.V.Radlov, P.M.Melioranskiy, S.E.Malov, X.N.Orhun, G.Ramstedt, A.Kononov kabi tadqiqotchilar yodgorliklarda xalqqa murojaat qilingan quyidagi so`zlarni alohida ajratadilar: "Turk beklari, xalqi, buni eshitin! Turk xalqini to`plab davlat tutishni bu yerda [toshga o`yib] yozdim Adashib ayrilganining ham bu yerda yozdim. qanday nima so`zim bo`lsa, mangu toshga o`ydim. Unga qarab biling, Turkning endigi xalqi, beklari. Uy, dunyoga[gina] qaraydigan (ko`ziga faqat mol-mulk-i ko`rinadigan) beklar sizlar gumrohsizlar.

Men mangu tosh ... Tabg`ach hoqonidan naqqosh keltirdim, naqshla(t)dim. Mening nutqimni buzmadni. Shunday sayrgoh yerda mangu tosh o`rnatdim, [bitig] bitidim. Uni ko`rib shunday deb biling: bu bitig bitilguchining birodari Yo`llug` tegin"¹.

Turk yodgorliklari sayroghlarda, odamlar gavjum joylarda qo`yilgan. Demak, yodgorliklardagi yozuvlarni xalq o`qigan, yozuvlarni o`qiy olgan xalq savodli bo`lgan. Xalqning savodli bo`lishi uchuh ularni ham o`qitganlar. O`sha davrdagi maktab qanday bo`lgan, o`qitish qay yo`sinda bo`lgan, bu bizga ma`lum emas. Biroq turkiy maktablar bo`lganligi, ta`lim o`choqlarida o`qitish turkona ekanligi, uning boshqa

¹ Абдурахмонов Г., Рустамов А. Кадимги туркий тил - Т. Ўқитувчи. 1982. 90-б

xalqlarning ta'lif tizimidan farq qilishi ham runiy yodgorliklarda o'z aksini topgan. Bu "Kul tigin" yodgorligidagi "... oltin, kumush, ichkilik, ipakni shuncha hisobsiz berayotgan Tabg`ach xalqi so'zi shirin, debosi (ipak kiyimlik va kiyim) nafis ekan. Shirin so'zi, debosi bilan aldab yiroq xalqni shu xilda yaqinlashtirar ekan. Yaqin qo'shni bo`lgandan so'ng *yovuz ilmni* u yerda o'rghanar ekan"¹ degan so'zlardan anglashiladiki, turkona bo`Imagan bilim *yovuz bilim* deb baholangan. Demak, ezgu deb sanaladigan *t u r k o n a b i l i m* ham bo`lgan. Buni Tunyuquq (Xitoyda tarbiyalangani uchun xitoycha YuAN'CHJEN' nomi bilan mashhur²) yodgorligi ham tasdiqlaydi. Bu yodgorlikdagi: "Bilga Tunyuquq men o'zim. Tabg`ach davlatida tarbiyalandim"³ (Tabg`ach - shimoliy Xitoy (Mochin)⁴) degan gap turkiy ta'lif-tarbiya tizimi boshqalardan, jumladan, mochinliklardan farq qilganligini ko`rsatib turadi. Bundan biz xulosa qila olamizki, qadimgi turkiy yodgorliklar davrida – V-IX asrlarda turkiy yozuv bo`lgan, bu yodgorliklarni xalq *o'qiy oliga n*, ya'ni xalq *o'q itilga n*. Turkiy yozuv, turkiy til, turkiy tarbiya tizimi o'zga xalqlarnikidan farqli, ya'ni turkona bo`lgan. Bundan tashqari ismi-sharifi yuqorida zikr etib o'tilgan qadimga turkiy yodgorliklarning tadqiqotchilari bu yodgorliklar bizga yetib kelguncha uzoq tarixiy taraqqiyot boshqichini bosib o'tgan degan fikrni ilgari suradilar. Jumladan, O'zbekistonda xizmat ko`rsatgan fan arbobi akademik A.N. Kononov shunday yozadi: "O'zining morfologiyasi va sintaksi yuksak darajada rivojanganligi bilan qadimgi turkiy yodgorliklarning tili bizga yetib kelguncha uzoq adabiy an'anaga ega bo`lganligidan dalolat beradi"⁵. Demak, turkiy tilda ta'lif, turkiy tilni o'qitish ishlari katta tarixga ega.

XI asrning buyuk turkiyshunosi Mahmud Qoshg`ariy IX-XI asrlarda turkiy yozuv nomi bilan mashhur bo`lgan qadimgi uyg'ur yozuvini sharhlab bo`lgach, turkiy xalqlarning yozuvlari haqida yana quyidagi fikrni ilova qiladi: "Uyg'urlarning ham, chinliklarning ham yana boshqa bir yozuvi bor. Kitoblarni, idora ishlarini u xat bilan

¹ Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Кадимги туркй тил. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – 89-90-б.

² Кляшторный С.Г. Древнетюркские runические памятники. М.: Наука, 1964. – 213 стр.

³ Қаранг: Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Кадимги туркй тил. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – 71-б.

⁴ Бартольд В. Сочинения IV.– М.: ИВЛ, 1966.

⁵ Кононов А. Н. Грамматика языка тюркских runических памятников <VII – IX вв.> – Л.: Наука, 1980. – 3-б.

yuritadilar. Chinliklar va musulmon bo`Imaganlardan boshqalar u xatni o`qiy olmaydilar¹. Bu kabi so`zlar X va undan oldingi asrlarda turkiyzabon maktablar bo`lganligini, ularda turkiy til o`qitilganligini ochiq-oydin isbotlaydi va hech qanday shubhaga o`rin qoldirmaydi. Yuqorida keltirilgan asoslar qizil mafkuraning bitta uydirmasi va o`zbek xalqiga tahamoqchi bo`lgan xunuk tamg`asi-o`zbek tili ta`lim o`choqlarida tom ma`noda faqat oktabr to`ntarishidan keyin amalga oshdi, degan noto`g`ri aqidasi tuhmat va yolg`on ekanligini ochiq-oydin isbotlaydi.

X asrdan oldingi va keyingi davrlarda ham turkiy til amalda bo`lganligi, o`qitilganligi haqida bilvosita ma'lumotlar yetarli miqdordadir.

VII-VIII asrlarda Markaziy Osiyo davlatlarining islom diniga o`tishi boshlandi. Kattagina mintaqada, xususan, zardushtiylik (otashparastlik) mafkurasi hukmron bo`lgan yerlarda islomning o`rnashishi qiyin kechdi², lekin muarixlarning, xususan, buyuk tarixchi va islomshunos V.V.Bartoldning fikriga ko`ra, turkiy xalqlar islomni zudlik bilan qabul qildilar³, chunki o`sha davrda butun turkiyzabon o`lkada ma'lum bir yagona g`oyaviy e'tiqod tarkib topib ulgurmagan edi. Turkiy xalqlar ichida xilma-xil e'tiqodlar (zardushtiylik, buddaviylik, moniylik, konfutsiylik va b.) tarqalgan edi. Turkiylarning birdan islom atrofida birlashishi esa ularning harbiy, ijtimoiy va iqtisodiy birlashishiga keng imkoniyat berardi. Shuning uchun V.V.Bartold ham Markaziy Osiy davlatlarida islom dinining mustahkamlanishida "arab va eroni y xalqlardan ko`ra turkiy xalqlarning qis'sasi salmoqliroq"⁴ degan fikrni ilgari suradi. Islomiy mafkura, ta`lim va tarbiya tizimi turkiy xalqlar tomonidan osonlikcha qabul qilindi. qishloq va shaharlarda musulmonlar masjidlar qurdirib, u yerda farzandlari uchun diniy mакtablar tashkil qildilar, musulmon qizlari islomiyat taomiliga ko`ra otinoyilar tomonidan uylarida o`qitildi. Bu

¹ Кошгариј Маммуд Левону нутраттүрк З юмлик Т.И (Таржимон ва нашрға тайерловчи С. Муталлибов) – Т. Ўзбекистон ФА, 1959 – 65-б.

² Наршакий Бухоро тарихи (Форс тилидан А.Расулов таржимаси) – Т. Камалак, 1991 . Хошимов К. Нишонова С., Инномова М., Ҳасанов Р. Педагогика тарихи – Т. Ўқитувчи, 1996 – 450 б.

³ Бартольд В.В. Сочинения V. Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов – М. ИВЛ, 1966 – 760 стр

⁴ Бартольд В.В. Сочинения VI. Работы по истории ислама и арабского халифата – М. ИВЛ, 1968 – 784 стр.

davrga kelib ta'limning bosh maqsadi islom dinini keng yoyishdan iborat bo'ldi. Tabiiyki, turkiyzabon bolalarga ta'lim o'z ona tillarida berilishi zarur edi. Bu davrga (VIII-IX asrlarga) oid turkiyzabon ilk islomiy yodgorliklar bizga hozircha ma'lum emas va biz o'sha davr ta'lim vositalari (darslik va qo'llanmalar) haqida tasavvurga ega emasmiz. Lekin qoraxoniylar davlatida (IX-XII asrlarda) davlat (saroy) tili turkiy bo`lganligi, uning adabiy mavqeyiga ega ekanligi (ta'lim o'choqlarida o'qitilishi va me'yirlarning singdirilishi) haqida turkiyshunos – qomusiy olim M.Qoshg'ariy aniq ma'lumotlar beradi¹. Mahmud Qoshg'ariy ma'lumotlarini "Qutadg'u bilig" matni bilan qiyoslash esa, M. Qoshg'ariy tasvirlagan hoqoniy (qoraxoniy) turkiy bilan bu asar matni bir xil me'yorda yozilganligini ko`rsatadi².

Bularning barchasi o'sha davrda adabiy til *o'qitilganligi* haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Markaziy Osiyoda qadimiy ilmiy an'ana, o'z davri ilg'or mamlakatlarni o'zida birlashtirgan islomiy madaniyat rivojlangan edi. O'lkamiz jahonga nomi ketgan Imom al-Buxoriy, imom Hafzi Kabir, Muso Termiziyy, Iso Termiziyy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Farqoniy, Abu Mansur Motrudiy kabi o'nlab siymolarni berdi. Tabiiyki, rivojlangan maktab tizimisiz bu yutuqlarga erishib bo'lmas edi.

Turkiy til maktablarda o'qitilganmi? Biz bu savolga hech qayerdan aniq javob ololmaymiz, biroq Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida bu asarni maktablarda o'qitish haqida gap boradi³. Demak, "Qutadg'u bilig"day asarlar mакtabda o'qitsa, turkiy tildagi ta'lim ham yo`lga qo'yilgan degan xulosa chiqarish mumkin. Ma'lumki, o'sha davrda (IX-XI asrlarda) arab tili turkiy tilni siqib chiqara boshlaganligi, ayniqsa, ilmiy adabiyotlarda sezila boshlanadi. Ilm olami uchun bu tabiiy hol edi. Chunki olimlar hamma davrlarda ham o'z asarlarini millatparvarlik nuqtayi nazaridan emas, haq va taraqqiyatparvarlik nuqtayi nazaridan turib yozadilar hamda o'z asarlarini keng

¹ Кононов А. Н. М. Кошгарий ва унинг «Девону лугатит турк» асари // Узбек тили ва адабиёти – 1972 – №1-2 . Кононов А. Н., Нигматов Х. Г. Кашигарский о тюркских языков. Сборник История лингвистических учений средневекового востока. – Л.: Наука, 1981. – 210 стр.; Фозилов Э. И. Шаркнинг машҳур филологлари – Т. Фан, 1971. – 80 б.

² Нигматов Х. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв – Т. Фан, 1989 – 193 стр

³ Юсуф хас Хожиб Кутадгу билиг (Нашрга тайерловичи К. Каримов). 2-нашри – Т. Фан, 1972 – 50-53-6.

ommalashishini istaydilar. Shu boisdan ham yetuk asarlarini baynalminal tilda yozish hamma zamonlar va hamma mintaqalar uchun ham xosdir. Biroq shunga qaramay, turkiy til IX-XI asrlarda batamorn siqib chiqarilmagan. Buning eng asosiy dalili Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad Qoshg'ariy¹ va uning bizgacha yetib kelgan yagona asari "Devonu lug'otit turk"². Bu asarda Mahmud Qoshg'ariy: "... arab tili bilan ikki uloqchi ot singari teng poyga qilib, o'zib borayotgan turkiy til"³ imkoniyatlari jihatidan arab tilidan qolishmasligini, ko'p jihatlardan "poygada o'zib borayotgan"dek undan ustun turishini ko'rsatadi. Shuning uchun u turkiy tilni arablar tomonidan ham o'r ganilishini targ'ib etadi. Arablar turkiy tilni o'r ganishga da'vat etilar ekan, turkiylarning o'zlarini maktablarda o'z tillarini o'r ganmaganlar, turkiy tilda ta'lif bo'limgan degan xulosa afsonadir. Mahmud Qoshg'ariy o'z asarida turkiy tillarni o'r ganishga da'vat etuvchi ikki hadisni keltiradi. Ulardan birida shunday deyiladi: "... Turk tilini o'r ganing, chunki ularning hukmronligi uzoq davom etadi"⁴. Hadisni sharhlab muallif yozadi: "Hadisning to'g'ri yoki to'g'ri emasligining javobgarligi aytgan kishining gardaniga. Agar to'g'ri bo'lsa, turk tilini o'r ganish vojib (zarur)dir: hadis to'g'ri bo'limgan taqdirda ham uni o'r ganish zarurligini aql taqozo etadi"⁵.

Bundan biz yakuniy xulosa chiqara olamizki, qadimgi turkiy yozuvlar davrida (eramizning V-X asrlarida) turkiy til ta'lif o'choqlarida o'qitilgan, uning usuli, vositalari haqida biz hozircha aniq ma'lumotlarga ega bo'lamasak-da, mazmuni t u r k o n a bo'lgan. Kultegin yodgorligining muallifi Yo'llug' tegin va To'ngyuquqning so'zları buning yorqin dalilidir.

¹ Кононов А. Н. Маштарий яз унинг «Девону лугатит турк» асари // Узбек тили ва адабиёти – 1972 – №1-2., Кононов А. Н., Нигматов Х.Г. Кашгарский о тюркских языков (Сборник История, лингвистических учений средневековый восток - Л. Наука, 1981. –210 стр. Фозилов Э. И."Шарқийнг машиур филологлари – Т. Фан, 1971 – 80 б

² Коштарий Махмул Девону лугатит турк З томлик Т.І. (Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталибов). – Т. Узбекистон ФА, 1959

³ O'sha asar - 46-b.

⁴ O'sha asar - 43-b

⁵ O'sha asar - 44-b

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Ilk turkiy yozma yodgorliklar turkiy ta'lrim va uning maqsadi haqida qanday ma'lumotlar beradi?
2. Runiy yozuv qariyb 500 yil amalda bo'lganligini tarixiy ma'lumotlar orqali izohlang.
3. Qadimgi turkiy yodgorliklarning V.Tomsen, V.V.Radlov, P.M.Melioranskiy, S.E.Malov, X.N.Orhun, G.Ramstedt, A.Kononov kabi tadqiqotchilari yodgorliklarda xalqqa murojaat qilingan qanday so'zlarni alohida ajratadilar?
4. "Kul tigin" yodgorligida aytilgan "yovuz ilm" va "ezgu deb sanaladigan turkona bilim" nimaligini tushuntiring.
5. "Qadimgi turkiy yodgorliklar davri(V-IX asrlar)da turkiy yozuv bo'lgan, bu yodgorliklarni xalq o'qiy olgan, ya'ni xalq o'qitilgan" degan jumla mazmunini izohlang.
6. O'zbekistonda xizmat ko'ssatgan fan arbobi akademik A.N. Kononovning: "*O'zining morfologiysi va sintaksisi yuksak darajada rivojanganligi bilan qadimgi turkiy yodgorliklarning tili bizga yetib kelguncha uzoq adabiy an'anaga ega bo'lganligidan dalolat beradi*" degan fikrini milliy mafkuramiz nuqtayi nazaridan izohlang.
7. XI asrning buyuk turkiyshunosi Mahmud Qoshg'ariy IX-XI asrlarda turkiy yozuv nomi bilan mashhur bo'lgan qadimgi uyg'ur yozuvini qanday sharhlagan?
8. Qoraxoniylar davlatida (IX-XII asrlarda) davlat (saroy) tili turkiy bo'lganligi, uning adabiy mavqeyiga ega ekanligi (ta'lim o'choqlarida o'qitilishi va me'yordarning singdirilishi) haqida turkiyshunos – qomusiy olim M.Qoshg'ariy qanday ma'lumotlar beradi?
9. Turkiy til maktablarda o'qitilganmi? Biz bu savolga qayerdan aniq javob ololamiz? Nega?
10. Mahmud Qoshg'ariy o'z asarida turkiy tillarni o'rGANISHGA da'vat etuvchi ikki hadisni keltiradi. Ularnin mazmunini tushuntiring.

Foydalinish uchun adabiyotlar: [1; 2; 3; 4; 5; 13; 14; 29; 34; 35; 36; 43]

O'RTA (X - XIX) ASRLARDA ONA (O'ZBEK) TILIDA TA'LIM MAQSADI

Reja:

1. X-XI asrlarda ta'lif o'choqlarida islomiy-mafkuraviy yo'nalishda (turkiy tilda)gi ta'lif an'anasi.
2. XII-XV asrlarda turkiy tilning ta'lif o'choqlarida o'qitilishi va uning maqsadi.
3. XVI-XIX turkiy til ta'limi va uning maqsadi.
4. Ona (o'zbek) tilidagi ta'lifning VI-XIX asrlardagi holati va bu davrlarda ona (o'zbek, turkiy) til ta'limi oldida qo'yilgan asosiy maqsad.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar

Islomiy-mafkuraviy yo'nalishdagi turkiy tildagi ta'lif an'anasi. VI-XIX asrlardagi ona (o'zbek, turkiy) til ta'limi oldida qo'yilgan uch asosiy maqsad: savodxonlikni ta'minlash, asosan, savod - o'qiy olish va yozma matnni uqa olish; ma'lum mafkuraviy g'oyalarni (IX asrdan boshlab islomiy) singdirish va savodli mo'minni tarbiyalash; ona (o'zbek) tilidagi diniy-axloqiy va badiiy adabiyotning eng sara namunalarini bilan tanishtirish.

Tarixchilarining ta'kidlashlaricha, X-XII asrlarda turkiylarning nufuzi islam xalifaligida juda baland edi¹. M.Qoshg'ariy ma'lumotlari asosida biz bemalol ayta olamizki, X-XI asrlarda ta'lif o'choqlarida islomiy-mafkuraviy yo'nalishdagi turkiy tildagi ta'lif an'anasi so'nmagani. XIII asrda Markaziy Osiyoning mug'ullar tomonidan bosib olinishi uzoq madaniyatga ega bo'lgan xalq ma'naviy hayotiga ancha putur yetkazdi. Ko'chmanchi mug'ullarning turkiy yozuvni, qadimgi uyg'ur yozuvini mug'ul rasmiy yozuvi sifatida qabul qilganligi (bu yozuv Mug'ulistonda XX asrning boshlarigacha eski mug'ul yozuvi nomi bilan amalda bo'lgan)² mahalliy turkiy xalqlarning bosqinchisi mug'ullardan ancha yuksak saviyada turganligidan dalolat beradi.

¹ Бартольд В.В. Сочинения V. Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов М. ИЗЛ. 1966. -760 стр

² Владимирцев В. Я Сравнительная грамматика монгольского письменного языка и халхского наречия (введение и фонетика). - Л.: Наука, 1929. - 438 стр., Садыков К.П. Языковые особенности «Кутадгу билиг» (на материале уйгурописьменного списка). Автореф дисс кандидат фил наук Т. 1987.- 30 стр

Mug`ullarning islom dinini qabul qilgan holda islomiy arab yozuvini emas, balki turkiy yozuvni qabul qilishi bu yozuv Markaziy Osiyoda yashovchi xalq ommasi ichida arab yozuvidan ko`ra xalqchilroh, ommaviyoh ekanligini dalillaydi. Ilmiy asarlar arab tilida yozilgan bo`lsa-da, xalq yozuvi, ommaviy yozuv turkiy bo`lgan.

Mahmud Qoshg`ariyning: "Barcha hoqonlar va sultonlarning kitoblari, yozuvlari qadimgi zamonalardan shu kungacha, Qoshg`ardan Chingacha-hamma turk shaharlarida shu yozuv bilan yuritilgan"¹ degan guvohligi mug`ullar istilosiga davrida ham o`z kuchida qolgan - arab yozuvi IX asrdan boshlab qo`llanilgan bo`lsa-da, bu yozuv umumislomiy yozuv sifatida olimlar va ziyorilar orasida keng tarqalgan bo`lib, ommaviy yozuv mavqeyida (turkiy maktablarda turkiy bolalar o`rganadigan yozuv mavqeyida) turkiy-uyg`uriy yozuv bo`lgan. Shunga ko`ra mug`ullar ham shu ommaviy yozuvni qabul qilgan. Biroq XIV asrlarga kelib mug`ullarning to`la-to`kis islom diniga o`tganligi sababli ta`lim-tarbiya tizimida turkiy tilni noturkiy bilan asta-sekin siqib chiqarishga harakatlar bo`lgan bo`lishi ehtimol; mug`ullar o`zlarining tillarini mahalliy turkiy xalqqa o`tkaza olmas edilar – buning uchun ularning madaniy saviyalari ham, yozuv an`analari ham yetishmas edi. Shunday bo`lishiga qaramay, mug`ullar mahalliy turkiy yozuvlar va tillar mavqeyining o`sib borishiga to`sinqilik qilar edi. Ular shu boisdan ta`lim-tarbiya tizimida nomug`uliy va noturkiy tilning ommalashishiga yo`l ochgan bo`lishlari mumkin.

Temuriylar davriga kelib ta`lim-tarbiya tizimining asosiy mafkurasi islomiy, tili arabiy va forsiy bo`lganligidan dalolat beruvchi ayrim dalillar mavjud. Bu borada, shubhasizki, Mir Alisher Navoiyning o`zi o`qigan maktabi haqidagi xotiralari eng aniq manba sifatida e`tirof etilishi zarur. Mir Alishep Navoiy o`z davri maktablarini, undagi mashg`ulot mavzularini (sabqlarni) shunday eslaydi:

"Yodima mundoq kelur bu mojaro,
Kim tufuliyat chog`i maktab aro,
Kim chekar atfol marhumu zabun,

¹ Кошгариј Махмуд. Девону лугатит турк З томлик. Т. I. (Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов). – Т. Узбекистон ФА, 1959 – 50-б.

Har tarafdan bir sabaq zabtig`a un.
Emgonurlar chun sabaq ozoridin,
Yo "Kalomulloh"ning takroridin.
Istaboi tashxisi xotir ustod,
Nazm o`qiturkim, ravon bo`lsun savod.
Nasrdin ba`zi o`qur ham doston,
Bu "Guliston" yanglig`-u ul "Bo`ston"
Menga ul holatda tab`i bulhavas,
"Mantiqut-tayr" aylab erdi multamas"¹.
Mir Alisher Navoiyning yuqoridagi xotirasida ta`limning 4 mavzusi
ko`rsatilgan. Bular:

- 1) "Kalomulloh" takrori;
- 2) "Guliston";
- 3) "Bo`ston";
- 4) "Mantiqut - tayr".

"Kalomulloh" arabcha, qolgan uch asar forsiy tilda. Mir Alisher Navoiyning "Muhokamatul-lug`atayn"dagi isyonii (quyida sharhlanadi) shunday tizim bilan bog`liqbo`lsa ajab emas.

XIV-XV asrlarda turkiy til ta`lim o`choqlarida o`qitilganmi, degan savolning tug`ilishi tabiiy. Bu savolga qat`iy javob ayta olmaymiz. Biroq Sayfi Saroyining "Gulistoni bit turkiy" asari², o`sha davrda maktab dasturining asosiy tarkibiy qismi bo`lgan Sa`diy "Guliston"ning turkiy tildagi bayon-sharhi nimadan dalolat beradi? "Guliston"ning turkiy tildagi sharhi turkiyzabon yoshlarning bu asarni o`z ona tillarida o`qishlari uchun emasmi?! Ehtimol, shuning uchun bo`lsa kerak.

Temuriylar davri davlat va jamiyatda turkiy til mavqeyining yana ko`tarilishiga sabab bo`ldi. Temuriylarning ko`pchiligi o`z asarlarini turkiy tilda yozdilar. Amur Temur tomonidan yozilib, bizgacha yetib kelgan yagona asar "Temur tuzuklari" mutaxassis olimlarning (A.A.Semyonov, Ch.Rye, E.G.Braun va b.) so`zlariga qaraganda, boshda turkiy tilda yozilgan va nusxasi Yaman hokimi Ja`far poshshoning kutubxonasida saqlangan deyiladi. Mir Abu Tolib al-

¹ Навоий А. Лисонут тайр - Т : Фулемномидаги нашринет матбаса бирлашмаси, 1991. - 258-6.

² Фотинов Э. И XIV аср Хоразм ёдномалари - Т : Фан. 1973

Husaniy at-Turbatiyning forscha tarjimasi ana shunday turkiycha nusxalardan biriga asoslangan, albatta¹.

Mir Alisher Navoiydek dahoning temuriylar davrida yetishib chiqqanligi va temuriylar himoyasida bo'lgan holda o'z asarlarini turkiy tilda yaratganligi ham temuriy hukmdorlarining bu tilga munosabatini yaqqon dalillaydi. (Quyida temuriyzoda podsho Z.M.Boburning turkiy tilga munosabati haqida alohida to'xtalamiz.) Hozir esa turkiy adabiyot va turkiy tilning jonkuyar targ'ibotchisi Mir Alisher Navoiyning turkiy tilni yoqlab ko'targan isyonini haqida gapiramiz.

XV asrga kelib "forsiy tilni bilish va shu tilda so'zlashish, ijod qilish jamiyatning yuqori tabaqasiga xos bo'lgan "imtiyoz" va "bilimdonlik" belgisiga aylandi"². Ayniqsa temuriylar davrida bu an'analarining avj olishi o'zbek tili imkoniyatlarining ochilmay qolishiga sabab bo'ldi. Shu davrda Mir Alisher Navoiy o'zbek adabiy tilining yalovbardori sifatida maydonga chiqdi. Mutafakkir, adib, olim A.Navoiyning nihoyatda ulkan xizmatlari hamma davrlarda ham alohida e'tiborga loyiqidir. Navoiyshunos olim X.Doniyorov ta'kidlaganidek, A.Navoiy ijodini o'rganish, targ'ib etish adabiyotshunoslilik nuqtayi nazaridan qanchalik ahamiyatli bo'lsa, o'zbek adabiy tilini rivojlantirish sohasidagi benazir xizmatlarini va tilshunoslik faoliyatini lingvistik nuqtai nazardan o'rganib chiqish ham shunchalik zarur va ahamiyatlidir³.

Mir Alisher Navoiy ona tilining imkoniyat va qudratiga e'tiborsizlik bilan qarovchilarga, uni qo'pol, dag'al til deb pastga uruvchilarga qarshi chiqib, badiiy va ilmiy asarlarini o'zbek tilida yaratdi, ya'ni o'zbek tilining boy imkoniyatlarga egaligini ham badiiy, ham ilmiy jihatdan amalda isbotladi.

Shoir turk (o'zbek) tilini xazina, inson oyog'i yetmagan chamanzor, iforlaridan biror zot to'la bahramand bo'la olmagan gulzorga o'xshatadi. O'z davri ijodkorlari – nazm va nasr ustalariga forsiyda

¹ Темур тузуклари (Алихон Согуний таржимаси). - Т.: Гуломномидаги нашириёт матбаси бирлашмаси, 1991. - 6-7- б.

² Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. - Т.: Ўқитувчи, 1995. - 162 б.

³ Доннерон Х. Алишер Навоий ва ўзбек адабий тили. - Т.: Гуломномидаги адабиёт ва санъат нашириёти, 1972. - 76 б.

emas, eng avvalo, turkiy tilda—ona tillarida yoza olsinlar degan talabni qo'yadi va bu haqida shunday yozadi: "... turk tilining jomeiyati muncha daloil bila sobit bo'ldi, kerak erdikim, bu xalq orasidin paydo bo`lg'on tab' ahli salohiyat va tab'larin o'z tillari turg' och, o'zga til bila zohir qilmasa erdi va ishga buyurmasalar erdi. Va agar ikkalasi til bila aytur qobiliyatlari bo'lsa, o'z tillari bila ko'prak aystsalar erdi va yana bir til bila ozroq aystsalar erdi. Va agar mubolag'a qilsalar, ikkalasi til bila teng aystsalar erdi".¹⁻²

XV asrga kelib fors-tojik tilining grammatik qonun-qoidalari anch'a ishlangan, hatto ohangdosh so'zlar lug'ati ham tuzilgan edi. Binobarin, bu tilda ijod qilish adabiyot ahli uchun o'zbek tiliga qaraganda osonroq va qulayroq edi. Shoir Mir Alisher Navoiy o'zbek shoirlarining bu qobiqdan chiqa olmayotganliklariidan, ya'ni bu odad ularning tabiatiga aylanib qolganidan va "takallum ahli"ga endigina qo'shilayotgan yoshlar ham "... osonroq sari mayl" qilayotganlardan kuyinib yozadi. Shoir "Muhokamatul-lug'atayn"da "tab' ahli" avvalo o'z ona tilini chuqur bilishi kerak, degan haq fikmi aytadi hamda o'sha davr nazm va nasr ahlining o'z ona tilidan yiroqligini qoralaydi.

"Bu ehtimolg'a xud yo'l bersa bo'lmaskim, turk ulusining xushtab'lari majmuyi sort tili bila nazm aytqaylar va bilkull turk tili bila aytmag' aylar, balki ko'pi ayta olmag' aylar va aystsalar ham sort turk tili bilan nazm aytqondek fasih turklar qoshida o'quy va o'tkara olmag' aylar va o'qisalar har lafzlarig'a yuz ayb topilg'ay va har tarkiblarig'a yuz e'tiroz vorid bo`lg'ay"¹⁻²

Mir Alisher Navoiy bu bilan arab yoki fors tilini kansitmaydi, aksincha, bu tillarga hurmat bilan qaraydi. Arab tili haqida shunday yozadi: "Barchasidan arab tili fasohat oyini bila mumtoz va balog'at taz'yini bila mo'jiza tirozdurkim, hech takallum ahlining munda da'vosi yo'qtur va so'zi sidq va ishi taslim - o'qdurkim, maliki alom jallo va aloning kalomi mo'jaz nizomi ul til bila nozil va rasulning ahodisi saodat anjomi ul lafz bila vorid bo'lubdur".¹ U fors-tojik tiliga bo'lgan

¹⁻² Навоий А. Мухокаматул лугатайн 15 томлик. 14-том – Т. Гулом номидаги бадий адабий нашриёт. 1967 -118-б

¹ Навоий А. Мухокаматул лугатайн 15 томлик. 14-том – Т. Гулом номидаги бадий адабий нашриёт. 1967 -106-б

hurmatni esa forsiygo`y shoirlarni lol qoldirgan forsiyda bitilgan beba ho asarlar bilan namoyon etdi. Alisher Navoiy turkiy tilni targ`ib qilish, bu tilda shoh asarlar yaratish bilan birga uni ta`lim o`choqlarida o`qitish uchun ommabop asar – maktablarda o`qitilishga mo`ljallangan, islom dini asoslari va farzlarini nisbatan sodda shaklda bayon etuvchi dars kitobi – "Sirojul muslimin"ni ham yozadi. Bu kitobda islom dini arkonlari, asosiy farzlar asosi bayon qilingan bo`lib, mazmun-mohiyati bilan XV asrda maktablarda keng ommalashgan "Chor kitob" va "Farzi ayn" bilan uyg`undir va turkiyzabon bolalarga ularni almashtira olardi. Mir Alisher o`z asarini shu maqsadda yozganligini ochiq bayon etmaydi, lekin islom asoslarini sodda shaklda turkiy tilda bayon qilish ayni shu maqsadlarni ko`zlaydi. Mir Alishemning:

Nekim din ahlig`a bo`lg`ay zarurat...

Bayon qilg`aymen andoq ravshan-u pok,

Ki idrok etkay oni xayli a t r o k¹

kabi so`zlari ham shunga ishora qilsa kerak. "Sirojul muslimin" butun mohiyati bilan o`rta asr maktab kitoblariga monanddir va o`quv qo`llanmasi vazifasini bajara olgan.

XV asrda turk (o`zbek) tilini rivojlantirishda Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy, Yusuf Amiriy, Tarxoniy, Majnuniy, Gadoiy kabi iste`dodli "turkiygo`y" shoirlarning alohida o`rni bor. Mir Alisher Navoiy o`zining "Majolisun-nafois" tazkirasing ikkinchi bobida bunday shoirlar soni 16 nafardan oshganligi haqida ma`lumot beradi va zamonasining "turkiygo`y" shoirlarining nomini alohida hurmat bilan tilga oladi.

Mir Alisher Navoiyning o`zbek adabiy tili ravnaqi uchun kurashi haqida gapirganda ham shoh, ham shoir Husayn Boyqaroning xizmatlarini eslab o`tish joiz. Husayn Boyqaro shoh, buyuk homiy sifatida Mir Alisher Navoiy dahosining yuzaga chiqishga yordam berdi. Uning o`zbek adabiy tili ravnaqi uchun olib borgan kurashini qo`llab quvvatladi, ma`naviy yordamini ayamadi, do`stining yutuqlarini o`zining jang maydonidagi g`alabalaridan ustun qo`ya oldi. Husayn Boyqaroning o`zi ham turkiy tilda go`zal she`rlar bitdi, uning turkiy

¹ Навоий А. Муқаммал асарлар туплиами 16-том. – Т. Фан, 2000. - 274 6

tilning mavqeyini ko'tarish maqsadida shu tilda devon tuzganligi ham ma'lum. Husayn Boyqaro nasriy risolasi (1485-yilda yozilgan)da Alisher Navoiyning turkiy til va adabiyoti rivojidagi buyuk xizmatini zavq-ü shavq, ko'tarinki hayajon bilan olqishlaydi. U bilan zamondosh do'st bo'lganligidan iftixor qiladi, shukronalar keltiradi. Z M Bobur "karim ut-tarafayn" ("ikki tomonlama ulug'") deb atagan bu shohning o'zbek adabiy tili ravnaqi borasidagi xizmatlari e'tiborga loyiqlirdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Alisher Navoiyning o'zbek adabiy tilining ravnaqi yo'lidagi kurashini davom ettirdi. Bobur tilshunoslikka oid maxsus asar yozmagan bo'lsa-da, "Boburnoma"da tilshunoslikka doir e'tiborli fikrlarni bayon etadi. "Boburnoma" o'zbek adabiy tilining muhim yodgorliklaridan biridir. Arab alifbosining o'zbek tili tabiatiga nomuvofiqligini kuzatgan Boburning 1503-1504-yillarda "Xatti Boburiy" deb nomlangan alifbo tuzganligi ham ma'lum. Bu alifbo hayotga tatbiq etilmagan bo'lsa-da, alifboni tilga muvofiqlashtirish g'oyasining tug'ilishiga sabab bo'ldi. Navoiy ijodiy an'analarini davom ettirgan shoir ham o'zbek tilida, ham fors-tojik tilida qalam tebratdi. O'zbek tiliga bo'lgan muhabbatini:

Erurman turk oshiq, kosh hilsam forsiy qoni,

Desam holimni bilsa, forsiydan dilbarim oni tarzida bayon etadi. Zahiriddin Muhammad Bobur o'z asarlarida o'zbek tilining barcha imkoniyatlardan mumkin qadar ko'proq foydalanib, til donishmandi bo'lganligini ko'rsatdi, o'zbek adabiy tilining takomillashishida muhim rol o'yndi.

Temuriylar davrining buyuk turkiygo'ylari Mir Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Solihlarning turkiy til targ'ibi va taraqqiyotiga qo'shgan qissalari haqida yuzlab asarlar yozilgan desak mubolag'a bo'lmaydi¹. Bizning yozganlarimiz zukko olimlar o'rgangan va tahlil etgan bu masalaga, birinchidan, hech qanday yangilik kiritmaydi, ikkinchidan, bu ishlar bizni qiziqtirgan masala –

¹ Оаранг. Дониеров Х Алишер Навоий ва ўзбек адабий тили. – Т.: Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашириети, 1972. – 76 б.; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи Биринчи китоб – Т.: Укитуучи, 1976. – 568-608-б; Мухторов А., Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. – Т.: Укитуучи, 1995. – 160 б.; Навоий А. Муҳокамату лугатайн 15 томлик. 14-том. – Т.: Фулом номидаги бадний адабий нашириёт, 1967. – Навоийнинг адабий маҳорати масалалари (маколалар тўплами). – Т.: Фан, 1993. – 208 б. ва б.

turkiy tilni ona tili sifatida o`qitilishiga bevosita aloqador emas, biroq nomlari yuqorida zikr etilgan turkiy til yalovbardorlari asarlarining barchasi XIV asrda ta`lim tizimida boshlangan va, ehtimol, keyingi davrlarda haddan oshgan forsiy til zo`ravonligiga qarshi qaratilganligi bilan, turkiylarga turkiy til va turkiy tilda ta`limni kengroq yo`lga qo`yishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyatlidir. Shuning uchun biz ta`lim tizimida turkiy til mavqeining susayishi aksilharakatni – turkiy til ta`limini yoqlab chiqish harakatini yuzaga keltinganligi haqida qat`iy xulosa qilishimiz mumkin. Biroq XV-XVII asrlarda turkiy tilda mактаб dars kitoblarining hozircha bizga noma'lumligi bu davrda maktabda turkiy tildagi ta`limning ancha susayganligidan dalolat bersa kerak. Bu davrga oid bizgacha yetib kelgan va o`sha davr uchun o`quv qo`llanma vazifasini o`tay oladigan kitob sifatida Mir Alisher Navoiyning "Sirojul muslimin" asarini ko`rsata olamiz. Bu asar tom mohiyati bilan XIV-XV asrlardan boshlab O`rta Osiyo va Zakavkazeda, Eron va Afg'onistonda boshlang`ich mактабning abjad-haftiyakdan keyingi uchinchi boshqichida o`rganiladigan mashhur "Chor kitob"ning birinchi kitobida bayon etilgan islomi farzlarning o`zbek tilida berilishidir. Mazkur kitobni Mir Alisher Navoiy Xoja Ahror ko`rsatmalariga ko`ra bitganlarini alohida ta`kidlaydilar. Kitobning maktablarda o`qitish uchun mo`ljallanganligi haqida ma'lumot berilmagan bo`lsa-da, asar mohiyatan o`quvchiga islam ruknlari va farzlarini nisbatan sodda, ravon tilda yetkazadigan o`quv qo`llanma – "Chor kitob"ga juda o`xshash. Ta`limiy maqsadlarni ko`zlab yozilgan asarlardan yana biri sifatida Mirzo Boburning yuqorida aytib o`tilgan "Xatti Boburiy" alifbosi va qo`llanmasini ayta olamiz (Alifboning amalga tatbiq etilmaganligini yuqorida aytib o`tgan edik).

XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida turkiy tildagi ta`lim masalasi qaytadan, butun keskinligida ko`tarib chiqildi. Bu borada bayroq dorlik hech mubolag` asiz Xiva xoni, muarrix va turkiy til fidoysi Abulg`ozи Bahodirxonga tegishlidir. O`z davrining madaniy hayotida muhim rol tutgan ulug` siymo Abulg`ozи Bahodirxon, ma'lumki, XVII asrning birinchi choragida hukmronlik qilgan; fors-tojik, arab, mug`ul tillarini o`z ona tilidek yaxshi bilgan. Undan bizgacha meros qolgan "Shajarayi

tarokima" (taxminan 1658-1661-yillarda yozilgan) va "Shajarayi turk" (1663-1664-yillarda yozilgan) asarlari tarixiy mavzuda bo'lib, tilshunoslikka doir maxsus asar emas. Biroq uning turkiy tilga bo'lgan munosabati yuqorida eslatilgan har ikkala asarda ham o'z ifodasini topgan. Abulg'ozzi Bahodirxon ajdodlari tarixini sevgan turkman elati vakillari iltimosiga ko'ra yozilgan har ikkala asarini omma tushunadigan tilda va ommabop usulda yozishga alohida e'tibor beradi, turkona, xalqchil tarzda tarix yozish mahoratini namoyish etadi. Bu haqida uning o'zi shunday yozadi: "Barcha bilingkim, bizdan burun turkiy tarix aytg'onlar arabiy lug'atlarni qo'shib tururlar va turkiyni ham saj' qilib tururlar o'zlarining hunarlari va ustozlarini xalqga ma'lum qilmoq uchun. Biz munlarning hech qaysisini qilmaduk aning uchunkim, bu kitobni o'qug'uchi va tinglag'uchi turk bo'lg'usi turur. Bas, *t u r k l a r g` a t u r k o n a a y t m o q k e r a k*, to alarning barchasi fahm qilg'aylar, bizning aytg'an so'zimizni bilmasalar andin ne hosil?".¹

Darhaqiqat, Abulg'ozzi Bahodirxon yashagan davrga kelib, "chig'atoy tili" nomi bilan yuritilgan turk (o'zbek) adabiy tili g'oyatda murakkablashgan bo'lib, uni tushunish oddiy xalq uchun mushkul edi. U o'zining oddiy, sodda bayon etish uslubini dabdabali chig'atoy tili uslubiga qarama-qarshi qo'yadi va yuqoridagi "Shajarayi tarokima" dan keltirilgan parchada turklarga "turkona aytmoq kerak"ligini alohida ta'kidlaydi.

"Shajarayi turk"da shunday yozadi: "...Bu tarixni yaxshi va yomon barchalari bilsun teb turkiy til birlan aytdum. Turkiy ham andoq aytubmankim, besh yashar o'g'lon tushunar. Bir kalima chig'atoy turkisidin va forsiyidin va arabiyyidin qo'shmayman, ravshan bo'lsun teb"². Ushbu parcha yana shundan dalolat beradiki, keng qamrovli bilim va faoliyat sohibi bo'lgan Abulg'ozzi Bahodirxon ona tilining tozaligi, tiniqligi, ravshanbayonligi uchun amaliy faoliyati bilan kurashgan vatanparvar siymo edi. Umuman, Abulg'ozzi Bahodirxon o'z asarlari

¹ Абулғозий Б. Шаҳарайи турк. - Т : Чўлпон, 1995 - 4-6

² Абулғозий Б. Шаҳарайи тарокима. - Т : Чўлпон, 1995. - 35-6.

tilini Boburga nisbatan ham xalq so'zlashuv tiliga yaqinlashtirishga harakat qildi va adabiy til ravnaqiga munosib qissa qo'shdi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, Abulg'ozzi Bahodirxon o'z asarlarini yozar ekan "besh yashar turk bolasi"ni ham nazarda tutganligini ta'kidlaydi. Albatta, bu mubolag'adan xoli emas, biroq muallifning maktabxonni nazarda tutganligi, turkiylarning o'z tarixlarini ona tilida o'qish va uqishni ko'zlab asarlarini yozganligi katta ahamiyatga egadir. Chunki turkiy tilda t'a'l i m k i t o blari (hozirgi tushunchamiz bo'yicha darsliklar) yaratish zarurati XVII-XVIII asrlarda ko'proq sezilganligi ayondir.

Biz bugun iftixor bilan "olamshumul" ahamiyatga molik ibridoiy maktab ta'limiga mo'ljallangan kitob (darslik) deb atay oladigan, jahonda "So'fi Olloyor" nomi bilan mashhur asarni Markaziy Osiyo, Sharhiy Turkiston (hozirgi Uyg'ur muxtoriyati), Eron, Afg'oniston, Kavkaz turkiyzabon bolalari XVIII asrning o'rtaidan XX asr boshlarigacha o'qib kelgan¹. "Sabotul ojizin"ning muallifi asarning "Dar bayoni sababi ta'lif" ("Kitobning yozilish sababi bayoni") bo'limida shunday yozadi:

Yozildi forsiy til birla maktub,
Aqiydot furu'i qurbi mahbub.
Aniykim ko'rdilar turkiy yoronlar,
Dedilar, gar duo qilsa eronlar,
Bitilsa turkiy til birla aqida,
Ko'ngullar bo'lsa ondin oramiyda,
Tomallug' qildilar chun bir necha yor,
qalam tortay xudo bo'lsin madadkor,
Va lekin aylayin so'zlarni ijmol,
Manga yo'qdur mufassal qilg'ali xol.
...Anga qo'ydim "Sabotul ojizin" ot,

¹ Захидов Р «Сабот ул-ожизин» асрни лексикаси Филол Фанлари номзоди дисс. автореф. – Т: ТАИ, 2001 – 32 б., Иванов С Н Родословное древо тюркок Абу-л-газихана (Грамматический очерк) – Т: Фан, 1969, – 204 стр.; Тұраев М. Миллий тәулил тарихидан // Фан ва турмуш – 2000 – № 5

O'zimdek xasealar bo'lq'aymu deb shod...¹
Kitobning xotimasida esa muallif shunday yozadi.
Bitibsan forsiy tilda kitobi,
Tammom anda masoilning javobi.
hama fatvovu taqvoning bayoni,
O'n ikki mingdin ortuq bayti oni.
Deding shay'i qalili turkiy tildin,
Kech emdi albatta bu qolu qildin².

Muqaddimadan ham, xotimadan ham ko'rinish turibdiki, bu mashhur dars kitobi "turkiy yoronlar" iltimosi va talabi asosida yuzaga kelgan. Muallifning yuqorida keltirilgan so'zlaridan ko'rinish turibdiki, turkiy tildagi bu asarni u "ijmol", ya'ni qisqartirish, ixcham bayon etish usuli bilan yozgan va forsiy tilda ("Maslakul mudtaqin"da) yigirma to'rt ming misralik mazmunni taxminan to'rt ming misradan iborat bo'lgan "Sabotul ojizin"da mujassamlashtirgan. "Sabotul ojizin", agar uning muallifini 1720-yillarda vafot etganligini nazarda tutsak³, XVII asrning oxiri yoki XVIII asrning boshlarida (birinchi o'n yilligida) yozilgan. Kitob islomiy axloq, adab, farz, vojib, sunnat, mustaxab, muboh, mustakrah (munkir), makruh, harom, kabi amallarning sharhi, tasavvut tariqati asoslari bayoni, shu masalalarga oid pand-nasihat va ibratomuz hikoya hamda rivoyatlardan iborat⁴. Muallif bu asarda sharhda keng tarqalgan usul va tuzilishni saqlagan (dastlab savol, so'ngra masala bayoni, keyin ibratomuz hikoya hamda rivoyatlar). Kitob oddiy ziyoli mo'min bilishi va amal qilishi zarur bo'lgan deyarli barcha masalalarni hamrab oladi. Asar keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan bo'lsada, unda - hozirgi didaktik talablarga ko'ra - o'quvchining yosh psixologiyasi va taraqqiyoti nazarda tutilmagan, asarning tili g'oyat murakkab, arabcha-forscha so'zlar miqdori juda ko'p⁵. Shunga ko'ra bu kitobdan sharhsiz, lug'atsiz foydalanish juda qiyin. Mazkur qiyinchiliklarni nazarda tutib "Sabotul ojizin"ga sharhlar yozilganligi

¹ Суфи Оллоёр Сабот ул-ожизин (Нашрга тайёровчишар Ҳожи Пұлаткори Мұкәммәд Али ва б.) – Т. Мекнат. – 1991 – 9-10-б.

² O'sha asar –90-b.

³ Захидов Р. «Сабот ул-ожизин» асари лексикаси Филол ғаландары номзоди дисс автореф – Т. ТАИ. 2001. – 6-b.

⁴ O'sha asar

⁵ O'sha asar

ma'lumdir. Ulardan biri Tojiddin Yolchiqulning "Risolayi Aziza"¹ asari (kitob Tojiddin Yolchiqul o'g'lining iltimosi asosida yozilganligi sababli shunday nomlangan) va ikkinchisi Sayyid Habibulloh ibn Sayyid Yahyoxon al Farqoni al Qobuliy qalamiga mansub "Hidoyatuttolibin" asaridir. Har ikkala sharh ham "Sabotul ojizin"ning tushunilishini yengillashtirish maqsadida tuzilgan. Bunday sharhlarning mavjudligi turkiy tilda ta'llim amalda bo'lganligini isbotlovchi yana bir muhim dalildir. "Sabotul ojizin"ning keng ommalashishi, uning hozirgi kunda ham ma'lum va mashhur bo'lgan o'nlab toshbosma nashrlari namunalari, yuzlab qo'lyozma nusxalarining XVIII asrda keng ommalashganini ko'rsatadi.

Fikrimizni isbotlaydigan muhim dalillardan yana biri islomiy-ibtidoiy maktabda o'qish (harflarni tanish va ularni qo'shib o'qish) mahoratini egallagan (hozirgi taxminan II sinf darajasidagi savodlilik malakasiga ega bo'lgan) bolalar uchun zaruriy bo'lgan "Farzi ayn" ("Eng muhim farzlar")ning turkiy tilga tarjimasi va "Farzi ayni turkiy"ning ham juda ko'plab qo'lyozma hamda toshbosmalarda yetib kelganligidir. Bunday toshbosmalarda besh islomiy farzning bayonini o'z ichiga olgan bu kitob juda ko'p hollarda ikki tilda ikki qismga ajratilib, bir kitob shaklida -

- a) "Farzi ayni turkiy" va
- b) "Farzi ayni forsiy"

sifatida bosilgan. Taxmin etish mumkinki, bugun tarjimasi XIX-XX asrlarga oid deb qaralayotgan "Chor kitobi turkiy" ham XIX asrdan oldingi davrga, ya'ni XVIII asr o'rtalari (yoki oxirlari)ga mansub bo'lsa.

"Chor kitob" XIV asrdan XX asrning boshlarigacha ta'llim forsiy (tojik) tilida olib boriladigan barcha ikkinchi boshqich (ibtidoiy) maktablarning "Farzi ayn"dan keyin o'rganiladigan dars kitobi edi, shuningdek, Xitoydan Xurosongacha, Markaziy Osiyodan Rumgacha (Turkiyagacha) keng amalda edi². Forsiy tildagi ta'llimning asosiy dars kitoblarini turkiy tilga o'girilishi (yoki tavsiflanishi) XVIII asrda ta'llim

¹ Рисолайи Азиза («Саботул ожизин» шархи) (Тутувчи Ботирбек Ҳасан Муҳаррирлар: Рустамов А. Обидов Р.) - Т. Мерос, 2000. - 3-6

² Чахор китоб (Абдунаби Сатторзода нашири) Душанбе Адид, 1990. - 81-82-6

muassasalarida turkiy tilning o'qitilganidan va uning mavqeyi keskin oshganligidan dalolat beradi.

Ta'lim fors tilida olib boriladigan maktab kitoblarining o'zbek tiliga o'girilishi (yoki tavsiflanishi) va ularning keng ommalashishidan keyingi boshqich, shubhasizki, o'zbeklar (o'sha davr atamasiga ko'ra turkiylar, turkiyzabonlar) uchun maktab kitoblarini yaratish bo'lmog'i lozim edi va shunday ham bo'ldi. Bu ishni Shermuhammad Munis Xorazmiy amalga oshirdi. Munis Xorazmiyning tilshunoslik va pedagogikaga oid "Savodi ta'lism" risolasi bizgacha yetib kelgan. Bu asarning didaktik ahamiyati Y. Abdullayev¹, K. Sultonova ishlarida maxsus tadqiq etilgan. 1804-yilda yozilgan mazkur asar ("Risolayi savod" deb ham yuritilgan) she'riy yo'lda bitilgan bo'lib, talabalarga husnixat ta'limi qoidalarini o'rgatishga mo'ljallangan.

Ilmiy-ma'rifiy ruhdagi bu asar ta'limiy jihatdan muhim o'rinda turadi. Shoир asarning birinchi qismida xat mashq qilishga tayyorgarlik va bu ish uchun kerakli o'quv anjomlari xususida so'z yuritadi. Ikkinci qismida esa dars xat mashqi va uning usuli to'g'risida amaliy yo'sinda ta'lim beradi. Yozuvning ahamiyatini anglashga, insonlarni rostgo'y, bilimli, shirinso'z, savodli bo'lishga chaqiradi va:

Har so'zki, ko'ngildin o'ldi mavjud,

Xat bo'lmasa, bo'lg'ay erdi nobud,

deb yozadi. Munisning "Savodi ta'lism"i ham kattagina guruhi talabgorlarning ("guruhi mushtoq")ning "ko'p muddat"li iltimoslari asosida yozilgan. Bu haqida shoир shunday yozadi:

Risolani yozishdan maqsad

Ko'p muddat erdi guruhi mushtoq,

Ta'lim sumanbarig'a ushshoq.

Mashq etmak ishida xat bitarg'a,

Ta'lim vuqufig'a etarg'a.

Aylar edi xizmatim aro puy,

Dilresh o'lub o'ylakim qalam mo'y...

... Ma'yus eta olmayin alarni,

Xirmon aro solmayin alarni,

¹ Абдуллаев Й. Эски мактабда хат-савод ўргатниш. — Т.: Урта ва олий мактаб, 1960. 67-73-6

Bilganicha surib qalamni har yon,
Ta'lim ishin aylar erdim oson...¹

Shoir so`zlaridan anglashilmogdaki, turkiy tildagi dars kitoblariga talabgorlar, bunday kitoblarning yo`qligidan "ma'yuslar" va "xirmon aro qolganlar" ko`p bo`lgan. Qo'llanmaning "talab ahli"ga qaratilganligi bunday qo'llanmalarga talabgorlar soni ko`pligidan da'lolat beradi. Munis Xorazmiyning o`zbek tilida yozilgan "Savodi ta'lim" dars kitobi, "Guliston", "Chor kitob", "Farzi ayn" kabi maktab kitoblarining o`zbekcha tarjimalari, "Farzi ayn" va "Chor kitob"ning birlashishiga o`xshash qilib yozilgan So`fi Olloyorning "Sabotul ojizin" asari turkiy tilda ta'lim (ibtidoiy ta'lim) o`choqlarida X-XIX asrlarda uzlucksiz davom etganligi, lekin, ehtimolki, XIV-XVII asrlarda bir muncha zaiflashganligi, bu esa, haqli ravishda, Mir Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Abulg`azi Bahodirxon kabi turkiy parastlarning qattiq e'tiroz va isyonlariga sabab bo`lganligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi.

XVIII- XIX asrlarda hozirgi O`zbekiston hududida turkiy tilda ta'lim yana qaytadan jondi va XIX asrning oxirida jadidchilik harakatida o`zbek tilidagi ta'lim-tarbiya inqilobiy shiorlarga aylanishi uchun mustahkam zamin yaratildi. Ta'limimiz tarixida juda muhim ahamiyatga ega bo`lgan jadidchilik harakati davrida ona tilida o'qitish masalasini ko`rib o'tishdan oldin XV-XIX asr oxirlarida Markaziy Osiyo ibridoiy maktabi ta'lim mazmuni haqida gapirib o'tish joizdir. XV-XX asr boshlarida hozirgi O`zbekiston hududida ibridoiy (mahalla va masjid) maktablarida o'qitiladigan asosiy dars kitoblari (o`quv materiali)ning mazmuniy minimumi S. Ayniy², G.G.ulom³, A. Avloniy⁴ va b.larning asarlarida yoritilgan va Y. Abdullayevning eslatilgan monografiyasida arxiv⁵ materiallari, guvohlar ma'lumotlari asosida⁶, Ulug`bek Dolimovning 2010-yilda "Tafakkur" jurnalida e'lon qilgan maxsus maqolasida atroflicha tahlil etilgan. Jumladan, Y. Abdullayev har tomonlama tadqiq va tahlillarini quyidagicha yakunlaydi: "Bu

¹ Узбек педагогикаси антологигиси II жилд – Т : Ўқитувчи, 1999.

² Айнин С. Эски мактаб – Т : Улувиншр, 1979. – 56 б.

³ Гулом Гафур Ташланган асрлар Т. II – Т : Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашрияти, 1972. – 416 б.

⁴ Авлоний Абулула. Ташланган асрлар 2 жилдлик 1-жилд (Нашрга тайерлович Б.Косимов) – Т : Маннавият, 1998.-80-81-б

⁵ Абдуллаев Й. Эски мактабда хат-савод ўряттиш. – Т : Ўрта ва олий мактаб, 1960. -45-53-б.

tekshirishda eski maktablarda harf o'rgatilishi, "Hafuyaki sharif", "Qur'oni sharif", "Chor kitob", "So'fi Olloyor", "Xo'ja Hofiz", "Navoiy", "Fuzuliy", "Bedil", "Maslakul mudtaqin" kitobiari o'qitiishi aniqlangan"¹. Bundan ko'rinish turibdiki, ta'lrim materiali XVIII asrdan boshlab ikki tilda – o'zbek va tojik tillaridagi asarlardir. Bu o'lkamizda ta'lim ham tojik, ham o'zbek tillarida olib borilganligi, o'lkamizda X asr va undan avvalgi davrlardan boshlab hozirgi kungacha davom etayotgan zullisonaynlikni aks ettirgan. Mazkur an'aria XVIII asrda keng tarqalgan va rivoyat uslubida yozilgan asarlarda ham o'z aksini topganligi ma'lum. Chunonchi, fors-tojik tilida yozilgan va Markaziy Osiyoda keng ommalashgan "Bobo arab va malika Dilorom" rivoyatdostonida malika: "Kim men bilan she'r aytishda bellashsa va g'olib bo'lsa, unga turmushga chihaman", deb shart qo'yadi. Dostonda keltirilgan aytishuvlar tojik tilida bo'lib, bellashuvda malika g'oliba bo'ladi. Biroq Bobo arab– badaviy qiyofasida kelgan Xizr payg` ambar – bilan bo'lgan forsiy aytishuvda malika yengilayotganligini sezadi va eng oxirgi chorani ishga soladi, ya'ni aytishuvni turkiy tilga ko'chiradi.

Malika: Ey Bobo Arab, turkiya hayron qolasan,

Sharmandayi sharmisori giryon bo'lasan.....

Bobo Arab: Sen yoshgina qizcha meni hayron qilasan,

Sharmanday-u sharmisor-u giryon qilasan.

Men qari arabga beadablik qilma,

Bir na'ra uray, o'timda giryon bo'lasan...

Bu badia-aytishuv turkiy tilda ta'lim vatanimizda tarixan uzlusiz zanjirni tashkil etganligidan, ayrim davrlarda qisman zaiflashgan bo'lsada, hech qachon tamoman so'nmaganligidan darak berib turadi. XI asrdan XX asming boshlarigacha Markaziy Osiyolik barcha yozuvchi va shoirlarning ikki tildagi ijodi ham buni yana bir bora isbotlaydi Shuning uchun sho'ro, xususan, rus tarixchilari, ularga ergashgan ayrim tadqiqotchilarning o'zbek tilida ta'lim masalasi XX asrdan keyin kun tartibiga qo'yildi, degan uydirmalariga chek qo'yomog'imiz, tariximizni, madaniyatimizni haqqoniy va xolisona o'rganishimiz lozim. Bu haqida Prezidentimiz I. A. Karimov shunday deganlar: "Tariximiz haqida gap

¹ Osha asar - 53-b

ketganda, biz hamon rus olimlarining tadqiqotlariga tayanamiz... Lekin qachongacha biz tariximizni birovlarning nuqtayi nazari, qarichi bilan baholaymiz. O'z davlatimiz, xalqimiz, millatimiz tarixini o'zimiz tiklamasak, o'zimiz xolisona yozmasak, uni boshqalar boshqacha qilib yozadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib o'zlikni anglash mumkin emas. Madomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur"¹. Prezidentimizning bu ko`rsatmalari tariximizni, jumladan, ona tilimizda ta'lif tarixini haqqoniy va xolisona o'rganishni, o'zbek xalqining tarixiy o'tmishini, unga aloqador bo'lgan har bir narsani sun'iyiliklardan xoli etilgan holda xalqqa va vatanga milliy mafkuraga sadoqat ruhida yetkazishni, barkamol avlodni mana shu an'analar yog'dusida tarbiyalashni talab etadi. Bizning ona tilimizda ta'lif tarixi bo'yicha bu sahifalarda umumlashtirgan kamtarona kuzatishlarimiz shu yo'ldagi harakatlardan bir zarradir. Biz iftixon bilan aytal olamizki, ona tilimizda ta'lif ko'z ilg'ay oladigan, yozma yodgorliklarda o'z aksini topgan tariximiz davosmida (V-XIX asrlarda) - mutlaqo so'nmagan, zaiflashgan paytlari bo'lgan va bunday ziddimilliy (zidditurkiy) holatlar Mahmud Qoshg'ariy, Mir Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Abulg'oz Bahodurxon kabi turkiy til yalovbardorlarining to'laqonli asoslangan isyoniga sabab bo'lgan. Shu isyonlar tufayli o'zbek tilida ta'lif tizimi XIX asrning o'rtalarigacha mutlaqo so'nmagan va yangi davrda - O'zbekistonimizda (Turkistonda) milliy ozodlik, vatanparvarlik g'oyalari tarannumi kurashchilari-jadidlar harakatida vatanparvarlik, millatparvarlik gulxanining porlashiga asos va zamin vazifasini o'tagan. Bu masala ishimizning navbatdagi bandida muhokama etiladi.

Ona (o'zbek) tilidagi ta'lifning VI-XIX asrlardagi holatini yozma yodgorliklar materiallari bo'yicha o'rganish asosida bu davrlarda ona (o'zbek, turkiy) til ta'lifi oldida qo'yilgan uch asosiy maqsadni ajratish imkonini beradi. Bular:

birinchidan, savodxonlikni ta'minlash. Bunda, asosan, savod - o'qiy olish va yozma matnni uqa olish tushunilgan;

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998. 11-29-b

ikkinchidan, ma'lum mafkuraviy g'oyalarni (IX asrdan boshlab islomiy) singdirish va savodli mo'minni tarbiyalash;

uchinchidan, ona (o'zbek) tilidagi diniy-axloqiy va badiiy adabiyotning eng sara namunalari bilan tanishtirish.

Ona (o'zbek) tilidagi ta'lim maqsadidan ko'rinish turibdiki, X-XIX asrlarda ta'lim maqsadida turg'unlik hukm surgan. Bu ta'lim mazmuni, usuli va materialida ham o'z aksini topgan. Shuning uchun Mir Alisher Navoiy XV asrda, Sadreddin Ayniy, Abdulla Avloniy, G'afur G'ulomlar XX asr boshlaridagi holati tavsifini bergan eski maktabda ta'lim materiali (dars kitoblari) ham, ta'lim usuli ham, maqsad-u mazmuni ham bir xil bo'lgan. XIV- XV asrlarda ta'limda bolaga farqli (individual-differentsial) yondashuv nishonalari bo'lgan bo'lsa ham, XVI asrdan keyin bu ham umumiyligi ta'limdan oliv (madrasa, mutaxassislik) ta'limiga ko'chirilgan va ibridoiy maktab faqat yuqorida sanab o'tilgan uch maqsad bilan cheklangan. IX-XV asrlarda ilmiy, madaniy, iqtisodiy va harbiy yuksakligi bilan jahonga dovrug'i ketgan Movaraunnahrning XVI asrdan keyingi tanazzulining qator sabablaridan biri bu davrda ta'lim maqsadi va mazmun-u usulidagi turg'unlik bo'lgan bo'lsa ajab emas; bu davrda ibridoiy maktab bitta maqsad – savodli mo'minni tarbiyalash bilan cheklandi. Bu esa ta'lim oluvchilarini oldinga emas, balki orqaga (rasmiy-ortodaksal) islom shakllangan XIV-XV asrlarga tortar edi va taraqqiyotga undamas edi

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. M.Qoshg'ariyning qaysi ma'lumotlari asosida, biz bema'lol, X-XI asrlarda ta'lim o'choqlarida islomiy-mafkuraviy yo'nalishdagi turkiy tildagi ta'lim an'anasi so'nmaganligini aytu olamiz?

2. Temuriylar davriga k'elib ta'lim-tarbiya tizimining asosiy mafkurasi islomiy, tili arabiyy va forsiy bo'lganligidan dalolat beruvchi qanday dalillar mavjud?

3. Mir Alishep Navoiy o'z davri maktablarini, undagi mashg'ulot mavzularini (saboqlarni) qanday eslaydi?

4. Sayfi Saroyining "Guliston" bit turkiy" asari, o'sha davrda maktab dasturining asosiy tarkibiy qismi bo'lgan Sa'diy "Guliston"ining turkiy tildagi bayon-sharhi nimadan dalolat beradi?

5. "XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida turkiy tildagi ta'limgas masalasi qaytadan, butun keskinligida ko'tarib chiqildi." Jumla ma'nosini izohlang.

6. Abulg'ozzi Bahodirxonning "turklar g'aturkon aytmoq kerak" deb hisoblashining boisi nimada?

7. Tojiddin Yolchiquuning "Risolayi Aziza" asari va Sayyid Habibulloh ibn Sayyid Yahyoxon al Farqoniy al Qobuliy qalamiga mansub "Hidoyatut-tolibin" asari qaysi zarurat asosida yaratildi?

8. Prezidentimiz I. A. Karimovning: "*Tariximiz haqida gap ketganda, biz hamon rus olimlarining tadqiqotlariga tayanamiz... Lekin qachongacha biz tariximizni birovlarning nuqtayi nazari, qarichi bilan baholaymiz. O'z davlatimiz, xalqimiz, millatimiz tarixini o'zimiz tiklamasak, o'zimiz xolisona yozmasak, uni boshqalar boshqacha qilib yozadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib o'zlikni anglash mumkin emas...*" degan gaplari mazmunini o'z so'zingiz bilan tushuntiring.

9. Ona (o'zbek) tilidagi ta'limgasing VI-XIX asrlardagi holatini yozma yodgorliklar materiallari bo'yicha o'rganish asosida bu davrlarda ona (o'zbek, turkiy) til ta'limi oldida qo'yilgan uch asosiy maqsadni ajratish imkonini beradi. Bular qaysilar?

10. Nima uchun X-XIX asrlarda ta'lim maqsadida turg'unlik hukm surgan?

Foydalanimish uchun adabiyotlar: [1; 2; 3; 4; 5; 13; 14; 29; 34; 35; 36; 43]

JADIDLARNING ONA TILI TA'LIMI UCHUN KURASHLARI

Reja:

1. "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir".

2. Ta'limgas tili to'g'risida jadidlarning (ibtidoiy maktab tili bolalarning ona tiliga asoslanishi kerakligi haqidagi) mushtarak fikri.

3. Jadid adiblarining ta'limga va uning tili masalasiidagi turli qarashlari.

4. Ta'limga dunyoviy lashtirish yo`nalishida jadidlarning xizmati o`zbek madaniyati tarixida inqilobiydir.

5. Jadidlarni ona tili ta'limi maqsadini xat-savodli (madaniyatli), zamonaviy fan-texnika asoslaridan xabardor, milliy ruhli shaxsni tarbiyalash deb tushunganlar.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar

Jadid, jadidchilik, Jadidchilik harakatining markazida tarbiya va ta'limga muammosi, turkiy tushunchasi, "umumturk adabiy tili" g`oyasi, "o`zbekiy", "o`zbekcha", "o`zbek tili" atamalari, Jadidlarda yangilangan ona tili ta'limi maqsadi

Haq yo`li al, atta bir o`tilgusi.

Cho`lpon

O`zbekiston (Turkiston)da jadidchilik harakatini, ularning dunyoqarashini, millat, vatan, til, taraqqiyot, iqtisod, madaniyat va mafkuraga doir ishlarini o`rganishimiz imkoniyatini bizga Milliy Istiqlolgina bera oldi, chunki 1991-yilgacha "jadid" tushunchasi "xalq dushmani", "xoin", "vatan dushmani" tushunchalari bilan teng edi; ular haqida gapirilsa, ularga nisbatan faqat haqorat so`zlarni ishlatsish mumkin edi, xolos. Shu bois o`zbek xalqi tarixida XX asrning boshlarida shakllangan jadidchilik harakati sovet tarixshunosligida mutlaqo yoritilmas, ular haqida gap borganda salbiy bahodan o`zga hech narsa berilmas edi.

Istiqlol xalqimiz, milliy madaniyatimizning bu muhim sahifalarini haqqoniy va xolisona o`rganishga imkon yaratdi hamda XXI asr bo`sag`asida bu sohada ancha tadqiqotlar amalga oshirildi¹, bir qator

¹ Зуминуков А. Узбек педагогикаси тарихи - Г: Уқитувчи, 1997 - 272 б; Каримов И. Узбекистонда алибий харакатлар // Узбекистон адабиети ва санъати - 1995, 20 январь - № 3; Миртохиров М., Махмудов Н. Тил ва маданият. - Т. 1992 ; Узбек педагогикиси II жилд. - Г: Уқитувчи, 1999 - 480 б.; Косимов Б., Долимов У. Маврифат даргалиари. - Т.: Уқитувчи, 1990 - 176 б.; Ҳонимов К., Нишонов С., Иномова М., Ҳасанов Р. Педагогика тарихи - Т.: Уқитувчи, 1996 - 450 б.

ilmiy anjumanlar o'tkazildi¹, jadidchilik harakati namoyandalari merosining ommavii nashrlari amalga oshirildi.²

Jadidchilik harakatining markazida milliy taraqqiyot, milliy-zamonaviy madaniyat va ta'lim, undan keyingina iqtisod va siyosat masalalari turganligi sababli t a r b i ya va t a l i m muammosi jadidlarda eng muhim masala edi. Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir"³ degan jumllalari fikrimiz isbotidir. Tarbiya va ta'lim tizimining asosini esa mafkura, ta'lim tili tashkil etadi. Mafkura nuqtai nazaridan jadidlar yakdillik bilan m i l l i y - z a m o n a v i y , i s l o m i y , d u n y o v i y qarashda bo'salar-da, ular til masalasida to'la hamfikrlikka ega emas edilar. Jadidlarning millat tili, millat nomi, ta'lim tili haqidagi qarashlari hali atroflicha va chuqur tahlil etilishi zarur. Bu sohada qilingan ishlar barmoq bilan sanarli.⁴ Vaholanki, jadidlarning millat tili va ta'lim tiliga munosabati madaniyatimiz tarixida muhim ahamiyatga egadir. Birinchidan, sof islomiy mafkuradan farqli o'laroq ular millat tili va ta'lim tili birligini ko'zlar edilar; millat ta'limni o'z ona tilida olmog'i lozim. Islomda rasmiy-ta'limiy til sifatida Qur'on tili, ya'ni arab tili asosiy sanalar edi. Shunga ko'ra oldingi bandda ko'rsatib o'tganimizdek, ibtidoiy ta'limning ilk

¹ Фитрат миллый феномени, алабий, илмий-назарий мероси, ижтимоий-сийесий фаолигига багишланган биринчи жумхурят илим-амал анжумани материаллари. – Бухоро: 1992. – 122 б. Фитрат миллый феномени, алабий, илмий-назарий мероси, ижтимоий-сийесий фаолигига багишланган иккинчи жумхурят илим-амал анжумани материаллари. – Т: 1994. – 135 б.

² Авлоний Абдулла. Таиланган асрлар 2 жилдик I-жилд (Нашрга тайёрловичи Б.Косимов.) – Т: Махнавият, 1998. – 272 б. Авлоний Абдулла Таиланган асрлар 2 жилдик 2-жилд (Нашрга тайёрловичи Б.Косимов) – Т: Махнавият, 1998. – 304 б., Бекбулат М. Таиланган асрлар (Нашрга тайёрловичи Б.Косимов). Т: Махнавият, 1997. – 132 б. Фитрат Чин севиш. – Т: Г.Гулом номидаги Алабий-ва санъат нашриёти, 1996. – 253 б. Элбек. Мунгли күшум (Нашрга тайёрловичи О. Абдулаев) – Т: А. Кодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999. – 142 б. Элбек Таиланган асрлар (Нашрга тайёрловичи Х.Узоков) – Т: Шарқ, 1999. – 285 б. Ҳамза Тўла асрлар тўплами. 5 томлик. Т. II. (Масъул мухаррир Н. Каримов ва б.) – Т: Фан, 1988. – 564 б. ва б.

³ Авлоний Абдулла. Таиланган асрлар 2 жилдик I-жилд (Нашрга тайёрловичи Б.Косимов) – Т: Махнавият, 1998. – 272 б.

⁴ Ёбонуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожига Элбекнинг роли – Филол. Фанлари номзоди дисс. Автореф – Т: 2001. – 32 б. Йўлдошев М. Чўллоннинг бадний тил маҳорати («Кечи ва кундуз» романни мисолида) Филол. Фанлари номзоди дисс. автореф – Т: ТАИ, 2000. – 30 б.; Сандов ё. Фитрат бадний асрлари лексикаси Филол. Фанлари номзоди дисс. автореф – Т: ТАИ, 2001. – 28 б.; Тогаев Г. Ашурали Зоҳирий ва унинг тилшунослик мероси. Филол. Фанлари номзоди дисс. автореф – Т: ТАИ, 2005. – 28 б.; Туйчибоев Б. Фитрат ва хозирги ўзбек алабий тили. Фитрат анжумани материаллари – Бухоро, 1992. – 73 б. – 39-42-6; Курбонова М.Абдурауф Фитрат ва ўзбек тилшунослиги (Методик кўлланма). – Т: Университет, 1997. – 48 б.; Курбонова М. Фитрат – тилшумос. – Т: Университет, 1996. – 32 б.; Курбонова М. Фитратнинг тилшунослик мероси. Филол. Фанлари номзоди дисс. автореф – Т: 1993. – 29 б.; Кутлумуродова М. Ўзбек тилшунослиги тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1990. – № 3.

boshqichi – taxtacha~abjad~"haftiyak" qismlari Qur'oni to`g'ri o'qiy olish malakasini shakkantirishga qaratilgan edi. Ikkinchidan, jadidlar ta'limning islomiyligiga qarshi emas edilar, biroq uning ilk boshqichini Qur'oni o'qish malakalarinigina hosil qilishga qaratilganiga qarshi edilar. Shuning uchun Abdulla Avloniy "Birinchi muallim" kitobi (darsligi)ning so'z boshisida shunday yozadi: "Muhtaram muallimlarimizdan rijo qilurmanki, bizning "Birinchi muallim"imizdan ham olub, tajriba qilub, o'qutub ko'rsalar ...". Ko'rinish turibdiki, ustozi Avloniy bolalar taxtacha~abjad~"haftiyak" o'mida dunyoviy-axloqiy-tarbiyaviy mohiyatga ega bo'lgan "Birinchi muallim" kitobini o'rganishlarini tajriba qilib ko'rishni ehtiyyotkorlik bilan taklif etadi. Birinchi nashri 1912-yilda amalga oshirilgan "Birinchi muallim" kitobida oddiydan murakkabga borish tamoyiliga qat'iy amal qilinadi. Dastlab harflar alifbo tartibida keltiriladi, so'ngra navbatil qaysi o'rinda qanday yozilishi va ularga oid ixcham, soddalar misollar beriladi. Bosh harflar, o'rta, oxir harflar tushuntiriladi, niroyat, pand-nasihat tarzidagi ibrotomuz matnlarga o'tiladi.

O'sha davrda jadidlar ta'lim tilini to'la-to'kis ona (turkiy)lashtirish taklifini o'ta jur'atsizlik bilan ko'tarib chiqdilar. Ular ta'lim ona tilida bo'lishini talab etsalar-da, ta'lim tizimidan fors va arab tillarini chetlashtirish taklifiga jur'at qila olmas edilar. Chunonchi, Mahmudxo'ja Behbudiy 1913-yilda yozgan "Ikki emas, to'rt til lozim" maqolasida shunday yozadi: "Biz turkistoniyarg'a turkiy, forsiy, arabiyy va rusiy bilmog' lozumdu"². Ushbu maqolada Behbudiy bu tillardan har birining ta'lim tizimida tutgan o'mini alohida ochib beradi.

Ta'lim tili to`g'risida jadidlarning ibtidoiy maktab tili bolalarning ona tiliga asoslanishi kerakligi haqidagi mushtarak fikri Saidrasul Aziziyning "Ustozi avval" (1900), Munavvar Qori Abdurashidovning "Adibi avval" (1907), Behbudiyning "Kitobi muntaxabi jo`g'rofiy umumiyy" (1906), "Kitobatul-atfol" (1908), Hamzaning "Engil adabiyot" (1911), "O'qish kitobi" (1911), "Qiroat kitobi" (1912), Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim" (1912), "Ikkinchi muallim" (1912),

¹ Авлоний Абдулла. Таилингиз асарлар 2 жиғадлик 2-жилд (Нашрия тайерловчи Б.Косимов.) – Т. Маннанбайт, 1998. – 6-б.

² Бехбудий М. Таилингиз асарлар (Нашрия тайерловчи Б.Косимов) – Т. Маннанбайт. 1997. 60-б

"Turkiy guliston yohud axloq" (1913), "Maktab gulistoni" (1917), Elbekning "O'zbekcha o'qish" (1922) kabi kitob (darslik)larida o'z aksini topdi.

Jadidlarning ta'limdi ona tilida bo'lishi (hech bo'lmasa boshlanishi) to'g'risidagi fikrlari yakdilona bo'lsa-da, ona tilining, millat tilining qandayligi masalasida ularning dunyoqarashida katta tafovutlar bor edi. Bu masala qisman M.Qurbanova¹, Y.Saidov², T.Tog'ayev³, Sh.Bobomurodova⁴ ishlarida ko'rildi.

1913-1917-yillarda ko'pgina jurnal va gazetalarda, chunonchi, "Sadloyi Turkiston" gazetasi, "Oyna" jurnalida "Til masalasi" bo'limi (rubrikasi) mavjud bo'lib, bu bo'limda til, atamashunoslik, imlo muammolariga doir maqolalar joylashtirilar edi. Jadidlarning tilga bag'ishlangan maqolalari ko'p. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Ikki emas, to'rt til lozim" (1913), "Til masalasi" (1915), "Sart so'zi majhuldir", "Sart so'zi ma'lum bo'lmadi" (1916)⁵, Fitratning "Tilimiz" (1919) kabi maqolalari shular jumlasidadir. Bu maqolalar, asosan, o'zbek (turkiy) tilning asossiz xo'ranganligi, toptalganligidan chekilgan afsus va nadomatlardan iborat.

Behbudiyning "Til masalasi" maqolasi bir oz farqlidir. Ikki qismdan iborat bu maqolaning "Oyna" jurnalining 1915-yil 11-sonida bosilgan birinchi qismida turkiy tillarning sheva va lahjalari, Turkistonda turkiy va forsiy-ikki tillilik masalasi yoritilgan. Maqolaning, "Oyna" jurnalining 12-sonida bosilgan ikkinchi qismida esa Turkiston uchun umumiyligi, milliy-adabiy til masalasi, jumladan, ta'lim tili masalasi kun tartibiga qo'yildi. Muallif-Behbudi 1910-1915-yillarda jadid matbuoti sahifasida hukmron bo'lgan "Tilimizdan forsiy va arabiyni quvayluk" shiorini "Ko'p yengil, ammo ijrosi mumkin emas orzulardandur" deb baholaydi⁶ va butun Turkiston mintaqasi uchun

¹ Курбонова М.Абдурауф Фитрат ва ўзбек тилшунослиги (Методик кўлланма) –Т. Университет, 1997.– 48 б., Курбонова М. Фитрат–тилшунос –Т. Университет. 1996.–32 б.; Курбонова М. Фитратнинг тилшунослик мероси. Фил. фан. ном дисс. автореф.–Т. 1993.– 29 б.

² Saidov ё. Фитрат бадний асрлари лексикаси. Фил. фанлари ном дисс. автореф.–Т. ТАИ, 2001.– 28 б.
³ Тогаев Т. Ашурали Зохирий ва унинг тилшунослик мероси. Фил. фанлари номзоди дисс. автореф.– Т. ТАИ, 2005.–28 б.

⁴ Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожида Элбекининг роли – Филол. фанлари ном. дисс. автореф.– Т. 2001.–32 б.

⁵ Бехбудий М. Таъланган асрлар (Нашрга тайёрловчи Б.Косимов). – Т. Мънавият, 1997.– 167-169-б.

⁶ Бехбудий М. Таъланган асрлар (Нашрга тайёрловчи Б.Косимов). – Т. Мънавият, 1997.– 167-б.

yagona adabiy til yaratish mumkin emasligini abiy va forsiy, oddiy turkiy lug'at ila hozirgi shevalarcha yoza bermoqdin boshqa iloq yo'qdur"¹ degan g'oyani ilgari suradi. Behbudiy fikricha, Turkistonda yagona ona tilini ta'lif tizimiga joriy etishdan oldin, onalarimizning o'zlarini bir necha avlod davomida me'yorashtirilgan adabiy tilda o'qitilgan bo'lmoq'i lozim.

Jadidlarning fikricha, ta'lif tili turkiy bo'lmoq'i lozim, biroq turkiy tushunchasi, uning mohiyati aniq emas edi. Juda ko'p hollarda "turkiy" deganda jadidlar Ismoil G'aspirali tomonidan tashkil etilgan "Tarjumon" (nashri 1883-yil 10-apreldan boshlangan) gazetasining qrim-tatar, turk-usmonlicha aralashmasidan iborat bo'lgan "til"i tushunilar edi. Ismoil G'aspiralining jadidlarga, xususan, Rossiyadagi turkiyzabon jadidlarga ta'siri juda kuchli edi.

Bu haqida Mahmudxo'ja Behbudiy "Ismoilbek hazratlari" (vafotnomasi)da: "Shundayki, bu kunda Russiya musulmonlari ichinda har bir muallim va har usuli savtiya maktablarining shogirdi va har bir jaridaxon va har bir jarida muharriri marhumning bilvosita shogirdonidandurlar. Ya'ni ustozi muazzamning bu kun Russiya musulmonlari arosinda milyo'nlar ila ulamodan muharririn va muallimindan va o'quvchilardan shogirdi bordur. ham qanday shogird! O'ttiz sanadan beri doimo onga dars o'qiydurg'on shogirdlardur"² deb Ismoil G'aspiralining jadid adiblari va ma'rifatparvarlari asarlari tiliga kuchli ta'sirini ko'rsatadi. Albatta, ja'didlarning kattagina qismining Turkiyada ta'lif olganligi ham bunga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi Mahmudxo'ja Behbudiy ham o'z maqolalarida turkiy til deganda, asosan, o'zbekcha-turkiy - usmonlicha aralashma tilini tushunadi: "...turkiy bilinglar,-deb yozadi Behbudiy,-Firdavsiy, Bedil, Sa'diy "Masnaviy"dan qanday lazzat olsa, turkiy bitganlar Fuzuliy, Navoiy, Boqiy, Somiy, Abdulhaq Homid, Akrambek, Sanoyi, Nobiy, Nojiylardan, yana Tolsto'y, Jul Vern va ulamoyi zamonaviy asarini turkiy tarjimasidan lazzat shunday oladur"³. Bu sirada sanalgan Fuzuliy, Navoiydan boshqa adiblarning barchalarining asarlari usmonli turk

¹ Оша асар - 170-б.

² Оша асар - 163-164-б

³ Бехбудий М. Таиланган асарлар (Нашрига тайёрловчи Б. Косимов) Т. Маснавият, 1997 - 167-б

tilida yozilgan yoki asarlari usmonlia-turkchaga tarjima qilingan yozuvchilardir.

Jadid ma'rifatparvar adiblarining, xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza, Munavvar Qorilarning 1910-1917-yillarda yozgan maktab ta'limiga mo'ljallangan (nomlari yuqorida sanab o'tilgan) darsliklarini til jihatidan tahlil etganimizda qiziq hodisaning guvohi bo'lamiz. Mazkur asarlarning muqaddimalari usmonlichcha-o'zbekcha turkiy (aniqrog'i "Tarjumon" gazetasi nutqi me'yorlariga mos) bo'lsa, berilgan matnlar, ibratli hikoyalari, she'rlar va boshqa asosiy o'quv materiallarining tili eski o'zbek tili ta'siri sezilib turgan hozirgi o'zbekcha turkiyidir. Abdulla Avloniying "Birinchi muallim"idan olingan ikki parchani fikrimiz dalili sifatida solishtiramiz:

Birinchi parcha: "...millat bolalarina foydabaxsh o'fur umidinda bir necha muallimlarimizning iltijolari ila ko'b vaqt tajriba so'ngindan bu risolai ojizonamni "Birinchi muallim" ismi-la maydoni intishora qo'ydim. ...Inson nuqsandan xoli o'lmadig'i kabi qilg'on amali ham qusur va xatodan ori(y) o'limas. Shul sababli muallimlarimiz har bir qusur va kamchiliklarimizdan tanbih va tanqid ila ogoh qilsalar edi".

Ikkinci parcha: "Bir kishining Qosim ismli bir o'g'li bor edi. Ota va onasining so'ziga kirmasdan har xil yomon ishlarni qilur edi. Bolalar birla urushub, yaqolashub kiyimlarini yirtub kelur edi. Uyda onasi mehmon uchun asrab qo'ygan taomlarini yegon vaqtida, onasi: - "Qosim, o'g'lim! Taomni sen edingmu?"-desa, -"Men eganim yo'q, mushuk yegandur", -der edi...²

Hech qanday tadqiqotsiz ham birinchi parchaning tili o'zbek uchun sun'iy, ikkinchi parcha esa uning ona tili me'yorlarini aks ettirayotganini sezish qiyin emas. Chunki birinchi parcha asarning "Muqaddima"sidan, ikkinchi parcha esa o'zbek bolalari uchun o'qib o'rganishi zarur bo'lgan asosiy matndan olingandir. Shunga o'xshash hodisani barcha o'zbek jadid ma'rifatparvarlari darsligida ko'rish mumkin.

¹ Авлоний Абдулла. Таинланган асарлар. 2 жиллик 2-жилд. (Нашрға тайёрловчи Б.Қосимов.) – Т.: Маннанба, 1998.– 6-б

² O'sha asar – 6-б

Bundan xulosa qila olamizki, jadidlar to`la anglamagan holda Ismoil G`aspirali ilgari surgan, Turkiyada Anvar, Rif`at, Tal`at uchligi targ`ib etgan "umumturk adabiy tili" g`oyasi o`zbeklar uchun yot ekanligini tushunganlar, "Muqaddimä"larida, maqolalarida bu sun`iy tilga tayanishga harakat qilgan bo`lsalar-da, haqiqatda asosiy tahlil va o`rganishga mo`ljallangan matnlarni o`zbek adiblarining an`analari hamda mahalliy shevalariga tayangan holdayozganlar. Yuqoridagi parchalar qiyosi buning yorqin misolidir.

Jadidlarda ona tili ta`limi, ta`lim tilining nomlanishi ham yakdillikka ega emas edi. Bu tilni ular, asosan, "turkiy" deb ataydilar, lekin, aytib o`tganimizdek, bu so`zning ma`nosи o`ta noaniqdir. Bizning aniqlashimizcha, birinchilardan bo`lib 1913-yilda Mahinudxo`ja Behbudiy tomonidan til nomi sifatida o`zbek i y atamasi qo`llaniladi. Shunda ham "o`zbekiy" so`zini muallif turkiy so`zining ma`nodoshi sifatida keltiradi: "Turkiy, ya`ni o`zbekiyini sababi shulki, Turkiston xalqining aksari o`zbekiy so`ylashur"¹.

Hamza ham o`zbek tili deganda hozirgi jonli so`zlashuv shevalariga yaqin bo`lgan tilni nazarda tutadi: "...haqiqatda qasdan o`zbek tilida ekan, biz o`zbek tiliga yaqinlashdurmoqqa kirishdik. Bu to`g`rilarda qusurlarimiza avlarim rijo va niyoz etarmiz"². Haqiqatan ham, 1910-1920-yillarda hozirgi O`zbekiston mintaqasining rasmiy mintaqaviy (territorial) nomi ham (Turkiston, Turon, Movaraunnahr), xalqning nomlanishi (sort, sart, o`zbek, turkistoniy, turkiy va b.) ham munozarali va rasmiylashmagan edi³.

Jadid adiblarining ta`lim va uning tili masalasidagi qarashlariga oid fikrlarimizni yakunlab ayta olamizki, ular maktab ta`limining tili ona tili-o`zbekiy-turkiy til bo`lishi g`oyasini, uning keng o`quvchilar ommasiga tushunarli bo`lishini targ`ib etganlar va o`z amaliyotlarida shunga tayanib ish ko`rganlar. Jadidlар nazariy jihatdan sun`iy umumturk tilini targ`ib etganday bo`lsalar-da, amaliyotda undan o`z

¹ Бехбудий М. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи Б.Косимов). Т. Мәннавият, 1997. 160-б.

² Хамза. Тўла асарлар тўплами. 5 томлик Т. II (Масбул мухаррир Н.Каримов я б.). Т. Фан, 1988 -68-б.

³ Озаронг. Абдурахмонов F. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳакида. Т. ГДШИ, 1999 - 89-б.

Бехбудий М. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи Б.Косимов). Т. Мәннавият, 1997 - 171-179-б.

Полинянов Е.Д. Этнографическая характеристика узбеков Выш. I. Происхождение и наименование узбеков. - Т. Изв. Узб. гос., 1926 - 31 стр.

asarlarining muqaddimalari va jadidona kayfiyatdagি gazeta, jurnallardan tashqarida foydalanmaganlar. Jadidlarning sa'y-harakati bilan ma'rifiy-pedagogik adabiyotga "o'zbekij", "o'zbekcha" "o'zbek tili", atamalari ham kirib kela boshladi. Biroq, jadidlar ta'lim tizimida ona tilini o'quv predmeti sifatida maxsus o'qitish vazifasini hali o'rta ga qo'ymaydilar, ammo ular adabiy til me'yorlarini onalarga o'qitmoq zarurligi muammosini ko'tarib chiqadilar.

Ta'limni dunyoviylashtirish yo'nalishida jadidlarning xizmati o'zbek madaniyati tarixida inqilobiydir. O'zbekiston mintaqasidagi maktablarda dunyoviy-ma'rifiy ta'limni ona tilida yo'lga qo'yishda, zamonaviy ta'lim usullarini ommalashishida, ona tilida imlo, talaffuz va qiroatni yo'lga qo'yishda jadidchilik harakatining ijobiy ta'siri sezilarli bo'ldi. Biroq, jadidlar ilmiy-nazariy jihatdan ham, iqtisodiy-siyosiy jihatdan ham, hududiy-mintaqaviy jihatdan ham o'ta chegaralangan bo'lganligi sababli yagona milliy davlat, yagona milliy adabiy til, yagona milliy ta'lim tizimi va uning tili masalalarini kun tartibiga qo'yishdan nariga o'ta olmadilar.

Bu masalalar o'zbek xalqi taraqqiyotining navbatdagи davri – O'zbekiston sho'rolar Respublikasi ta'sisidan keyingi rivojlanish boshqichida qo'yildi va o'z yechimini topdi. 1924-yildan keyingina O'zbekiston maktablarida "Ona tili (o'zbek tili)", "O'zbek tili grammatikasi" o'qituv predmetilari ta'limning majburiy tarkibiy qismi sifatida joriy qilindi. Shunday qilib, jadidlar ona tili va ona tili ta'limi maqsadini belgilashda ona tilining тұркібы о'ліши, ta'limning zamon ilm, madaniyati va taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lishini (ya'ni uning zamonaviyligi va dunyoviyligini) ko'zlab to'g'ri yo'l tutganlar. Afsuski, ular, birinchidan, millat va milliy til xususida aniq dunyoqarashga ega emas edilar, shuning uchun millat tushunchasi, milliy til tushunchasini to'g'ri belgilay olmadilar. Ikkinchidan, ular, tabiiyki, o'sha ijtimoiy-siyosiy-mafkuraviy-iqtisodiy sharoitda ta'limning tugal dunyoviyligi muammosini o'rta ga qo'ya olmas edilar. Shuning uchun ham ularda ta'limning mafkura jihatdan islomiy bo'lishi zarur shartlardan biri edi.

Bundan xulosa qilib ayta olamizki, jadidlar ta'limni to'la-to'kis ona (o'zbek) tiliga o'tkazishni, uni islomiy dunyoqarashdan uzilmagan holdazamonaviy ilm-texnika, iqtisod va siyosatdan xabardor shaxsni tarbiyalashga qaratishni, bunday shaxsni tarbiyalashda ona tilini asosiy quroq qilish g'oyalarini ilgari surdilar. Ona tili ta'limi oldida xat-savodlilikni ta'minlash, zamonaviy bilim va madaniyatni egallahsga yo'l ochish maqsadi qo'yilgan edi. Bundan xulosa qila olamizki, jadidlar ona tili ta'limi maqsadini endi oddiy savodli mo'minni yetishtirish deb emas, balki xat-savodli (madaniyatli), zamonaviy fanta texnika asoslaridan xabardor milliy ruhli shaxsni tarbiyalash deb tushunganlar. Bunday tushunish, shubhasizki, XV-XIX asrlarda hukmron bo'lgan xat-savodli musulmonni yetishtirish maqsadidan bir boshqich baland edi-o'quvchini zamonasining ilg'or fani va madaniyatini egallahsga layoqatli, shu bilan birga milliy tuyg'ular bilan yo'g'rilgan tarzda tarbiyalash vazifasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. O'zbekiston (Turkiston)da jadidchilik harakatini, ujarning dunyoqarashini, millat, vatan, til, taraqqiyot, iqtisod, madaniyat va mafkuraga doir ishlarini o'rGANISHIMIZ imkoniyati qachon va qanday paydo bo'ldi?
2. Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir" degan jumllari hozirda ham ahamiyatlimali?
3. Birinchi nashri 1912-yilda amalga oshirilgan "Birinchi muallim" kitobi haqida ma'lumot bering.
4. O'sha davrda jadidlar ta'lim tilini to'la-to'kis ona (turkiy)lashtirish taklifini o'ta jur'atsizlik bilan ko'tarib chiqdilar. Nega?
5. Fitrat nimani "ko'p yengil, ammo ijrosi mumkin emas orzulardandur" deb baholaydi?
6. Ismoil G'aspirali jadid adiblari va ma'rifatparvarlari asarlari tiliga qanday ta'sir ko'rsatgan edi?
7. Hamza o'zbek tili deganda qaysi tilni nazarda tutadi? Mahmudxo'ja Behbudiy-chi?

8. “Jadidlar ilmiy-nazariy jihatdan ham, iqtisodiy-siyosiy jihatdan ham, hududiy-mintaqaviy jihatdan ham o`ta chegaralangan bo`lganligi sababli yagona milliy davlat, yagona milliy adabiy til, yagona milliy ta’lim tizimi va uning tili masalalarini kun tartibiga qo`yishdan nariga o`ta olmadilar”. Jula ma’nosini izohlang.

9. Nima uchun jadidlarda ta’limning mafkura jihatdan islomiy bo`lishi zarur shartlardan biri edi?

10. Jadidlar davrida ona tili ta’limi oldida qanday maqsad qo`yilgan edi?

Foydalaniш uchun adabiyotlar: [1; 2; 3; 5; 20; 21; 38; 40; 55; 56; 134; 214; 215; 216]

SOVET DAVRIDA ONA (O`ZBEK) TILI TA’LIMI MAQSADI

Reja:

1. Ta’lim muassasalarida ona tilini maxsus o`quv predmeti sifatida o`qitish zarurati.

2. Ona tili ta’imida adabiy til me’yorlarni singdirish davri (1925-1970-yillar).

3. Ona tili ta’imida nutq (og’zaki va yozma)ni rivojlantirish davri (1970-1990-yillar).

Mavzuga oid tayanch tushunchalar

Sovet davrida ona (o`zbek) tili ta’limi va uning maqsadi, jamiyat~ehtiyoj~ishlab chiqarish va ona tili ta’limi

Ona tilida ta’lim jarayonida, oldingi bandda ko’rib o’tganimizdek, savod chiqarish, imloni o’rgatish, o’qish-yozish malaka va ko`nikmalarini shakllantirish bilan bog’liqravishda ona tili ta’limi oldida turgan bosh maqsad - savodxonlikni ta’minlash o’z ifodasini topadi va ta’lim muassasasida ona tilini maxsus o`quv predmeti sifatida o`qitishga alohida bir ehtiyoj qolmaydi. Lekin XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida butun dunyoning rivojlangan davlatlari ta’lim

muassasalarida ona tilini maxsus o'quv predmeti sifatida o'qitila boshladi. Buning asosiy sababi Yevropa davlatlarida feodal tarqoqlikka barham berish bilan kichik-kichik manufakturalardan katta sanoat ishlab chiqarish korxonalarining rivojlanishi, ularda ishlaydiganlar nutqida shevaviy farq va tafovutlarni yo'qotishga zarurat kabi hodisalar edi. Ulkan sanoat korxonalari, ulardagi texnik vositalar ishlab chiqaruvchilardan mahalliy-hududiy shevalarida emas, balki butun millat (xalq, davlat) uchun umumiyo bo'lgan tilda – qat'iy me'yorlashgan adabiy tilda so'zlashishni, yozishni talab qilardi. Shu bilan birga mukammal va ancha murakkab harbiy texnika bilan jihozlangan yagona armiya, kalibrlashtirilgan o'q-dorilar, artillieriya, dengiz floti oddiy soldatdan ham nafaqat oddiy savodlilikni, balki adabiy til me'yorlarini bilishni talab etar edi. Mana shu ehtiyoj ta'lim o'choqlarida ona tilini maxsus o'quv predmeti sifatida o'r ganish va o'rgatish zaruratinini o'rtaga qo'ydi.

Demak, ona tilini maxsus o'quv predmeti va ta'lim manbayi bo'lishi uning ta'limi oldida – xat-savod, o'qish-yozishni o'r ganish kabi umumiyo maqsaddan boshqa – alohida bir xususiy maqsadning turganligi bilan uzviy bog'liqidir. Mazkur xususiy maqsad davr talablari bilan – ijtimoiy buyurtma sifatida belgilanadi va jamiyatning taraqqiyot boshqichi xususiyatlari bilan bog'liq ravishda o'z g a r u v ch a n dir. Ona tilining maxsus ta'limi oldida qo'yilgan xususiy maqsadning mohiyatiga ko'ra sovet davrida o'zbek tilini ona tili sifatida o'qitish jarayonini quyidagi davrlarga ajratish mumkin':

- 1) adabiy til me'yorlarni singdirish davri (1925 – 1970-yillar);*
- 2) nutq (og'zaki va yozma)ni rivojlantrish davri (1970 – 1990-yillar);*

Bu davrlarning har birida ona tili ta'limi maqsadi va uning voqelanish xususiyatlari ustida alohida to'xtalamiz.

Tabiiyki, savodsizlik, chalasavodlikni tugatishga qaratilgan ta'lim bu jarayondan tashqaridir; bunday ta'lim ona tili ta'limining umumiy vazifasi – xat-savod chiqarish bilan bog'liqidir

Adabiy me'yorlarni singdirish davri (1925 - 1970-yillar)

XX asrning boshlarigacha ta'lrim muassasalarida (ibtidoiymaktablarda) o'zbek tili me'yorlari, asosan, Alisher Navoiy, So'fi Olloyor, Mashrab, Huvaydo asarlari asosida o'rgatilar edi. Buni "Sanglox" ("Maboni ul-lug`at") muallifi Muhammad Mirza Mahdiyxon¹, Abulg'ozilardan boshlab Abdulla Avloniy², Mahmudxo'ja Behbudiy³, Hamza⁴, Sadriddin Ayniy⁵, G`afur G`ulom⁶ kabi adib va tadqiqotchilar alohida ta'kidlab o'tishgan. Chunonchi, Behbudiy bu haqida shunday yozadi: "Bahri Hazordan to Kashmir va Turkiston, Afg'on gacha qadim maktablarida "Navoiy", "Fuzuliy", "Sabotul ojizin", "Hikmat", "Huvaydo"... va boshqalar o'qulurki, bu kitoblar ahli savodni til birligiga sabab bo'lur".⁷ Bunday asarlar keng omma tilidan juda uzoq edi va buni yuqorida nomlari sanab o'tilgan adiblar takror-takror ta'kidlashgan. XX asrning boshlarida nafaqat O'zbekistonimizda, balki yangicha taraqqiyot yo'liga o'tgan juda ko'p davlatlarda zamonaviy milliylik muammosi ko'ndalang turardi.⁸ Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy bu haqida shunday yozadi: "Sodda til nima uchun kerak? Atrofingdagi qavm-u qarindoshing ilan so'zlashmoq uchun. Adabiy va ilmiy til nimag'a kerak? Mavjud ilm-u fan va tarixni bilmoq va alardan faydalamoq uchun. Endi bizg'a, lozimki, airof, ya'ni tevaragimizni adabiylashtirsak..."⁹ Millatni adabiy til bilan birlashtirish, shevaviy farqlarni yo'qotish juda ulkan va qiyin, lekin o'ta zarur ish ekanligini taraqqiy parvar adib o'sha davrdayoq (1915- yilda) uqqan va u kuyinib yozadi: "Taraqqiy etgan turkiy shevadagi ilmiy va fanniy kitoblarni anglamoqqa sa'y va harakat etayluk. Kelar zamon uchun

¹ Самойлович А.Н. Персидский турколог XVIII века Мирза Мехди-хан // Изв об-ва обследования и изучения Азербайджана. – Баку, 1927. № 5

² Авлоний Абдулла Танланган асарлар. 2 жилдлик. 2-жилд. (Нашрга тайёрловчи Б.Косимов.) – Т: Маянавият, 1998 – 304 б.

³ Бекбулий М. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи Б.Косимов). – Т: Маянавият, 1997 – 132 б

⁴ Хамза Тўлға асарлар тўплами 5 томлик. Т. II. (Масъул муҳаррир Н.Каримов ва б.) – Т: Фан, 1988 – 564 б.

⁵ Айний С. Эски мактаб. – Т.: Ўздавнашр, 1979. – 56 б.

⁶ Гулом Гафур. Танланган асарлар. Г. II. – Т.: Г. Гулом номидаги адабиет ва санъат нашриёти, 1972. – 416 б.

⁷ Бекбулий М. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи Б.Косимов) – Т: Маянавият, 1997 – 166-б

⁸ Младописьменные языки народов (Отв ред Е.А.Бокарев). – М.-Л.: АН, 1959. – 5-36-стр

⁹ Бекбулий М. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи Б.Косимов). – Т: Маянавият, 1997 – 169-б

hozirlanayluk, o'tgan zamon uchun emas. "Ona tili, ona tili" – bu yaxshi orzu. Ammo tilsiz onalar tilig'a maktabiy kitoblar yozila bersa, Turkistonda adadsiz kitoblar yozmoq lozim kelurki, Andijonda yozilgani Buxoroda, Avliyootada yozilgani qarshida anglashilmaydur. Chunki bu onalarni tili bir-biridan farqlikdur. Taraqqiy etgan millatlar onalarni o'qutar ekan, biz avval onamizni o'qutub, anga til o'rgatmog'imiz kerak. Chunki bizni ilm va tilsizligimiz alardandur".¹ Mana shu vazifa – "onamizni o'qutib, anga o'rgatmoq" – ta'lrim o'choqlarida ona tilini maxsus o'quv predmeti qilib kiritishni, uning oldiga o'ziga xos maxsus maqsadni – *adabiy til me'yorlarini singdirish va ommalashtirishni* qo'yishni talab etar edi. Tabiiyki, yangi maqsad yangi mazmun, yangi vositalarni talab etardi.

Bu maqsadga erishishning Yevropa davlatlari tajribasida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida sinalgan hamda o'zini oqlagan usuli ona tilining me'yoriy grammatika, imlo va talaffuz me'yorlarini mакtabda maxsus ta'lim mazmuni qilib olish edi. Natijada, ona tili ta'limi oldida maxsus xususiy (xat-savod o'rgatishdan boshqa) maqsad – umummilliy adabiy til me'yorlarini o'rgatish va ommalashtirish qo'yilgandi. Shuning uchun XX asr boshlarida bu o'quv predmeti "Ona tili" nomini olgunga qadar (1970-yilgacha) "Grammatika" deb atalar edi. Fikrimizni Abdurauf Fitratning mazkur o'quv predmetidan O'zbekistonimizda 1925-1930-yillarda amalda bo'lgan birinchi darsliklari "Sarf", "Nahv"², 1938-1943-yillarda amaliyotda bo'lgan O.Usmonov, B.Avezov va S.Ferdouslarning, 1943-1956-yillarda amalda bo'lgan A.Barovkov, A.G'ulomov, Z.Ma'rupov, T.Shermuhammedovlar darsliklarining nomlanishi ("O'zbek tili grammatikasi") ham tasdiqlaydi. Ona tili darsliklarida *grammatika* (ya'ni ona tili grammatikasi)ni o'rganilar edi. Ona tilining maxsus ta'limi oldida adabiy til me'yorlarini ommalashtirish bosh maqsad bo'lgan davrda bu yagona to'g'ri yo'l edi.

¹ Беҳбудий М. Таиланган асарлар (Нашрга тайёрловчи Б.Косимов). – Т. Мъяннамят, 1997 - 170-б

² Тўйчибоев Б. Фитрат ва хозирги ўзбек адабий тилий Фитрат аюқумани матерналлари – Буҳоро, 1992. – 73 б. – 39-42-6; Тўйчибоев Б. Фитрат – тилшунос – Т. 1995.; Курбонова М. Абдурауф Фитрат ва ўзбек тилшунослиги (Методик кўлланма) – Т. Университет, 1997 – 48 б.; Курбонова М. Фитрат – тилшунос – Т. Университет, 1996 – 32 б.; Курбонова М. Фитратининг тилшунослик мероси Фил Фанлари номиди дисс. автореф – Т. 1993 – 29 б.; Кутлимуродов М. Ўзбек тилшунослиги тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1990. – № 3

Bunday yondashishsiz butun o'lkta bo'ylab yagona yangi (zamonaviy) adabiy tilni ommalashtirish mumkin emas edi. Shu yo'lgina (maktabda ona tili darslari orqali ta'lif oluvchiga adabiy til me'yorlarini, unda imlo va talaffuz mezonlarini, ulardan foydalanish madaniyatini singdirish) "Andijonda yozilgani qarshida anglashilmaydur... binobarin baqadri imkon oz arabiya va forsiy, oddiy turkiy lug'at ila hozirgi shevalarda yoza bermoqdan boshqa iloj yo'qdur" degan o'lkada l'soniyl butunlikni ta'minlash mumkin emas degan fikrni rad etar va savodxonlik bilan birga butun o'lkada (O'zbekistonda) zamonaviy adabiy milliy tilni keng yoyishiga imkon berar edi. Bu usul g'arbiy Yevropa davlatlarining XIX-XX asrlardagi tajribasida o'zini oqlagan, sinalgan usul edi.

Buning ustiga XX asr boshlarida (radio, televideniye bo'limgan davrda) maktab adabiy til me'yorlarini ommalashtiruvchi yagona manba bo'lganligini hisobga oladigan bo'lsak, ona tili maxsus ta'liming grammatik qurilish orqali ta'lif oluvchi nutqini me'yorlashga qaratish (ya'ni *dug o* dema, *duo de*; *baropti/borvotti/borutti* shaklida emas, balki *boryapti* yoz; *kelipti* deb talaffuz qil, *kelibdi* shaklida yoz va h.) yagona to'g'ri yo'l edi.

Ona tilining grammatik qurilishini o'quvchilarga singdirish orqali adabiy me'yorlar yetkazilar, ularda me'yorga muvosiq yozma va og'zaki nutqda qo'llash odatlari shakllantirilar edi. Shu bilan birga ona tilining maxsus ta'limi maqsadi va mazmuni maktabda o'qitiladigan boshqa o'quv predmetlari bilan uyg'unlashar edi. Zeroki, ommaviy (umumiyl) maktablarda o'qitiladigan ko'pchilik o'quv predmetlari mazmuni o'zlari mansub fan sohasining ilmiy asoslari va tayanch tushunchalarini ta'lif oluvchilarga yetkazishga qaratilgan edi¹, ona tili grammatikasi o'quv predmeti ham til haqidagi ilm asoslarini, ya'ni tilshunoslikning asosiy tushunchalarini berishga xizmat qilar edi. Tabiiyki, tilning fonetik, leksik va grammatik sath birliklari haqidagi ma'lumotlarni shunday nazariy asoslarsiz ta'lif oluvchiga yetkazish mumkin emas.

¹ Леднев В.С. Содержание общего среднего образования (Проблемы структуры). – М.: Педагогика, 1980. – 106-197-, 254-стр.

Yuqoridagilarni hisobga olib, tugal asos va komil ishonch bilan aytal olamizki, XX asrning 20-30-yillarida o'zbek tilidan ona tili sifatida maxsus ta'limi oldida ona tili fonetik, leksik va grammatic qurilishining zamonaviy talqini asosida yangi milliy adabiy til me'yorlarini ommalashtirish kabi maqsad juda to'g'ri, davr ehtiyojlari bilan uyg'un ravishda qo'yildi va tez samara berib, 10-15 yil davomida hozirgi o'zbek adabiy tilining respublikada keng amaliyotda bo'lishini va ommalashishini tugal ta'minladi.

Olim Usmonov, Sodiq Ferdous, Aleksandr Barovkov, Ayyub G'ulomov, Zamir Ma'rupov, To'xtasin Shermuhammedov, Yo'ldosh Abdullayevlarning 1925-1960-yillarda amalda bo'lgan darsliklari va, hatto, Abdurauf Fitrat, Munavvar Qori, Oayum Ramazon, Shorasul Zunnunlarning "O'zbekcha til sabog'liqi", Ashurali Zohiriyning "Imlo" kabi ishlarini sinchiklab o'rganish mazkur darslik va qo'llanmalarda fonetik, leksik va grammatic material asosan shu maqsadga – tovushlarning adabiy talaffuzi, adabiy so'z qo'llash va forma yasalishi, imlo va tinish belgilarni to'g'ri qo'llash, gapda so'z tartibi va ohang me'yorlarini ta'lim oluvchiga singdirishga qaratilganligini ko'rsatadi.

Boshqacha qilib aytganda, ona tilining maxsus o'quv predmeti sifatida ta'lim maqsadi o'z davri talablari va ehtiyojlariga to'la uyg'un edi hamda 1950-1960-yillarda o'z oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma-adabiy til me'yorlarini ommalashtirish masalasini hal etishga ulkan hissa qo'shdi. Mazkur maqsad bilan bog'liqravishda o'zbek tilini maktabda o'qitish metodikasi bo'yicha ilk mustaqil ilmiy tadqiqotlar ham 1950-1960-yillarda asosan shu muammoga-shevaviy xatolarni bartaraf etish, adabiy me'yorlarni singdirish va ommalashtirish masalalariga qaratilgan edi.

Kamol Xayrullayev, Yo'ldosh Abdullayev, Sulton Tursunov, Qurbonjon Abdurazzoqova, Belgivoy Mirzaahmedov, Karima Qosimova, Ne'mat Ahmedov, Oliya G'afforova, Musharraf Omilxonova, G'ayrat Azizov kabi ilk metodistlarning tadqiqotlari hamda nomzodlik dissertatsiyalari shu yonishlarda va shu maqsadga

bag'ishlangan¹. Bu davr darsliklarining ilmiy asoslari va ijtimoiy-tarixiy ahamiyati haqida muosir o'zbek tilshunosligining otaxoni professor Ayyub G'ulomov, jumladan, shunday yozadi: «С принятием учебника русского языка С.Г.Бархударова (1938) в качестве стабильного пособия для русских школ создаются учебники и для узбекских средних школ: «Грамматика» (ч.1, «Морфология», 1938, О.Усмонов, Б.Аvezov), «Грамматика узбекского языка» (А.Г.Гулямов, З.Магруфов, Т.Шермухамедов), ставшие теоретической базой для дальнейшего изучения норм языка»².

60-yillarga kelib maktabgacha ta'lif muassasalari, radio, televideniye, matbuotning keng tarqalishi "adabiy nutq" va "shevaviy nutq" orasidagi farq mavjudligining har bir o'zbekning oniga yetkazadigan bo'ldi. Pirovard oqibatda 50-yillarning oxirlariga kelib, ona tilining maxsus ta'limi oldiga qo'yilgan va o'z vaqtida zarur, o'ta dolzarb ijtimoiy buyurtma bo'lgan maqsad amalga oshdi – adabiy til me'yorlarini ommalashtrish maktabgacha ta'lif muassasalari, boshlang'ich ta'lif, ommaviy matbuot zimmasiga ko'chdi.

Bugungi kunda ham bolaga adabiy til me'yorlarini singdirish, asosan, boshlang'ich ta'lif bosqichidayoq yakunlanishi nazarda tutiladi. Bu masalada radio va televideniyening ulkan roli borligi ham

¹ Абдуллаев Й. Мактабда ягона орфография ва шутк режими. – Т: ЎзПФИТИ. 1953-47 б: 9. Абдуллаев Й. 7-синфда она тилидан бози темаларни ўтишдаги таърибамиз // Союз мактаби. 1954 – № 4. Абдуразаков К. Она тилидан 5-синфларда ўкувчилар фволлигини ошириш: – Пед. фанлари номз дисс афтореф – Т: 1964 – 25 б. Ахмедов Н. Вопросы поэзии и индивидуального стиля автореф дисс канд филол наук Т: ТАИ, 1974 – 23 стр. Маърупов З., Абдуллаев Й. Синтаксис ва пунктуация машҳулари тўлими (I-V наутилари) – Т: 1952-1956, Мирзахамедов Б. Ўзбек мактабларининг 6-синфларида кўйма сўзларни ўқитиш методикаси Пед. фан номзоди дисс. автореф – Т: 1965 – 32 б. Турсунов С. Ўзбек мактабларининг 4-синфларида грамматикани ўқитиш методикаси. Пед. фан ном дисс автореф – Т: 1957 – 32 б. Хайруллаев К. Бухоро вилояти мактабларининг 5-6-синфларидаги она тилидан ўкувчиларнинг типик орфографик салолари хамда унинг олини ва бартароф этиши йўллари. Пед. Фанлари номзоди дисс автореф – Т: 1957 – 24 б. Косимова К. 5-синфларда она тили дарсларидаги лугат ўстида ишлаш. Пед. фанлари номзоди дисс автореф – Т: 1966 – 25 б.

² Узбекская ССР. Т. УзСЭ. 1981 стр. 349 ("Sergey Barkudarovning rus tili maktablari uchun rus tili grammaticasi stabil (barqaror) darslik sifatida ommalashqan (1938) shu darslik asosida o'zbek maktablari uchun ham darsliklari yaratildi (O.Usmonov, B.Avezov. Grammatika I-qism. Morfologiya. T.1938; A.K.Bardykov, A.G.Ulomov, Z.Mairopov, T.Shermuhammedov. O'zbek tili grammaticasi, I va II qismilar T.1943) Bu darsliklar keyinchalik o'zbek adabiy til me'yorlarini belgilashda muhim ahamiyat kashf etdi.

"Buxoro haqqiqati" gazetasining 1951-yil 26-aprel sonida bosilgan jondorlik mahalliy yozuvchi M.Tursunovning "Sholg'om" hikoyasidagi bir lavha boboning tuman bog chasiga qaynaydigan neverasi bilan suhbati shu nuziyati nazardan juda diqqatnazardir. "Qizim, bu kecha biznikida qol. Men senqa "Shalg'am" ertagini aytib beranman. Yana yangi ertaklar haun topib qo yaganman" -Bobojon, siz shalg'am demang. bu noto'g'ri, sholg'om deng

hech birimizga sir emas. Mazkur masala O`zR Davlat tili to`g`risidagi qonunning 7-moddasida ham aniq va ravshan belgilab berilgan¹.

1957-1969-yillarda ta`limni isloh etish bo`yicha qabul qilingan qator qonun va qarorlar o`rta umumta`limning tayanch bo`qinlarida ona tili o`quv predmetining maqsad va mazmuniga keskin ta`sir ko`rsatmadi. Faqat 1957-yildan boshlab amaliyotda qo`llanilgan A.Barovkov, A.G`ulomov, Z.Ma`rurov, T.Shermuhammedov, Y.Abdullayevlarning "O`zbek tili darsligi"da – nomlanishda "grammatika" so`zi "darslik" bilan almashtirilganligiga qaramay-amaliy tatbiqdan ancha uzoq grammatik material (xususan, sintaksis qismida) miqdori oshdi; o`zbek tili ta`limida 1980-1990-yillar matbuotida va tadqiqotlarida keskin qoralangan grammaticum va akademizm kurtaklari paydo bo`la boshladi. Shu bilan birga ta`limning bu bo`qinida ona tili ta`limi oldida savodxonlikni ta`minlash, adabiy nutq me`yorlarini singdirish va ommalashdirish bilan bir qatorda yozma va og`zaki nutqni rivojlantirish vazifasi ham turganligi qayd etila boshlandi va o`zbek tilini ona tili sifatida maxsus o`qitishning yangilangan, takomillashgan maqsadini shakllantirishga zamin yaratildi. Bu o`zbek tilini ona tili sifatida ta`limi maqsadi tarixida navbatdagi boshqichni tashkil etadi.

Nutqni rivojlantirish davri (1970-1990-yillar)

1970-yilda maktab ta`limini hayot bilan bog`lashni mustahkamlash shiori ostida maktab o`quv predmetlari (resp.programma va darsliklar) mazmuni qayta ko`rildi, yangilangan bo`ldi. Bu yangilanish ona tili ta`limi oldiga savodxonlikni ta`minlash, adabiy til me`yorlarini ommalashdirish bilan bir qatorda yozma va og`zaki nutqni rivojlantirish vazifasini ham qo`yan bo`lsa-da, bu ona tili dasturida "bog`lanishi yozma va og`zaki nutqni o`stirish" bo`limini qo`shish, unga har bir sinfda yozma ishlар учун маълум miqdorda o`quv soati ajratishdan nari bormadi; ona tili dastur va darsliklarining asosiy mazmuni o`zbek tili grammatik qurilishining S.Barxudarov darsliklarida o`z aksini topgan rus tili qurilishi talqiniga mos tizimining sharhi bilan cheklangan, asosiy o`quv materiali va darslarning mazmuni yangi

¹Qarang «Ўзбекистон Республикаси давлат тили ҳакида» Конун - Т Узбекистон, 1989

maqsad-nutqni o'stirish bilan uzviy va ichdan bog'lanmagan edi. Ona tili ta'lim maqsadi va mazmuni bilan dars materiallarida uzilish sodir bo'ldi; ona tili materiallari asosida tilshunoslik asoslarini o'rganish va yozma ishlar uchun ajratilgan o'quv soatlarida yozma nutq o'stirish mashqulotlari bir-biridan ajralgan, o'zaro uzviy bog'lanmagan edi.

1970-1990-yillarda amaliyotda bo'lgan ona tilidan A.G`ulomov, Y.Abdullayev, Z.Ma'rupo, M.Omilxonovalarning VI-VII, M.Asqarova, Y.Abdullayev va b.larning VIII-IX sinflar uchun darsliklari 1989-yildan boshlab "Ona tili" nomi ostida chiqa boshlagan bo`lsa-da, ularda mazmun-mohiyati bilan 40-yillar grammatizmi saqlangan va hatto chuqurlashtirilgan, maktabni ilm-fan bilan yaqinlashtirish, fan yangiliklarini matabga olib kirish maqsadlarida yana ham ilmiylashtirilgan, amaliy tatbiqdan uzoqlashtirilgan edi. Bu silsilada M.Asqarova, K.Qosimovalarning V sinf uchun "Ona tili" darsligi usul jihatidan bir muncha farq qilsa-da, u ham umumiy dastur va usulga bo`ysundirilgan edi.

Shuning uchun 1990-yillarning oxirigacha ona tili mashqulotlarining amaldagi (dastur va darsliklarda o'z aksini topgan, o'quv materiali sifatida o'rgatilayotgan) mazmuni bilan maqsadi-nutqni rivojlantirish orasida uzilish bo'ldi.

Bu yillarda amalga oshirilgan metodik yo`nalishdagi ilmiy tadqiqotlarda ham asosiy diqqat grammatik materialni berish jarayonida o'quvchilar nutqini rivojlantirish masalalariga qaratildi. Sh. Koenov, R.Inog'omova, N.Shukrullayev, R.Qayumova kabi tadqiqotchilarining izlanishlari shu yo`nalishda bo'ldi¹. Yuqorida sanab o'tganlarimiz bilan bir qatorda mazkur tadqiqotlarda ona tili darslarida ilmiy-grammatik masalalarga ko'p e'tibor berish nutqni rivojlantirishga monelik qilayotganligi ham qayd etib o'tiladi va nutqni rivojlantirishda o'quvchining mustaqil izlanishi, mustaqil ishi alohidä ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi.

¹ Иногомова Р. Феъл замонларини ўрганишда ўкувчиларнинг нутки устида ишлаш. Пед. фан.номзоди дисс. автореф.-Т.1974-29 б.; Кознов Ш. Ўзбек мактабларининг бошланғич синфларида ўкувчиларни баён езишга ўргатиш. II фан и дисс автореф.-Т.1973-29 б. va b

Jumladan, O.Roziqov, A.G'ulomov, N.Shukrullayev kabi olimlarning ishlarida ayni shu masala ko'tarilgan¹. Bundan xulosa qilib aytilish mumkinki, nutqni rivojlantirish maqsadi o'rtaga qo'yilgach, oldingi ta'lim mazmuni va usulining yangi maqsadga nomuvofiqligi aniqlasha boshladi. Bu ona tili ta'limida turg'unlik, davr ehtiyojlaridan orqada qolish, inqiroz nishonalarini sodir bo'layotganligidan, mazmun va usul maqsaddan uzilganligidan dalolat edi. Jurnalist A.Haydarov "O'qituvchilar gazetasi"ning 1989-yil 2-dekabr sonida e'lon qilgan maqolasida shunday fikrlarni keltiradi: "O'rta maktabning V-VIII sinflari uchun "O'zbek tili grammatikasi" darsliklari materiallarini 80 foiz o'zlashtirgan studentga institutni bitirish uchun davlat imtihonlaridan "4"baho qo'yamiz.

Xayolimdan maktabda o'tilgan, lekin allaqachon esimdan chiqib ketgan ergash gapning bir necha turi, bosh va ikkinchi darajali bo'laklar, aniqlovchi va to'ldiruvchining xillari, ravishdosh va sifatdoshlar kabi turli-tuman grammatik forma va kategoriylar haqidagi quruq bilimlar, bajarilgan son-sanoqsiz mashqlar kechadi. Ajabo! Ular nega kerak ekan?..."². Bularning barchasi ona tili ta'limi XX asrning 80-yillarda inqirozga uchraganidan, o'z oldida turgan maqsadni amalga oshira olmaydigan holatga tushib qolganligidan guvohlik berardi. Mazkur masaia 80-yillarning oxiri 90-yillar boshida matbuotda va ilmiy ishlarda, jumladan, A.G'ulomov³, O.Roziqov⁴, M.Saidov⁵ kabilarning tadqiqotlarida atroflicha muhokama qilindi. Lekin ta'lim mazmuni, xususan, usulini yangilash, birinchi bobda ko'rib o'tganimizdek, bir qaror yoki buyruq bilan amalga oshirilishi mumkin emas. Bunda shoshma-shosharlik, kaltabinlikka ham, o'zib o'larchilikka ham yo'l

¹ Розиков О.Ўзбек мактабларининг бошлангич синкларидаги ўқувчиларниң мустакил ишлари. П.Ф. дисс. автореф - Т. 1967. Шукруллаев Н.Ўзбек мактабларининг 8-синкларидаги юнусмасаларни ўқиттишда ўқувчилар нутканини ривожлантириш. П.Ф. дисс. автореф - Т. 1975. Гуломов А.Ўзбек мактабларининг 4-синкларда она тили дарсларидаги ўқувчиларининг мустакил ишлари. Пед. Фанлари номзоди дисс. автореф - Т. 1975 - 24 б.

² Ҳайдаров А. Фидоий // Ўқитувчилар газетаси - 1989. 2 декабрь - № 50

³ Гуломов А.Ўзбек мактабларининг 4-синкларда она тили дарсларидаги ўқувчиларниң мустакил ишлари. Пед. Фанлари номзоди дисс. автореф - Т. 1975 - 24 б

⁴ Розиков О.Ўзбек мактабларининг бошлангич синкларидаги ўқувчилариниң мустакил ишлари. Пед. Фанлари номзоди дисс. автореф - Т. 1967 - 32 б

⁵ Saidov M.Ўзбек мактабларининг 5-синкларидаги она тили таълими жараёнида тафаккурини ривожлантирувчи укув топширикчелари ва улардан фойдаланиш методикаси. Пед. Фан. наути диссертацияси - Т. 1999 - 123 б. Saidov M. Она тили дарсларидаги ўқувчилар фволлиганини ошириш - Т. РГМ. 1993 - 43 б

qo'yib bo'lmaydi. Shunday sharoitda O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi ham "Kengashli to'n tor kelmas" maqoliga amal qilib ish tutdi. + .

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ona (o'zbek) tilidan ta'lim maqsadi, mazmuni, usuli va vositalarini yangilash, ularni turg'unlikdan chiqarish, zamon talablariga va jahon mezonlariga muvofiqlashtirish yo'llarini izlab, o'zbek tilshunoslari hamda tadrischilarini orasida katta munozara va fikr almashtirish uyushtirildi, har bir yig'ini qariyb ming mutaxassis olim-u amaliyotchi o'qituvchilarini birlashtiragan "O'zbek tili doimiy anjumani"ni ta'sis etildi. Bu izlanishlarga o'z vaqtida O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligining peshvolari professor Xolmirza Xoliyorov (1987-1989), professor Yusufjon Abdullayev (1989-1991), professor Jo'ra Yo'ldoshev (1991-2000)lar rahbarlik qilishdi. Shu maqsadda 1989-90-yillarda ona tilidan qator muqobil dasturlar tuzilib, keng muhokama qilindi.

Muhokamalar jarayonida ona tili ta'limining 1970-1980-yillardagi inqirozi - oldiga qo'yilgan maqsadni amalga oshira olmaganligi - sabablari ilmiy asosda ochib berildi; ta'lim oldida turgan yangi maqsadni - nutqni rivojlantirishni - tilning qurilishi talqiniga tayangan ta'lim mazmuni voqelantira olmasligi, bu maqsadga erishish uchun ta'lim mazmuni va usuli tubdan yangilanishi, nutq fikrning, tafakkurning mahsuli bo'lganligi sababli ta'lim oluvchida nutqning rivojlanganligiga erishish uchun ona tilidan ta'lim mazmuni va usuli ta'lim oluvchida ijodiyatni kuchlantirishni shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi, buning uchun ta'lim oluvchiga adabiy me'yorlarnigina emas, balki uning ongida mujassamlangan ona tili imkoniyatlari xazinasini ochish, bu xazina kalitini unga yetkazish lozimligi aniqlandi. Mazkur maqsad bixevoiriestik psixologik tamoyillarga tayanadigan va ona tili qurilishi talqini asosida, asosan, retroskopik bilimlar beradigan ta'lim usullari bilan amalga oshirilishi mumkin emas edi. Bilimdoni jirochini tayyorlash davri bosib o'tilgan edi. Kun tartibida nafaqatbilimdon, balki bilim olish yo'llarini biladigan, bir maqsadga erishishning turli usul va vositalardan (imkoniyatlardan) muayyan sharoitda eng qulay, sersamarasini tanlay oladigan va amalga tatbiq eta oladigan shaxsni -

mustaqil ijodiy tafakkur sohibi hamda tadbirkor shaxsni tarbiyalash turardi. Bunga eski mazmun, eski usul bilan erishib bo'lmasdi. Zaruriy ehtiyojlarni qondirishga intilish o'zbek tilining ona tili sifatida ta'limi maqsadida yangi davrni-ijodiy tafakkur sohibini yetishtirish davrini boshlab berdi. Runi amalga oshirish esa ona tili ta'limi maqsadi tarixida yangi-istiqlol davri va mustaqil fikrli ijodiy tafakkur sohibini yetishtirish davriga to'g'ri keldi.

Mavzu yuzasidan savel va topshiriqlar:

1. Ta'lim muassasalarida ona tilini maxsus o`quv predmeti sifatida o`qitish zarurati nimalarda yaqqol sezildi?
2. Ona tili ta'imida adabiy til me'yorlarni singdirish davri haqida gapiring.
3. Ona tili ta'imida nutq (og`zaki va yozma)ni rivojlantirish davri o`zini oqladimi? Nega?
4. Ta'limning xususiy maqsadi qanday va kim tomonidan belgilanadi?
5. Davr talablari asosida ijtimoiy buyurtma sifatida belgilish va jamiyatning taraqqiyot boshqichi xususiyatlari bilan bog`liq ravishda o`zgaruvchaniqlik ta'limning xususiy maqsadiga xosmi yoki ta'limning umumiy maqsadiga oidmi?
6. "Taraqqiy etgan turkiy shevadagi ilmiy va fanniy kitoblarini anglamoqqa sa'y va harakat etayluk. Kelar zamon uchun hozirlanaylik, o'tgan zamon uchun emas." Ona tili, ona tili" – bu yaxshi orzu. Ammo tilsiz onalar tilig'a maktabiy kitoblar yozila bersa, Turkistonda adadsiz kitoblar yozmoq lozim kelurki. Andijonda yozilgani Buxoroda, Avliyootada yozilgani qarshida anglashilmaydur. Chunki bu onalarni tili bir-biridan farqlikdur. Taraqqiy etgan millatlar onalarni o'qutar ekan, biz avval onamizni o'qutub, anga til o'rgatmog'imiz kerak. Chunki bizni ilm va tilsizligimiz alardandur". Mazkur fikr muallifi kim? Muallif bu so`zları bilan nima demoqchi?
7. Grammatizm va akademizm deganda nimani tushunasiz?
8. Qaysi usullar g`arbiy Yevropa davlatlarining XIX-XX asrlardagi tajribasida o`zini oqlagan, sinalgan usul edi?

9. Ona tilining grammatic qurilishini o'quvchilarga singdirish orqali nima maqsad amalgam oshirilar edi?

10. 1989-yildan boshlab "Ona tili" nomi ostida chiqa boshlagan darsliklar nima uchun mazmun-mohiyati bilan 40-yillar grammaticmini saqlagan va hatto chuqurlashtirgan? Buning mafkuraga nima daxli bor?

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1; 2; 3 ; 4; 5; 130; 148; 156; 157; 197]

MUSTAQILLIK DAVRIDA ONA (O'ZBEK) TILI TA'LIMI MAQSADI

Reja:

1. Mustaqillik davrida bixevoirizmdan verballik, izlanuvchanlik, onglilik, amaliy tatbiq (kognitiv va pragmatik) tomon siljish.

2. O'quvchi ta'lif jarayonining subyekti, o'qituvchi ta'lif oluvchi o'r ganish jarayonining tashkilotchisi.

3. Milliy istiqlol davriqa ona tili ta'limining yangilangan maqsadi, mazmuni, usuli va vositalari.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar

Bixevoirizm, verballik, izlanuvchanlik, onglilik, kognitivizm, pragmatika, UMIS-YHVO, ona tili ta'limining yangilangan maqsadi, mazmuni, usuli va vositalari

XX asrning 50-yillarida g'arbda va AQSHda, 60-yillarida esa sovet didaktikasi va psixologiyasida bixeoviristik nazariyaga asoslangan hamda XIX asr oxiri XX asrning boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy talablarga javob beradigan retroskopik-retseptiv usulda bilimdon ijrochini yetishtirishga qaratilgan ta'lif tizimi o'z vazifasini o'tab bo'lganligi, yangi davr – tugal bozor iqtisodi davri tamoman boshqa – mustaqil ijodiy tafakkurga qodir tadbirkor shaxsga – muhajo ekanligi masalasi muhokama etila boshlandi. Ta'lif nazariyasi asoslari bixeovirizmdan verballik, izlanuvchanlik, onglilik, amaliy tatbiq

(kognitiv va pragmatik) psixologik asos tomon silijiy boshladi.¹ Xususan, D.P.Ozbelning "Pedagogik psixologiya. Kognitiv yondashuv" (1968) asaridan so'ng ta'lilda retseptiv usul [reception leorniny]dan ko'ra yangi davrda kashfiyot usuli [discovery leorniny] muvoqiq ekanligi oydinlashdi². Bu usulda o'quvchiga, retseptiv ta'lilda bo'lganidek, bilim (qoida, qonuniyat, xulosa va hukmlar) tayyor holda berilib, ta'lim oluvchidan uni o'zlashtirish va takrorlash talab etiimaydi, o'quv materiali hamda topshiriqlar silsilasi ta'lim oluvchiga shunday beriladiki, u o'ziga zarur bo'lgan bilimni o'qituvchi rahbarligida mustaqil ish va izlanish faoliyati bilan kashf etsin, hosil qilsin³. Boshqacha qilib aytganda, o'quvchi ta'lim jarayonining foili (subyekti), o'qituvchi ta'lim oluvchining *o'rganish* (e'tibor bering "o'rgatish" emas!) jarayonining tashkilotchisi, boshqaruvchisi mavqeida bo'ladi. Ta'limga shunday asosda yondashilgandagina u bilimdon ijrochini emas, mustaqil ijodiy tafakkur sohibi va tadbirdor shaxsni yetishtirishga xizmat qila oladi. Yangi maqsad ta'limni yangi asoslarda qurishni talab qiladi. Demak, ta'lim mazmuni ham, usul va vositalari ham yangilanishi lozim.

Sovet didaktikasida shunga yaqin ta'lim usuli muammoli ta'lim (проблемное обучения) deb nomlanadi⁴ va bu usul g'arb olimlari da'vo etganidek "tamoman yangi" emas⁵. Jumladan, I.Y.Lernerning "Muammoli ta'lim haqida pedagogik ilmiy adabiyotlar" asarida⁶ bunday ta'lim usuli haqida qadimgi yunon faylasufi Suqrot ma'lumot bergenligi to'g'risida gap boradi. Sovet ta'lim psixologiyasi va didaktikasida bu yo'nalish V.V.Davidov hamda uning ko'p sonli shogirdlari tomonidan rivojlantirilgan⁷.

¹ Ausubel D P. Educational Psychology A Cognitive View. - N Y , 1968. - № 45., Ausubel D P., Robinson F. G. School Learning An Introduction to Educational Psychology - 1969. - № 32; Ausubel D.P.,Novak J D.,Hanesian H. Educational Psychology A Cognitive View.- N Y , 1978. - № 43.

² Ausubel D P. Educational Psychology A Cognitive View. - N Y , 1968. - № 45, s.30.

³ Ausubel D P., Robinson F. G School Learning: An Introduction to Educational Psychology - 1969. - № 32 ; Ausubel D P.,Novak J D.,Hanesian H. Educational Psychology A Cognitive View.- N Y , 1978. - № 43

⁴ Лернер И Я, Скаткин М Н. О методах обучения. - М.: Педагогика, 1979. - стр.119

⁵ Брусянцева Т. Н. Теория осмысленного вербального обучения // Сов. педагогика 1988 -№ 2, стр. 127

⁶ Лернер И Я. Педагогическая литература о проблемном обучении. - М. 1983.

⁷ Давидов В В. Виды общения в обучении . - М.: Педагогика, 1972

Og'zaki bayon¹ yoki reproduktiv sharhlash, ko'rgazmali bayon (объяснительный-иллюстративный или репродуктивный²) ta'lim usuli yetakchilik qilgan sovet didaktikasida muammoli ta'lim qo'shimcha, yordamchi – xususiy maqsadlarda, ayrim o'rirlarda qo'llaniladigan imkoniyatlardan biri sanalardi³.

XX asming oxirlarida sovet didaktikasida hukmronlik qilgan retroskopik-deduktiv (retseptiv) ta'lim usulining qotib qolganligi, natijada ta'lim davr ehtiyojlaridan orqada qolganligi ma'lum bo'ldi. Bu haqda, jumladan, o'sha davrda (1988) SSSR Maorif Vazirligini boshqargan Sergey Shcherbakov shunday yozgan edi: «Минрос СССР и АПН СССР повинны в том, что научная разработка методики обучения отстает от потребностей сегодняшнего дня. Плохо используются достижения психологии и дидактики»⁴. Sovet ministrining bu e'tirofidan ancha oldinroq o'zbek metodisti A.G'ulomov o'sha davrda mavjud bo'lgan retseptiv-retroskopik ta'lim usuli va grammatik talqinlarga tayanadigan ta'lim mazmuni asosida o'zining ona tili darslarida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini oshirish yo'nalishida 1976-1979-yillardagi tajriba-sinov ishlaringning samara bermaganligini ma'lum qilgan edi⁵. Shuning uchun O'zbekistonimizda ta'limning, jumladan, ona tili ta'limining maqsadi, uning bilan bog'liq ravishda mazmuni, usuli va vositalarini yangilash yo'llarini izlash hamda muhokama etish, shu maqsadlarda oldingi bandda eslatib o'tilgan munozara boshlandi⁶,

¹ Розиков О., Огаев С., Махмудова М., Адизов Б. Дидактика. – Т.: Фан, 1997. – 193-б

² Лернер И.Я., Скаккин М.Н. О методах обучения. – М.: Педагогика, 1979. – стр. 118.

³ Лернер И.Я., Скаккин М.Н. О методах обучения. – М.: Педагогика, 1979. – с.15-121; Розиков О., Огаев С., Махмудова М., Адизов Б. Дидактика Т. Фан. 1997. – 197-198-б. Савин Н.В. Педагогика – Т. Ўқитувчи, 1975

⁴ Шербаков С.Г. Неотложные задачи науки и практики // Сов. педагогика. – 1988. – № 2. с. 53.

⁵ Гулжонов А. Методика развития учебно-познавательного актива учащихся в процессе преподавания родного (узбекского) языка. – Автореф. дисс. д-ра пед. наук – Т.: ТашГГИ, 1991. – стр. 7.: Тилшунослик ва методика масалалари (Илмий маколалар тутгалими) (Масъул мухаррирлар Немматов X., Огаев С.) – Т. – Б. Университет, 2000. - 4-б.

⁶ Абдурахмонов Г. Ечимини кутаётган муаммолар// Ўзбекистон адабиёти ва санъати – 1988. 29 июль – № 31 . Аъламова М., Мусаев Т. Истиқболли дастурламал// Ўқитувчilar газетаси – 1999, 8 июнь – № 66. Жабборов Н. Немматов X. Назария билим методологияси еки узбек тилинн ўрганишиминг бавзи масалалари // Ўқитувчilar газетаси – 1989, 4 январь – № 1. Мавзумов М., Ахмедов А. Коидабозлил ўрнида вмалий машгулатлар //Ўқитувчilar газетаси – 1990, 1 август – № 61. Миркурбонов Н. Таълим учун дастурламал //Ўқитувчilar газетаси – 1990, 1 август – № 61. Необходимость и потребность // Учитель Узбекистана - 1988, 19 марта – № 23 . Талаб, эҳтиёж ва имконият // Ўқитувчilar газетаси – 1988, 5 марта. Тилшуносликни кайта куриш // Ўқитувчilar газетаси – 1987, 10 ноябрь – № 90. Ҳайдаров А. Янгилик – бу туб ўзгариши // Ўқитувчilar газетаси – 1989, 14 ноябрь – № 46. Ҳожиев А., Махмудов Н. Имкониятларни ишга солиш керак // Ўқитувчilar газетаси – 1988, 23 июль – № 60

muqobil dasturlar¹ e'lon qilindi, O'zbek tili doimiy anjumani (O'TDA) ish boshladi². Ana shu muhokama-yu izlanishlar samarasi o'laroq O'zR XTV huzurida ishlayotgan IMK 1989-yilning 9-iyunida o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishida o'rta ta'llimning V-IX sinflarida *ona (o'zbek) tili ta'llimining xususiy maqsadi ona tili imkoniyatlari asosida ta'llim oluvchida ijodiy tafakkurni, mustaqil fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda yozma va og'zaki shakllarda ro'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish* deb qabul qilindi hamda shu maqsadga muvofiq ta'llimining mazmuni, usuli va vositalarini yangilash choratadbirlari belgilandi³. Bu soha izlanishlariga O'zR XTVning RTM bosh-qosh bo'ldi. 80-yillarning o'rtalarida o'zbek tadrischilar ona tili ta'llimini ijodiy tafakkur so?ibini tayyorlashga xizmat qildirish, ta'llim jarayonini ongli (kognitiv)-pragmatik usulda tashkil etish uchun bilim hosil qilishning (xulosa, hukm chi?arishning) induktiv usuliga asoslangan dastur ishlab chi?ish ustida izlanishlar olib borgan edilar⁴. 1985-1989-yillarda tilshunos olim H.Ne'matov va tadriscihi A.G'ulomov hamkorligida tuzilgan shunday dastur⁵ eski ta'llim maqsadi, mazmuni va usuli SSSR Maorif Vazirligi nazoratida bo'lgan shariotda bir necha maktabda sinovdan o'tkazildi. Mavjud deduktiv

¹ Она тилидан мукобиلى дастурлар (лойиха) (Тузувчилар проф. О. Розиков, М.Мирзасов, Г.Жабборова) – Т.: Ўқитувчи, 1994.–Т.–248 б., «Ўзбек тилиндан программа лойихалари – «Индуктив» I кисм – РУММ, 1990.– 90 б.; «Ўзбек тилиндан программа лойихалари –«Ижод» II кисм.– Т.: РУММ, 1990.– 52 б., «Ўзбек тилиндан программа лойихалари – «Таълим» III кисм – Т.: РУММ, 1990 40 б., «Ўзбек тилиндан программа лойихалари – «Ўқитувчи» IV кисм.– Т.: РУММ, 1990 – 80 б.

Таълим бўғимларida она тили ўқитиш мазмунини янгилаш асослари. УТДА 2-йигини тезислари (Масъул мухаррир: Т. Нафасов) – Карши, 1993. – 172 б., Таълим жараёнинда сўз бойлигини оширишинин асосий омиллари УТДА 3-йигини тезислари (Масъул мухаррир Ж. Лагасов). – Т.: Ўқитувчи, 1995. 176 б., Таълим жараёнинда мати устуда ишлашини асосий омиллари УТДА 4-йигини тезислари (Масъул мухаррир М. Абдураимова). – Т.: Ўқитувчи, 1997. – 256 б., Таълим жараёнинда нутк маданиятини шакллантириш масалалари УТДА 5-йигини тезислари (Масъул мухаррир: Э. Килиев) – Т. Шарқ, 1999. 256 б.; Таълим жараёнинда ижодий тафakkuriни ривожлантириш масалалари. УТДА 6-йигини тезислари (Масъул мухаррир М. Абдураимова) – Т.: РТМ, 2001. – 98 б. Узбек тилинин ўрганиш ва ўқитишни кайта куриш хамда такомиллаштиришининг долзарб масалалари УТДА 1-йигини материаллари тезислари (Масъул мухаррир: Т. Рахматов). – Самарқанд: СамДПИ, 1991. – 318 б.; Узбек тили таълимида миллий истиқолол гөсенини сингидириш масалалари УТДА 7-йигини материаллари тезислари (Масъул мухаррир М. Абдураимова) – Т.: РТМ, 2003. – 124 б., Узбек тили таълими жараёнинда Фанлараро болганиш масалалари УТДА 8-йигини материаллари тезислари (Масъул мухаррир: М. Абдураимова). – Т.: РТМ, 2005.–191 б. ва б.

² «Ўзбек тилини ўрганиш хамда ўқитишни кайта куриш ва такомиллаштиришининг долзарб масалалари» донийи илмий-методик конференция Низоми //Ўқитувчилар газетаси. – 1990. 3 февраль – № 10; Хайдаров А Янгилик – бу туб узгариш // Ўқитувчилар газетаси. – 1989. 14 ноябрь – № 46.

³ Гуламов А. Методика развития учебно-познавательной активности учащихся в процессе преподавания родного (узбекского) языка – Автореф дисс дра. пед наук – Т. ТашГГИ, 1991. – с.8.

⁴ Узбек тили (Ўзбек мактабларининг V-IX sinflari учун она тилидан программа) (Тузувчилар проф.Х.Нематов, доц А.Гуломов) – Бухоро Университет, 1990. – 56 б.

(retseptiv) ta'lism hukmronligi sharoitida ongli (kognitiv)-pragmatik usul unsurlarini o'z ichiga olgan bu dastur (Bu dastur mavjud tizimni to'la yangilash vazifasini o'z oldiga qo'yagan ham, qo'ya olmas ham edi; u davorda ta'lism mazmuni, grammatic tizim talqini butun ittifoq bo'yicha bir xil bo'lishi talab qilinar edi. Shuning uchun dasturga tub o'zgartirish kiritib bo'lmas edi¹) tajriba-sinov ishlarida yaxshi natijalar berdi; foydalilik ko'rsatkichi ≈ 8 % ni (G'arb (AQSH va Buyuk Britaniya) olimlari ongli (kognitiv) usulga asoslangan ta'limgning samaradorlik ko'rsatkichi 10-15 %ni tashkil etishi haqida ma'lumot beradilar²) tashkil etdi³.

SSSRda ta'lism jarayonining inqirozi rasman tan olingandan so'ng (1985) mazkur dastur 1988-1998-yillar davomida turli darajadagi (alohida metodik birlashmalar, tuman, viloyat, respublika miqyosidagi anjumanlar, himoya kengashlari va h.) sinov va muhokamalar uchun manba bo'ldi. Chunonchi, o'rta ta'limgning V-IX sinflari uchun "Induktiv-2", "Ijod-2", "Ta'lism-1", "O'qituvchi-2" ramzlarasi asosida e'lon qilingan besh dastur loyihasi⁴ O'TDAning 1991-yil aprelda o'tkazilgan birinchu yig'inida muhokama etilib, izlanish va tajriba-sinov ishlarini uchun "Induktiv-2" dasturini asos qilib olish haqida tavsiya qabul qilindi⁵. 1993-yilning aprelda O'TDAning ikkinchi yig'inida yangi maqsadga imuvofiq ona tili ta'limgining mazmuni, usuli va vositalari keng muhokama etildi⁶. 1995-yilda Jizzaxda o'tkazilgan O'TDAning uchinchi yig'ini Xalq Ta'limi Vazirligidan takomillashtirilgan "Induktiv-2" dasturi asosida respublika miqyosida sinov ishlarini boshlash hamda sinov darsliklari nashr etishni so'radi.

¹ Хамроева ИИ Они тилицдан янги дастур усигда изланишлар // «Тилшунослик ва методика масалалари» илмий маколалар тўплами. Т.-Б. Университет, 2000. - 44-б.

² Ausubel D P., Novak J D., Hanesian H Educational Psychology: A Cognitive View - N Y., 1978 - № 43

³ Гулямов А. Методика развития учебно-познавательного активности учащихся в процессе преподавания родного (узбекского) языка - Автореф. дисс. д-ра пед. наук. - Т.: ТашГГИ, 1991. - с. 29-31.

⁴ «Ўзбек тили»дан программа лойихалари - «Индуктив» I кисм - Т.: РУММ, 1990 - 90 б.; «Ўзбек тили»дан программа лойихалари - «Ижод» II кисм - Т.: РУММ, 1990 - 52 б.; «Ўзбек тили»дан программа лойихалари - «Таълим» III кисм - Т.: РУММ, 1990. - 40 б.; «Ўзбек тили»дан программа лойихалари - «Ўйнтувчи» IV кисм. - Т.: РУММ, 1990 - 80 б.

⁵ Ўзбек тилини урганиши ва ўқитишни кайта куриш хамда takomillashtirišning dolzقارب масалалари ЎТДА 1-йигини материаллари тезислари (Масъул мухаррир: Т.Рахматов) - Самарканд: СамдПИ, 1991 - 318 б.

⁶ Таълим бўғингларидаги она тили ўқитиш мазмунини янгилаш асослари ЎТДА 2-йигини тезислари (Масъул мухаррир Т. Нафасов). - Карши, 1993 - 172 б.

1997, 1998-yillarda 30 000 (o'ttiz ming) nusxada, shunday darsliklar 5-va 6-sinflar uchun *nashr* etildi hamda respublika maktablarida sinaldi¹.

O'zR Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydag'i "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limgan tashkil etish to'g'risida"gi 203-qarori asosida umumiy o'rta ta'limgan V-IX sinflari uchun ona tili o'quv dasturi H.Ne'matov, A.Oripov, B.Qobilova, M.Valiyevalardan iborat maxsus ishchi guruhi² tuzildi va H.Ne'matov, A.G'ulomov, N.Mahmudov, M.Abduraimova, M.Qodirovlardan iborat mualliflar jamoasi tomonidan takomillashtirildi, O'zR XTV rahbarligida respublika miqyosida sinovdan o'tkazilib, matbuotda, O'TDAning beshinchini yig'inida muhokama etildi³, bir necha marta tuzatildi⁴ va, nihoyat, 1999-yilning aprel oyida vazirlik tomonidan tasdiqlandi. Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 16-avgustdag'i "Umumiy o'rta ta'limgan DTSLarini tasdiqlash to'g'risida"gi 390-qarori bilan 1999/2000-o'quv yilidan boshlab dastur bosqichma-bosqich amalga tatbiq etildi.⁵

2000-2003-yillarda mazkur dastur asosida V-IX sinflar uchun darsliklarning birinchi avlodi – mustaqil O'zbekiston Respublikasining ona tilidan bilim hosil qilishning induktiv usuliga tayangan, ongli (kognitiv), verbal-pragmatik ta'lim metodiga asoslangan va ijodiy tafakkur sohibini tayyorlashga qaratilgan ilk darsliklari e'lon qilinib, amaliyatga tatbiq etildi⁶.

¹ Незматов Х., Гуломов А., Абдураимова М., Косимова Н. Она тили Умумтаълим мактабларининг 5-сифи учун синов дарслиги. – Т. Ўқитувчи. 1997. – 170 б. 100 Незматов Х., Гуломов А., Абдураимова М. Косимова Н. Она тили Умумтаълим мактабларининг 6-сифи учун синов дарслиги. – Т. Ўқитувчи. 1998.

² Умумий урта таълим укув дастурларини тайёрлаш, синаб куриш ва жорий этини бўйича respublika комиссияси таркиби // Маърифат. – 1998, 23 май № 37

³ Таълим жараёнида нутк маданийтигин шакл-лантирини чисаллари ўГДА 5-йигини тезислари (Масъул мухаррир: Э. Киличев). – Т. Шарқ, 1999. – 256 б.

⁴ Незматов Х., Гуломов А., Абдураимова М., Косимова Н. Она тили Умумтаълим мактабларининг 5-сифи учун синов дарслиги. – Т. Ўқитувчи. 1997. – 170 б.

⁵ Умумий урта таълимининг ДУС ва ўкув дастури. Она тили Адабиет. – Т. Шарқ, 1999. – 4-6.

⁶ Ne'matov H., G'ulomov A., Abduraimova M., Qosimova N. Ona tili. Umumta lim maktablarining 5-sinf uchun darslik. – T. O'qituvchi, 2000. – 144 b.; Ne'matov H., G'ulomov A., Abduraimova M., Qosimova N. Ona tili Umumta lim maktablarining 6-sinf uchun darslik. – T. O'qituvchi, 2000. – 192 b.; Ne'matov H., G'ulomov A., Abduraimova M., Qodirov M. Ona tili Umumta lim maktablarining 7-sinf uchun darslik. – T. O'qituvchi, 2000. – 128 b.; Ne'matov H., Mahmudov N., Sayfullayeva R., G'ulomov A., Abduraimova M. Ona tili Umumta lim maktablarining 8-sinf uchun darslik. – T. Ijod-dunyosi, 2001. – 96 b.

Ne'matov H., Mahmudov N., Sayfullayeva R., G'ulomov A., Abduraimova M. Ona tili Umumta lim maktablarining 9-sinf uchun darslik. – T. O'qituvchi, 2002. – 96 b.

